

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MILLIY LIBOS VA SAN'AT FAKULTETI

TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI
KASBIY KOMPETENTLIK
FANIDAN

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

TERMIZ - 2023

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MILLIY LIBOS VA SAN'AT FAKULTETI

TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI
KASBIY KOMPETENTLIK
FANIDAN

O'QUV - USLUBIY MAJMUA

Bilim sohasi:	100 000 – Gumanitar
Ta'lim sohasi:	110000 – Pedagogika
Ta'lim yo'nalishi:	5112100 – Texnologik ta'lim

TERMIZ - 2023

Ushbu o'quv-uslubiy majmua O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2017 yil 1 martdagi "Yangi o'quv-uslubiy majmualarini tayyorlash bo'yicha uslubiy ko'rsatmani tavsiya etish to'g'risida"gi № 107 – sonli buyrug'i asosida tayyorlandi.

Mazkur fanda tayyorlangan o'quv-uslubiy majmua Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining Ushbu ma'ruzalar matni 27 avgust 2023 yil Termiz davlat universiteti O'quv - uslubiy kengashining №1 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan fanning o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan bo'lib, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan Texnologik ta'limyo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: J.X.Xayitov "Texnologik ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi p.f.f.d.(PhD)

Taqrizchilar: S.S.Igamov. O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Umumtexnika fanlari va texnologiyalar assistenti Pedagogika fanlari bo'yicha (PhD).
R.M.Haydarov. "Texnologik ta'lim" kafedrasida katta o'qituvchisi.

Ushbu o'quv uslubiy majmua kafedraning 2023 yil 28.06.21-sonli majlis bayonnomasi bilan tasdiqlangan.

Ushbu o'quv uslubiy majmua TerDU ilmiy Kengashi tomonidan ko'rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan. 30.06.2023 yil №11 bayonnomasi

TerDU O'quv uslubiy majmua 2023 yil

Mundarija

№	Bo'limlar	betlar
1	O'MMning kelishilgan varag'i	
2	O'MMning mundarajasi	
3	Ma'ruza mashg'ulotlar mazmuni	
1	Kasbiy kompetentlikning tuzulishi va mazmuni. Pedagogik mahorat asoslari va uning tarkibiy qismlari.	
2	Texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.	
3	Pedagogik kreativlik va uning o'ziga xos jihatlari. Pedagogik kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlar.	
4	Texnologiya fani o'qituvchisining global kasbiy kompetentligi.	
5	Bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligining invariantli tuzulmasi. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy kompetentligini shakllantirishning pedagogic jihatlari.	
6	Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini bahalash shakl,metod va vositalari.	
4	Amaliy mashg'ulotlari mavzulari.	
1	Pedagogik jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash shartlari.	
2	O'qitish amaliyotida innovatsion ta'lim shakl, metod va vositalardan foydalanish.	
3	Pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish.	
4	Pedagogik kasbiy mahoratni takomillashtirish.	
5	Pedagoglarda kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish.	
6	Ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogic mahorat.	
7	Innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirish.	
5	Ilovalar	
6	Fan dasturi	
7	Syllabus	
8	Glossariy	
9	Nazorat savollari	
10	Foydalanilgan adabiyotlar	

1-ma'ruza

Mavzu: Kasbiy kompetentlikning tuzilishi va mazmuni

Reja:

1. "Kompetentlik" tushunchasining mohiyati.
2. Pedagogik kasbiy kompetentlik sifatleri.
3. Pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatlerini rivojlantirish.

Tayanch tushunchalar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik kasbiy kompetentlik, pedagogik kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogik kasbiy kompetentlik sifatlerini rivojlantirish.

Kompetensiya –qonun, nizom yoki boshqa hujjatlar orqali muayyan tashkilot yoki mansabdor shaxsga nisbatan belgilangan vakolatlar doirasi.U yoki bu sohaga oid bilim va tajriba.

Kompetentli – muayyan soha bo'yicha bilimli, ma'lumotga ega bo'lgan, obro'-e'tiborli

"Modernizatsiya" nima? "Modernizatsiya" – inglizcha "modern" so'zidan tashkil topib, o'zbek tilida "zamonaviylashtirish", "takomillashtirish" ma'nolarini bildiradi.

Pedagogning kasbiy kopetentligi

I. "Kompetentlik" va "kasbiy kompetentlik" tushunchalarining mohiyati.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlerini yoritish olishi zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon etish olish

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va

harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.


Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi

II. Kasbiy kompetentlik sifatleri. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi (1-rasm):



1-rasm. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

a) **psixologik kompetentlik** – pedagogik jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

b) **metodik kompetentlik** – pedagogik jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

c) **informatsion kompetentlik** – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

d) **kreativ kompetentlik** – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

e) **innovatsion kompetentlik** – pedagogik jarayonni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga doir yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etish;

f) **kommunikativ kompetentlik** – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo‘lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko‘rsata olish.

g) **Shaxsiy kompetentlik** – izchil ravishda kasbiy o‘sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

h) **Texnologik kompetentlik** – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg‘or texnologiyalarni o‘zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

i) **Ektremal kompetentlik** – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o‘ziga xos jihatlari o‘rganilgan. Ana shunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

O‘z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi (2-rasm):


III. Pedagogning kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo'lishda **o'z ustida ishlash** va **o'z-o'zini rivojlantirish** muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari **o'zini o'zi tahlil qilish** va **o'zini o'zi baholash** orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash – shaxs yoki mutaxassis tomonidan o'zini ijtimoiy hamda kasbiy jihatdan rivojlantirish, kamolotga erishish yo'lida maqsadli, izchil, tizimli harakatlarning tashkil etishi

Mutaxassisning o'z ustida ishlashi quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;
- ijobiy sifatlarni o'zlashtirish

Pedagogning o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular (4-rasm):



4-rasm. Pedagogning o'z ustida ishlash bosqichlari

O'z-o'zini rivojlantirish – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi

Nazorat uchun savollar:

1. "Kompetentlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Kasbiy kompetentlik nima va u qanday holatlarda namoyon bo'ladi?
3. Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?
4. Ijtimoiy va maxsus kompetentlik deganda nimani tushunasiz?

5. Psixologik va metodik kompetentlikning mohiyati nimadan iborat?
6. “Informatsion kompetentlik” deganda nimani tushunasiz?
7. Kreativ va pedagogik kompetentlik nima?
8. Innovatsion kompetentlikning o‘ziga xos jihatlari nimalarda ko‘rinadi?
9. Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlik qanday ahamiyat kasb etadi?
10. “Shaxsiy kompetentlik” tushunchasi Siz uchun qanday ma‘noni anglatadi?
11. A.K.Markova pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslarini qanday ifodalagan?
12. B.Nazarovanning yondashuviga ko‘ra pedagogik kompetentlik qanday asoslardan tarkib topadi?
13. Individual rivojlanish dasturi nima?
14. Pedagogning individual rivojlanish dasturida nimalar aks etadi?
15. O‘z-o‘zini rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
16. O‘z ustida ishlash nima?
17. Pedagogning o‘z ustida ishlash modelida qanday holatlar aks etadi?
18. Pedagogning o‘z ustida ishlashi qanday bosqichlarda kechadi?
19. O‘zini o‘zi tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?
20. “O‘z-o‘zini baholash” tushunchasi qanday ma‘noni anglatadi?
21. Shaxsning o‘z-o‘zini baholashi qanday omillar negizida kechadi?
22. O‘z-o‘zini baholash qanday formula yordamida ifodalanadi?
23. O‘zini-o‘zi baholash modelida qanday holatlar aks etadi?

Mavzu: Pedagogik mahorat asoslari va uning tarkibiy qismlari

Reja:

1. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati.
2. Pedagogning kommunikativ kompetentligi.
3. Ta’lim jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish.
4. Zamonaviy pedagog imidji.

Tayanch tushunchalar: mahorat, pedagogik mahorat, pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari, pedagogik bilimdonlik, pedagogik refleksiya, pedagogik odob, pedagogik odobning asosiy shakllari, pedagogik obro‘, pedagogik qobiliyat, pedagogik qobiliyat turlari, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik muloqot turlari, pedagogik muloqot uslublari, pedagogik hamdardlik, pedagogik relaksatsiya, pedagogik nazokat (takt), pedagogik tajriba, nizo, pedagogik nizo, pedagogik nizo turlari, pedagogik nizolarni hal qilish yo‘llari.

I. Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. “Pedagogik mahorat” tushunchasi o‘tgan asrning 80-90-yillarida ilmiy-pedagogik jihatdan asoslanib, OTMda mustaqil fan sifatida o‘qitila boshlagan. “Pedagogik texnologiya” fani o‘qitila boshlagach esa “Pedagogik mahorat” fanining asoslari uning mazmuniga singdirib yuborildi.

Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida “Pedagogik kompetentlik va va kreativlik asoslari” moduli negizida tinglovchilarni

pedagogik mahorat asoslar bilan tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Zero, tinglovchilar tomonidan pedagogik mahoratning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish, ularda pedagogik texnika, nutq madaniyati, pedagogik deontologiya, kommunikativ qobiliyat, pedagogik nizo, shuningdek, zamonaviy pedagogning imidji to'g'risidagi ma'lumotlarning o'zlashtirilishi va mazkur bilimlar negizida zarur malakalarning o'zlashtirilishi OTMda tashkil etiladigan pedagogik jarayon sifatini yaxshilash, samaradorligini ta'minlashni kafolatlaydi.

“Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari” moduli bo'yicha tinglovchilarni pedagogik mahorat va uning tarkibiy elementlari bilan tanishtirish jarayonida quyidagi vazifalar hal qilinadi: tinglovchilarni pedagogik mahoratning tarkibiy qismlariga doir nazariy bilimlar bilan qurollantirish; ularda pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etish, pedagogik jarayonni samarali yo'lga qo'yish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish; tinglovchilarning pedagogik va nutq texnikasiga ega bo'lishlarini ta'minlash; ularda pedagogik deontologiya va pedagogik madaniyat sifatlarini tarkib toptirish, pedagogik qobiliyatni rivojlantirish; tinglovchilar tomonidan pedagogik muloqot, pedagogik nazorat (takt) va pedagogik ta'sir ko'rsatish malakalarini yetarli darajada o'zlashtirilishini ta'minlash; ularda pedagogik madaniyat sifatlarini shakllantirish.

Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarining kasbiy mahoratlari haqida so'z yuritishdan avval “mahorat” va “pedagogik mahorat” tushunchalarining mohiyati bilan tanishib olish maqsadga muvofiqdir.


Mahorat (a. “mahorat” – mohirlik, ustalik, epchillik) – bir ish yoki faoliyatni yuksak darajada, hech bir qiyinchiliksiz, o'ta mohirlik bilan bajarish.

Pedagogik mahorat – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi

Pedagogning mahorati bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim.

Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi.

Pedagogik mahorat yaxlit tizim bo'lib, uning tarkibida bir qator sifatlar ko'zga tashlanadi. Jumladan (6-rasm):



6-rasm. Pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismlari

Pedagogik mahoratning asosini pedagogik bilimdonlik tashkil etadi.

Pedagogik bilimdonlik – pedagogning kasbiy faoliyatni mavjud ijtimoiy talab, huquqiy me'yor va standartlarga muvofiq tashkil etishga bo'lgan qobilligi, kasbiy tayyorgarlik darajasi

Bilimdon pedagog mutaxassis sifatida pedagogik jarayon va munosabatlarni maqsadga muvofiq samarali shakl, usul hamda vositalarini yetarli darajada o'zlashtira olgan bo'lishi zarur. Quyidagi sifatlar bilimdon pedagogga xos sanaladi:

Bilimdon pedagogga xos sifatlar:

- ijtimoiy sub'ektlar bilan o'zaro aloqada, madaniy muloqotda bo'lish;
- mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha axborotlarni izlash, topish, ularni ta'lim mazmuniga tayangan holda qayta ishlash va kasbiy faoliyat jarayonida
- ulardan samarali foydalana bilish;
- o'quv axborotlarini talabalarga yetkazib bera olish

Pedagogning kasbiy bilimdonligida talaba bilan sub'ektiv munosabat o'rnatish; pedagogik jarayonlar mohiyati, pedagogik voqelikni izchil idrok qila bilish; jahon pedagogik madaniyati asoslarini hamda milliy pedagogik tajribani o'rganish, ularni integratsiyalashtirish asosida o'z faoliyatiga tatbiq etish; innovatsion yangiliklar bilan doimiy xabardor bo'lish; shaxsiy tajribalarni umumlashtirish va talabalarga uzatish; kasbiy fidoiylik hamda pedagogik texnologiyalarni egallash borasidagi BKMning o'zlashtirilganligi namoyon bo'ladi.

Pedagogik bilimdonlik negizida, yana shuningdek, *pedagogik refleksiya* (lot. "reflexio" – ortga qaytish, aks etish) ham ko'zga tashlanadi. Manbalarda

“refleksiya” tushunchasi “kishining o‘z xatti-harakatlari va ularning asoslarini tushunib yetishi, fahmlashiga qaratilgan nazariy faoliyati; bilishning alohida faoliyati”, “shaxsiy kechinmalari, his-tuyg‘ulari va o‘y-xayollari mohiyatini fikrlash orqali anglash” sifatida talqin etiladi.

Pedagogik refleksiya – pedagogning shaxs ongi mohiyati, vazifalari, qadriyatlar, qiziqishlari, rag‘batlantiruvchi omillar, fikrlash, idrok, qarorlar qabul qilish, hissiy ta’sirlanish, xatti-harakatlari va boshqalarning mohiyatini anglab yetishi

Pedagog faoliyatida uning odobi ham yaqqol aks etadi. Qolaversa, pedagogik odob ta’lim va tarbiya jarayonlari muvaffaqiyatini ta’minlovchi muhim talab hamda omillardan biri sanaladi.

Pedagogik odob – pedagog oldiga uning o‘ziga, kasbiga, jamiyatga, talabalarga va o‘quv-tarbiya jarayonining boshqa ishtirokchilariga munosabatda bo‘lishiga nisbatan qo‘yiladigan axloqiy talablar tizimi


Mazkur talablar pedagog tomonidan tashkil etiladigan pedagogik mehnat faoliyat jarayonini boshqaruvchi muhim omil hisoblanadi.

Pedagog odob talablarining tizimi pedagog tomonidan kasbiy burchni ado etish, jamiyat, pedagogik jamoa va talaba oldidagi axloqiy majburiyatlarini bajarishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik odobga qo‘yiladigan talablar – o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan pedagogik mehnat, faoliyat jarayonida bajarilishi shart bo‘lgan vazifalar

Pedagogik odob talablarining tizimi o‘qituvchi tomonidan kasbiy burchni ado etish, jamiyat, pedagogik jamoa va talaba oldidagi axloqiy majburiyatlarini bajarishida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi. Pedagogik odob pedagogik axloq va pedagogik jarayonda namoyon bo‘ladigan axloqiy qadriyatlar kabi asosiy kategoriyalarning mohiyatini yoritishda yetakchi o‘rin tutadi. Pedagog faoliyatida ham barcha umuminsoniy va milliy axloqiy qadriyatlar yetakchi o‘rin tutadi. Shunday bo‘lsa-da, pedagogik odob sirasida pedagogik qarashlarni, pedagogik

faoliyat va munosabatni ifodalovchi muhim kategoriyalar asosiy o‘rinni egallaydi (7-rasm):



7-rasm. Pedagogik odobning asosiy shakllari

Pedagogik odobning asosiy shakllari quyidagi mazmunga ega:

1. Kasbiy-pedagogik burch. Ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, to‘g‘riso‘zlik va yolg‘onchilik, rahmdillik va shafqatsizlik, ko‘ngli oqlik va ko‘ngli qoralik, vatanparvarlik va vatanfurushlik, tinchlik va urush kabi umuminsoniy axloqiy qadriyatlar insonlar hayoti, turmush tarzi va xatti-harakatlarida o‘ziga xos o‘lchov bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogik faoliyatda ham pedagog ushbu qadriyatlarni ulug‘lay olishi, ularga tayangan holda faoliyatni tashkil etishi lozim. Shuningdek, har bir pedagog kasbiy-pedagogik burchini to‘la anglay olishi, uni ado etish yo‘lida amaliy harakatlarni tashkil eta bilishi zarur. Pedagog tomonidan jamiyat, uning a‘zolari, pedagogik va talabalar jamoasi oldida qanday vazifalarni bajarishi zarurligini, kasbiy-pedagogik burchni bajarishda qanday tamoyillarga tayanishni aniq belgilab olinishi ham shaxs, ham mutaxassis va fuqaro sifatida o‘z mavqeini mustaqil belgilash imkoniyatini yaratadi. Agarda u o‘z kasbiy faoliyatini mavjud axloqiy tamoyillarga muvofiq tashkil eta olsa, u holda o‘z-o‘ziga bo‘lgan hurmati ortadi, o‘z kuchiga ishonch paydo bo‘ladi. Bu esa pedagogni yangidan yangi yutuqlarni qo‘lga kiritishga rag‘batlantiradi. Agarda bordi-yu, pedagog kasbiy-pedagogik burchini anglasa-da, biroq, uni mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil eta olmasa, u holda, eng avvalo, o‘ziga bo‘lgan hurmatni yo‘qotadi, o‘zini shaxs sifatida yuqori baholay olmaydi.

2. Pedagogik adolat. “Adolat tushunchasi muayyan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar bilan belgilanadi. Adolatning axloqiy jihatida insonlararo muomalada bir xil munosabatda bo‘lishni, bir-birining izzat-nafsigaga tegmaslikni, axloq-odob qoidalariga rioya qilishlikni bildiradi”. Qolaversa, adolat insoniy qadr-qimmat bilan uning jamiyat tomonidan tan olinganligi, mavjud axloqiy qoida va majburiyatlar o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni tavsiflashga xizmat qiladi. Pedagogik adolat o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, u pedagogning pedagogik jarayonga ob‘ektiv, haqqoniy yondasha olishi, uning talabalar hulq-atvorini jamoa oldidagi xizmatlariga muvofiq baholash olishdagi axloqiy tarbiyalanganlik darajasi (ezgu ishlari, qat’iyati, jiddiyligi, insoniyligi)ni ifodalaydi.

3. Pedagogik majburiyat (pedagogik deontologiya). Pedagogik odobning muhim kategoriyalaridan biri bo'lgan – pedagogik majburiyat tushunchasida jamiyat tomonidan o'qituvchi shaxsiga, u tomonidan bir qator pedagogik majburiyatlarning bajarilishiga nisbatan qo'yiladigan talab va axloqiy yo'l-yo'riq, ko'rsatmalarni o'zida jamlaydi. Pedagog kasbiy faoliyatni tashkil etishda quyidagi majburiyatlarni bajara olishi zarur: muayyan mehnat vazifalarini, asosan, aqliy mehnat vazifalarini amalga oshirish; talabalar, ularning ota-onalari, hamkasblar bilan o'zaro munosabatni to'g'ri tashkil etish; tanlagan kasbiga, talabalar va pedagogik jamoaga hamda jamiyatga bo'lgan shaxsiy munosabatini chuqur anglash. Pedagogik majburiyatlar sirasida, yana shuningdek, kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy munosabatda bo'lish, o'ziga nisbatan talabchanlik, kasbiy bilimlarini boyitib va pedagogik malakasini oshirishga intilish, talabalar va ularning ota-onalari bilan o'zaro hurmatga asoslangan va talabchan munosabatni o'rnatish, murakkab pedagogik nizolarni ijobiy hal qilish ko'nikmalarini o'zlashtirish kabilarni ham ko'rsatish zarur.

4. Pedagogik obro'. Pedagogning pedagogik obro'ga ega bo'lishi u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyat samaradorligini kafolatlaydi.

Pedagogik obro' – pedagogning talabalar, ularning ota-onalari, pedagogik jamoa, shuningdek, jamiyat tomonidan e'tirof etilgan axloqiy maqomi

Pedagogik o'zi tomonidan qozongan obro'ga tayanib, talabalarning hulq-atvorlarini boshqaradi, ularning ishonchlarini qozonadi. Pedagogik obro' pedagogning ma'naviy-axloqiy va pedagogik-psixologik tayyorgarligini ham ifodalaydi. U ega bo'lgan obro' darajasini uning chuqur bilimi, zakovati, mahorati, o'z ishiga bo'lgan munosabati va boshqalar belgilaydi.

Pedagogik qobiliyat. Pedagogik jarayonning qanchalik samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishi o'qituvchining pedagogik qobiliyatga egaligiga bog'liq. Manbalardan birida “qobiliyat” tushunchasi shunday sharhlanadi: shaxsning osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyat. Qobiliyat umumiy va maxsus qobiliyatlar tarzida ikki guruhga ajratiladi. **“Umumiy qobiliyatlar** shaxs faoliyatining asosiy turlarida namoyon bo'lsa, kasbiy faoliyatning ayrim turlarida namoyon bo'ladigan qobiliyatlar (matematik, texnik, musiqa, tasviriy san'at, adabiyot (poeziya va proza), jismoniy tayyorgarlik va boshqalar) **maxsus qobiliyatlar** deb yuritiladi...

Qobiliyatning yetakchi xususiyatlaridan biri – narsa va hodisalar mohiyatini ijodiy tasavvur qilishdir”.

Pedagogik qobiliyat – pedagog tomonidan pedagogik faoliyatni oqilona tashkil etilishi va olib borilishini, amaliy vazifalarning samarali bajarilishini ta'minlashda ahamiyatli bo'lgan xususiyatlar

quyidagilar sanaladi:

- pedagogik takt (pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi);
- pedagogik kuzatuvchanlik (pedagogning talabalarga xos bo'lgan hatto eng oddiy xususiyatlarni ham payqab olish qobiliyatiga egaligi);
- talabalarga bo'lgan muhabbat (ularga mehr qo'yish, mehribonlik ko'rsatish, ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, orzu-umidlari, hayotiy intilishlari bilan o'rtoqlashish, ular uchun qiyin bo'lgan vaziyatlarda g'amxo'rlik qilish);
- bilimlarni uzatishga bo'lgan ehtiyoj (pedagog sifatida o'zidagi mavjud bilimlarni talabalarga berishga intilish)

O'qituvchiga didaktik qobiliyatga egaligi ham muhim ahamiyatga ega.

Didaktik qobiliyat – mutaxassis sifatida o'qituvchilarda namoyon bo'lib, ta'lim jarayonini hech bir qiyinchiliksiz, osonlik bilan tashkil etilishini ta'minlovchi individual psixologik xususiyat

Aksariyat o'qituvchilarda kasbiy xarakterga ega qobiliyatlar bilan birga noyob qobiliyatlarga ham namoyon bo'ladi.

Noyob qobiliyatlar – shaxsga xos individual psixologik xususiyatning shunday turi bo'lib, u juda kam sonli shaxslardagina kuzatiladi va ko'p uchraydigan psixologik hodisa sanalmaydi


Mahoratli o'qituvchilarda quyidagi noyob qobiliyatlar ham ko'zga tashlanadi:

- bir vaqtning o'zida bir necha faoliyatni bajara olish (m: eshitish, ko'rish, o'qish, yozish, fikr yuritish, muloqot qilish va b.);
- atrofida kechayotgan ikki yoki bir necha voqelikni birdek qabul qilish (m: bir o'quvchining ma'ruzasini eshitgani holda, sinfdagi boshqa o'quvchilarning faoliyatlarini kuzata olish);
- o'ta qiziquvchanlik (tabiat va jamiyatda kechayotgan har bir voqea-hodisa (garchi ahamiyatsiz bo'lsa-da) mohiyatini bilishga intilish, haddan ziyod ko'p savollarga javob topishga intilish);
- miya faoliyatining biokimyoviy va elektrik faolligi (miya to'xtovsiz faoliyat ko'rsatadi, nihoyatda kam vaqt “dam oladi”, bilish jarayonida noaniqliklar ko'zga tashlansa, ular tezda bartaraf etiladi;
- kam uxlash xususiyatiga egalik;
- nutq va fantaziyaning boyligi;

II. Pedagogning kommunikativ kompetentligi. Pedagogga xos bo'lgan mahorat asosini tashkil etuvchi pedagogik muloqot madaniyati uning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar hamda rahbariyat bilan uyushtiriladigan muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. Bunda, ayniqsa, pedagogning talabalar jamoasi bilan o'zaro muloqoti muhim ahamiyatga ega. Pedagog talabalar bilan muloqotga kirishish, uning samarali bo'lishiga intiladi.

Pedagogik muloqot madaniyati – pedagogning talabalar jamoasi, ota-onalar, hamkasblar, rahbariyat bilan pedagogik odob hamda muloqot talablariga muvofiq holda uyushtiriladigan suhbat


Pedagogik muloqot quyidagi yo'nalishlarda tashkil etiladi (12-rasm):



12-rasm. Pedagogik muloqot yo'nalishlari

Pedagogik muloqot ruhiy-psixologik ta'sir kuchiga ega. Shu sababli uni tashkil etishda muloqot jarayonining ijobiy bo'lishini ta'minlash pedagogning zimmasiga katta mas'uliyatni yuklaydi. Agarda to'g'ri tashkil etilgan pedagogik muloqot talabada qo'rquvning yuzaga kelishi, ishonchsizlikning tug'ilishi, diqqat, xotira va ish qobiliyatining susayishi, nutq me'yoring buzilishi kabilarga sabab bo'lsa, aksincha, nazariy-pedagogik va amaliy jihatdan to'g'ri tashkil etilgan muloqot yuqoridagi holatlarning aksini keltirib chiqaradi. Natijada talabalarda o'qishga va mustaqil o'rganishga, fikrlashga bo'lgan qiziqish ortadi.

Pedagogik muloqot o'ziga xos ijtimoiy-psixologik jarayon ham sanaladi. Mazkur jarayonda quyidagi vazifalar bajariladi (13-rasm):



Muloqot jarayonida talaba tomonidan bildirilayotgan fikrlar, uning qarashlari shaxsni yaqindan o'rganish uchun imkoniyat yaratadi. Talaba shaxsini yaqindan bilish, uning ichki kechinmalari, o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari, orzu-umid, maqsad va hayotiy intilishlaridan xabardor bo'lish pedagogik jarayonning metodik, ruhiy jihatdan to'g'ri tashkil etilishini ta'minlaydi. Zero, bu jarayonda pedagogik talaba shaxsiga xos yosh, psixologik va shaxsiy xususiyatlarni inobatga olgan holda faoliyatni tashkil etadi.

Muloqot jarayonidagi axborot almashinuvi talabaning o'zaro ijtimoiy jarayonlar, shaxs kamolotining kechishiga doir ma'lumotlar almashishini ta'minlaydi. Pedagog va talabalar o'rtasida hamkorlikni qaror toptirish esa har qanday vaziyatda ham ular o'rtasida o'zaro axborot almashinuvi samarali ro'y berishini uchun sharoit yaratadi. Bu jarayonda pedagog talabalarning eng yaqin maslahatchisi, yo'l boshchisi va rahbariga aylanadi. Muloqot chog'ida talabalar tomonidan o'z shaxsini, "meni"ni, qadr-qimmatini yetarlicha baholash va o'z oldidoriga hayotiy maqsadlarni qo'ygan holda olg'a intilishlarini ta'minlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Muloqot jarayonida axborot almashish vazifasining hal qilinishi quyidagi vositalar asosida ro'y beradi:


- 1) nutq;
- 2) paralingvistik tizim (yun. "pará" – "yaqin", muloqot tarkibida so'zli, g'oyaviy ma'lumotlarni so'zsiz vositalar bilan uzatilishi);
- 3) ekstralingvistik tizim (ingl. "exterior" – "tashqarida", nemischa "linguistik" – gapirayotgan shaxs tomonidan nutqning bevosita ijtimoiy vazifalar bilan bog'liq holda tashkil etishi – nutqiy tanaffuslar, kulgu, yo'talish, nafas olish, yig'lash, tutilish va b.);
- 4) muloqotning tashkiliy ko'lami va vaqti;
- 5) ko'z qarashlar yordamida tashkil etiladigan aloqa;
- 6) belgilarning optik-kinetik tizimi (mimika, pantomimika, jestlar – qo'l va oyoq harakatlari)

Pedagog rahbarligi yoki uning yo'l-yo'riqlari, ko'rsatmalariga asosan o'quv mashg'ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda ham muloqot muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni shu vaqtda muloqotning faoliyatni tashkil etish vazifasini namoyon bo'ladi. Yaqin-yaqingacha faoliyatni tashkil etishda pedagogning yetakchiligi, uning bevosita rahbarligi ustuvor omil bo'lgan bo'lsa, zamonaviy

sharoitda rollar almashinuvi yetakchi o'ringa chiqdi. Endilikda aksariyat hollarda talabalarning o'zlari ta'lim va tarbiyaviy jarayonlarni mustaqil uyushtirish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Biroq, bu degani, ta'limiy va tarbiyaiy ishlarni tashkil etish davrida pedagogning o'zni va roli mutlaqo aks etmaydi, degani emas. Pedagog bu jarayonda rahbar, yetakchi, maslahatchi, ekspert sifatida namoyon bo'ladi va talabalarni pedagogik jarayonlarni ilmiy-nazariy, tashkiliy-metodik jihatdan to'g'ri uyushtirishga yo'naltiradi.


Pedagogik muloqotni tashkil etishda, ayniqsa, pedagog yordamiga muhtoj o'quvchilarga alohida e'tibor berishi, har bir o'quvchida turli o'quv fanlari asoslarini o'zlashtirishga nisbatan qiziqtirish usullarini, hamkorlik va ijodkorlikka asoslangan mehnatni tashkil etishni oldindan o'ylab qo'yishi lozim.

Milliy va jahon ta'limi amaliyoti pedagog, o'qituvchilar tomonidan tashkil etilayotgan muloqotni bir necha turga ajratish mumkinligi ko'rsatadi. Ular quyidagilarir (14-rasm):



14-rasm. Pedagogik muloqot turlari

O'qituvchilar o'z faoliyatlarida muloqotning muayyan turlariga tayanib ish ko'radi. Qolaversa, pedagog tomonidan jamoa bilan muloqotni uyushtirish texnikasini doimiy ravishda tahlil qilib borish maqsadga muvofiqdir. Ma'lum vaziyatlarda pedagog rahbar sifatida talabalar faoliyatlarini boshqaradi. Bu jarayonda ham muloqot yetakchi omil hisoblanadi. Biroq, muloqotning samaradorligi rahbar sifatida namoyon bo'layotgan pedagog tomonidan qanday muloqot uslubining tanlanganligi bilan belgilanadi. Odatda, pedagogning rahbar sifatidagi muloqot usullari quyidagi uch turga ajratiladi (15-rasm):



15-rasm. Pedagogik muloqot uslublari

Pedagogik muloqot uslublari quyidagi mazmunga ega:

1. Avtoritar uslub. Bunga ko‘ra talabalar tomonidan barcha turdagi faoliyatning tashkil etilishi, mazmuni, shakli, metod va vositalarining barchasi faqat pedagog tomonidan belgilanadi. Talabalarning har qanday tashabbuslari rag‘batlantirilmaydi, aksincha, buyruq, ko‘rsatma, yo‘llanma berish, shuningdek, jazolash choralari ko‘rish orqali talabalarga ta’sir etiladi. Hatto talabalarning faoliyatlari ijobiy baholangan vaqtda ham ularga bo‘lgan ta’sir turli kesatqlar bilan bayon etiladi. Ya’ni: “Sendan ijobiy xatti-harakatni kutmagan edim?!”, “Buni qara-ya, nahotki o‘zgargan bo‘lsang!”, “Qara-ya, birgina a’lo baho olish bilan o‘zingni yaxshi inson bo‘lib qolgan deb hisoblaysanmi!?” va h.k. mazmundagi rag‘batlar, ular asli ijobiy holatni e’tirof etishga yo‘naltirilgan bo‘lsa-da, talabani yangi yutuqlariga ilhomlantirmaydi. Aksincha, unda ta’lim olishga, ta’lim muassasasiga va pedagoglarga nisbatan sovuqqonlikni yuzaga keltiradi.

2. Demokratik uslub. Unga ko‘ra pedagog pedagogik faoliyatni tashkil etishda jamoaning fikriga tayanib ish ko‘radi. O‘quv mashg‘ulotlari va tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirishda har bir talabaning fikrini inobatga olishga, ularni umumlashtirgan holda eng samaralisini tanlab olishga intiladi. Muhokamalar chog‘ida barcha talabalarning ishtiroklari ta’minlanadi. Talabalar tomonidan bildirilayotgan tashabbuslar qo‘llab-quvvatlanadi, mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bu tashabbuslar amaliyotga tatbiq etiladi. Bu uslubdan foydalanayotgan pedagog zimmasidagi vazifa faqatgina talabalarning faoliyatini nazorat qilish, tuzatishlar kiritishdan iborat emasligini anglab yetadi. Asosiy e’tiborni talabalarning yutuqlarini e’tirof etgan holda yoki ularning xatolarini o‘zlariga anglatgan holda samarali tarbiya chorasini ko‘rishga qaratadi. Har bir talabaning yutug‘i alohida e’tirof etiladiki, bu esa ularni yangi zafarlarga erishishga ruhlantiradi. Ushbu uslubga asoslanib ish ko‘radigan pedagog har bir talabaning qiziqishlari va qobiliyatlarini hisobga olgan holda bajariladigan ishlarni to‘g‘ri taqsimlashga harakat qiladi, faol talabalarni taqdirlab borishni faoliyatining asosiy yo‘nalishi sifatida belgilaydi. Pedagog talabalar bilan muloqotni o‘rnatishda iltimos, maslahatga tayanib ish ko‘radi.

3. Liberal uslub. Odatda bu uslub pedagog va talaba munosabtlarining kelishuvchanlikka asoslanishini ta’minlaydigan uslub sifatida e’tirof etiladi. Bu uslubga ko‘ra ish yuritadigan pedagog talabalar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarga ham e’tibor bermaslikka intiladi. Talabalarni tartibga chaqirish, vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning faoliyatini to‘g‘ri baholab, jazolash zarur bo‘lgan vaziyatlarda ham indamaslikni odat qilib oladi. Bu esa talabalarning odobsiz, yalqov, mas’uliyatsiz bo‘lishlariga olib keladi. Liberal uslubni ma’qul ko‘radigan pedagog talabalar hayoti bilan mutlaqo qiziqmaydi, ularning faoliyatlariga aralashmaydi, hal qiluvchi vaziyatlarda mas’uliyatni o‘z zimmasidan soqit qiladi. Ayrim holatlarda bir-biriga zid bo‘lgan fikrlarni ham birdek

ma'qullaydi. Bu tahlitda ish ko'radigan pedagog obro'ga ega bo'lmaydi. Chunki unga ishonish mumkin emas.

Pedagogik faoliyatni tashkil etishda pedagogning nafaqat o'zi, balki uning ijobiy ta'siri asosida talabalar ham muloqot madaniyatini o'zlashtirib borishlari lozim.

Muloqot madaniyati – muloqot jarayonini axloqiy me'yorlar, ijtimoiy talablarga muvofiq tashkil etish asosida suhbatdoshni tushuna olish ehtiyoji va qobiliyatiga egalik

Ta'lim amaliyoti pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchilar tomonidan quyidagi kamchiliklarga yo'l qo'yilishidan dalolat beradi:

- ehtiyotsizlik;
- shaxsiyatparastlik;
- suhbatdoshni ortiqcha majburlash;
- sustkashlik;
- o'zini juda yuqori yoki past qo'yish;
- haddan tashqari jonbozlik ko'rsatish

“Fan-texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida, ishlab chiqarish munosabatlarining jadallashuvi, xalq xo'jaligining turli jabhalarida yangi texnologiyalarning joriy etilishi va shu kabi qator omillar inson ruhiyatiga oldingilariga qaraganda ko'proq jismoniy, ruhiy zo'riqishlar bermoqda”. Pedagog faoliyatida ruhan yoki jismonan toliqqan talabalarda ruhiy hamda jismoniy charchoqlarni bartaraf etishga ham e'tibor qaratish talab qilinadi. Mazkur talab salbiy ruhiy omillar ta'siri kuchaygan, katta hajmdagi axborotlar bilan to'qnashish ro'y berayotgan mavjud sharoitda ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalarda ruhiy va jismoniy toliqishlarni bartaraf etishga qaratilgan pedagogik faoliyat **“relaksopediya”** (lot. “relaxation” – quvvatsizlik, zaiflashish, ruhan yoki jismonan holda toyish; holdan toyishni bartaraf etish pedagogikasi) deb nomlanadi. So'nggi yillar jahon ta'limi amaliyotida ushbu pedagogika imkoniyatidan keng foydalanilmoqda.

Pedagogik relaksatsiya – talabalarining hissiy faoliyati, ruhiy-jismoniy quvvati va ishchanlik qobiliyatini qayta tiklash

Murakkab vaziyatlar (imkoniyati cheklangan, fanlarni o'zlashtira olmaydigan yoki tarbiyasi og'ir talabalar bilan ishlash)da relaksopediyaning pedagogik, psixologik imkoniyatlaridan o'rinli, maqsadli, samarali foydalanish kutilgan natijalarni beradi. Relaksatsiya sharoitida bugungi kunda keng ommalashgan trening va avtotreninglar ijobiy muhitning hosil bo'lishini ta'minlaydi. Ulardan foydalanish vaqtida talabalar tashqi va ichki ta'sirlardan himoyalangan bo'lib, ularga faqatgina pedagogning ishontiruvchi ovozigina eshitiladi. Bu esa pedagogning ta'siri va uning samarasini yanada oshiradi.

Relaksatsiya jarayonida talabalar pedagogning qo'llab-quvvatlashlarini his etishlari, uning mehr-muhabbatidan bahramand bo'lishlari, hamdarligini his qilishlari lozim. Shundagina talabalardagi ruhiy zo'riqish, jismoniy toliqishlarni bartaraf etish uchun psixologik muhit yuzaga keladi.

Mushaklar relaksatsiyasi (ya'ni mushaklarni bo'shashtirish) davrida o'z-o'zini ishontirish va axborotga ta'sirchanlik yuqori bo'ladi. Shuning uchun ham o'z-o'zini ishontirishga yo'naltirilgan trening va avtotreninglarni uxlash va uyqudan turishdan oldin qo'llash samarali hisoblanadi. Mushaklar relaksatsiyasining samarali kechishi uchun o'qituvchi mushaklarni bo'shashtirishga yordam beradigan metod va vositalardan xabardor bo'lishi darkor.

Talabalarning ruhiy zo'riqish va jismoniy toliqishlarini bartaraf etish maqsadida relaksatsiya asoslarini nazariy jihatdan o'zlashtirib qolmay, ulardan amaliy jihatdan foydalanishni ham bilishlari zarur.

Kommunikativ ta'sir ko'rsatish – talabalar bilan muloqotda bo'lish, ularga to'g'ri yondashish, pedagogik nazokat bilan ularga tarbiyaviy, irodaviy va hissiy ta'sir etish

Yuqorida aytib o'tilganidek, mahoratli pedagog faoliyatida pedagogik nazokat (takt) ham o'ziga xos o'rin tutadi:

Pedagogik (nazokat) takt – pedagogning talabalar bilan turli faoliyat shakllari bo'yicha tashkil etiladigan muloqotda mavjud axloqiy tamoyillar, hulq-atvor qoidalarga rioya qilishi, ularga to'g'ri yondashish malakalariga egaligi

Pedagogik takt pedagog faoliyatiga g'oyaviy va amaliy jihatdan bir-biriga mos keladigan pedagogik axloqning bevosita tatbiq etishning shakli sifatida namoyon bo'ladi. **Takt (dahldorlik)** – axloqiy hulq-atvor, xatti-harakat bo'lib, o'zida barcha ob'ektiv harakatlarning oqibati va ularning shaxs tomonidan sub'ektiv qabul qilishni avvaldan ko'ra olish, belgilangan maqsadga osonroq erishish yo'llarini izlashning namoyon bo'lishini ifodalaydi. Pedagogik takt o'z mohiyatiga ko'ra ijodiy izlanishni talab etadigan amaliy harakatdir.

Pedagogga xos bo'lgan pedagog taktning asosiy tarkibiy elementlari sifatida quyidagilarni e'tirof etish mumkin:

- 1) shaxsga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lish;
- 2) yuksak talabchanlik;
- 3) suhbatdoshni qiziqish bilan tinglay olish va unga nisbatan qayg'urish malakasi;
- 4) ruhiy barqarorlik, dadillik va og'ir vazminlik;
- 5) munosabatlar jarayonida ishonch bilan so'zlay olish;
- 6) qat'iyatlilik (qaysarlik emas);
- 7) talabalarga nisbatan e'tiborli va xushyor bo'lish

Talabalarga pedagogik mahorat asoslariga doir bilimlarni berishda ularda pedagogik taktning quyidagi elementlarini tarbiyalashga jiddiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- talaba shaxsini hurmat qilish va unga nisbatan talabchanlik;
- turli faoliyat bo'yicha talabalarda mustaqillikni rivojlantirish va ularning ishlariga oqilona pedagogik rahbarlik qilish;
- talabaning ruhiy holatiga nisbatan ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, unga nisbatan yuksak idrok bilan izchil talablar qo'yish;
- talabalarga ishonish va ularning faoliyatini nazorat qilib borish;
- ular bilan muloqotni tashkil etishda o'zini oqlagan ishchan va hissiy xarakterga ega munosabatlarni qo'shib olib borish

Pedagogning pedagogik taktga egaligi uning yurish-turishi, vazminligi, o'zini tuta bilishida namoyon bo'ladi. Ushbu sifat talabaga ishonch bilan qarashni nazarda tutadi. Talabaga ishonchsizlik bilan qarash pedagogning pedagogik taktga ega emasligini ifodalaydi. Har qanday pedagogik nizo yoki ziddiyatlarning asosida pedagogning pedagogik taktga ega emasligi yotadi. Har qanday qo'pollik, kesatq va koyishlar, talabalarni doimiy ravishda tanqid qilish, ularga ishonchsizlik bildirish pedagogik nizolarni keltirib chiqaradi. Pedagogik takt, shuningdek, pedagogning talaba javobini diqqat bilan tinglashida, javobning mazmuniga alohida e'tibor qaratishida, bordi-yu, talaba xatoga yo'l qo'yadigan bo'lsa, uni bosiqlik, vazminlik bilan to'g'rilashda, talaba faoliyatini haqqoniy, oqilona baholashda, qo'yilgan bahoning mohiyatini izohlashda namoyon bo'ladi. Bu jarayonda javob berayotgan talabaga jilmayish, turli imo-ishoralar bilan, boshni qimirlatish, yuz ifodalari, qo'l harakatlari bilan uning javoblarini ma'qullab turish pedagogik faoliyat samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Mahoratli pedagog talabalar faoliyatini baholashda ehtiyotkor bo'lishi lozim. Zero, noto'g'ri qo'yilgan baho talaba shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatib qolmay, balki uning o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndiradi. Talabalar faoliyatini baholashda V.A.Suxomlinskiyning pedagogik tajribasiga tayanib ish ko'rish maqsadga muvofiqdir:

1. O'quvchiga amaliy yondashish ("O'quvchi bo'lgandan keyin o'qib kelish kerak-da" tarzida emas), balki unga shaxs sifatida munosabatda bo'lish ("O'quvchim, eng avvalo, shaxs, bola, so'ngra esa o'quvchi. Men unga qo'yadigan baho uning bilimi o'lchovi emas, balki mening unga nisbatan insoniy munosabatimdir" tarzida yondashish).

2. Har bir baho o'quvchini kelajakka ishonch ruhida tarbiyalashi zarur; u o'quvchining mehnatini rag'batlantirishi, biroq, uning dangasaligi va qobiliyatsizligi uchun jazo vositasi bo'lmasligi zarur.

Aytib o'tilganidek, pedagogik takt (nazorat) yordamida muayyan vazifalar hal qilinadi.

Pedagogik texnika – pedagog tomonidan o'zlashtirilgan alohida talabaga hamda ta'lim oluvchilar jamoalariga pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini amalda samarali qo'llay olish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui

Pedagogik texnika asoslarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo'lib, unga erishish pedagogika, psixologik hamda amaliy tayyorgarlik bo'yicha maxsus bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Pedagogik texnikani o'zlashtirishda o'qituvchi o'quvchi hulq-atvori, xatti-harakatlarining tashqi belgilarga ko'ra uning ichki holatini belgilay olish malakasiga ega bo'lishi nihoyatda muhimdir.

O'qituvchining pedagogik madaniyatga egaligi, pedagogik texnika asoslarini puxta o'zlashtira olganligi uning yuz ifodasi, erkin, vazmin harakatlari, gavdani to'g'ri tuta bilishi, yig'inchoqligi, imo-ishoraning tabiiyligi, o'quvchilarga nisbatan e'tiborida yaqqol aks etadi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi yuzini o'rinsiz, qo'pol tarzida burishtirmasligi, pala-partishlikka yo'l qo'yimasligi, imo-ishoralarning sun'iy bo'lishidan saqlanishi, ma'nosiz bo'lishiga yo'l qo'yimasligi zarur.

Zero, bularning barchasi o'qituvchining o'quvchi oldida hurmat qozona olmasligiga olib keladi. Yosh o'qituvchilar pedagogning hatto sinf xonasiga, auditoriyaga qanday kirishi, o'quvchi, talabalarga nazar tashlashi, salomlashishi, stulni surishi, shaxsiy buyumlari (sumka yoki qog'oz solingan yig'majildlarni qaerga, qanday qo'yishi, xona bo'ylab yurishi, yozuv taxtasidan foydalanishdagi harakatlari, o'quvchi, talabalar bilan muloqotda o'zini qanday tutishi va b.ham katta tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega ekanligini yodda tutishlari zarur.

Vazmin, xushmuomala, o'ziga ishongan pedagog faoliyatining ilk bosqichlaridanoq o'quvchilar mehrini qozona oladi. Buning uchun o'qituvchi, eng avvalo, o'z hissiy holatlarini, tuyg'ularini boshqara olishi kerak. Pedagogning o'quvchilar bilan muloqoti rasmiy xarakterga ega. Qolaversa, u o'quvchilar, ularning ota-onalari, hamkasblari hamda ta'lim muassasasi va yuqori boshqaruv organlarining nazorati ostida faoliyat yuritadi. Bu esa jismoniy toliqishni, ruhiy zo'riqishni, o'z-o'ziga nisbatan ishonchsizlikni va tanglikni keltirib chiqaradi. Natijada o'qituvchining nutqi qat'iylik kasb etmaydi, ovozda nuqsonlar ko'zga tashlana boshlaydi, oyoq va qo'llar toliqadi. Bu kabi salbiy hodisalarning kelib chiqmasligi uchun o'qituvchi o'zini dars boshlanishidan avval ta'lim jarayoniga ruhan tayyorlashi, bu jarayonda yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan turli salbiy holatlarga o'zini psixologik nuqtai nazardan tayyorlashi, imkon qadar ruhiy barqarorlikka erishishi talab qilinadi.

O'qituvchi pedagogik jarayonga o'zini ruhan tayyorlashda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

- o'ziga, o'z imkoniyatlariga ishonish;
- xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash;
- o'z xatti-harakatlarini nazorat qilish (muskullar zo'riqishini bartaraf etish, qomatni rostlash, harakatlarni to'g'rilash, nutqning ravon, aniq bo'lishiga e'tibor qaratish va to'g'ri nafas olishni o'zlashtirish);
- aqliy va jismoniy mehnatni tashkil etishda o'zaro uyg'unlikka erishish, muayyan davrlarda hordiq chiqarish (mehnat yoki musiqa yordamida dam olish, badiiy asarlarni o'qish, yaqinlar, do'stlar bilan hazil-mutoybani tashkil etish);
- pedagogik jarayonning muvaffaqiyatli, samarali kechishiga o'zini o'zi ishontirish;
- kasbiy faoliyatni katta ishtiyoq, ko'tarinki kayfiyat bilan tashkil etishga intilish;

Ruhiy barqarorlikka erishish muayyan shartlar asosida kechadi. Bu o'rinda V.A.Suxomlinskiy ruhiy barqarorlikka erishishning asosiy shartlari quyidagilar ekanligini ta'kidlaydi:

- qosh-qovoqni uyub yurmaslik;
- boshqalarning kamchiliklari, nuqsonlarini oshirib ko'rsatmaslik;
- hazil-mutoyba moyil bo'lish;
- xushmuomala bo'lish va kelajakka ishonch bilan qarash

O'qituvchi tomonidan o'zlashtiriladigan pedagogik texnika negizida pantomimika o'ziga xos o'rin tutadi.

Pantomimika – gavda, qo'l va oyoqlarning harakati bo'lib, u pedagog tomonidan bayon etilayotgan muayyan fikrni alohida ajratib ko'rsatishga, ma'lum qiyofa orqali gavlantirishga imkon beradi

Odatda o'qituvchining to'g'ri tutilgan, chiroyli qaddi-qomati uning shaxs sifatida namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Qolaversa, bu holat uning o'ziga, shaxsiy imkoniyatlariga bo'lgan ishonchi yuqoriligi, shaxs sifatida o'zini qadrlay olishi, o'ziga o'zi yuqori baho berishini ham ifodalaydi. Boshning quyi egilganligi, qo'llarning osilib turishi o'qituvchining ichki zaifligi, o'ziga o'zi ishonchsizligidan dalolat beradi.

Uzluksiz talim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim oluvchilarga gavdani to'g'ri tutishni, erkin harakatlanishni, har qanday vaziyatda ham o'zini tuta bilishni, yig'inchoqlikni o'rgatib borish maqsadga muvofiqdir. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarda ushbu sifatlarni hosil qilish esa ularni kasbiy faoliyatga ruhiy tayyorlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Talabalarga, eng avvalo, gavdani to'g'ri tutib turish o'rgatiladi. Bunda oyoqlar elka kengligida (ikki oyoq oralig'i 12-15 smni tashkil etishi lozim), o'ng oyoq bir oz oldinda turishi maqsadga muvofiqdir. Zero, shundagina tana og'irligi har ikki oyoqqa birdek tushishi bilan birga uzoq vaqt (deyarli 30-30, oliy ta'lim muassasalarida esa 60-70 daqiqa) toliqmay turishni ta'minlaydi. O'qituvchining

harakatlari imkon qadar oddiy va erkin bo'lishi lozim. O'zini o'zi majburlab, ayrim kamchiliklarni yo'qotish maqsadida sun'iy, zo'rma-zo'raki harakatlarni sodir etishning hojati yo'q.

Harakatlar qanchalik samimiy va imkon qadar oddiy bo'lsa, o'quvchilarda o'qituvchiga bo'lgan ishonch, hurmatni shunchalik oshiradi. Gavdani oldinga-orqaga tebratmaslik, hadeb tana og'irligini bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa o'tkazmaslik, stul suyanchig'iga yoki kafedra (oliy ta'lim muassasalarida ma'ruza o'qish uchun ajratilgan jihoz)ga butunlay suyanib olmaslik, boshni yoki quloqni qashlamaslik, burunni artmaslik, ko'zni ishqalamaslik, qo'lda biror buyumni aylantirmaslik o'quvchiga qanchalik zavq bersa, unda o'qituvchiga nisbatan xayrixohlikni uyg'otsa, ularning aksini sodir etish o'quvchining g'ashini keltiradi. Dars jarayonida o'qituvchi, shuningdek, gavdasi harakatining bosiq, ortiqcha harakatlardan holi bo'lishiga e'tibor qaratishi, ortiqcha silkinish va keskin harakatlarni sodir etishdan o'zini tuta olishi zarur.

Pedagogik jarayonda o'qituvchi yuz ifodasi (mimika) va jestlar orqali ham talabalarga samarali ta'sir ko'rsatadi.

***Mimika** – yuz muskullarining harakatlari orqali o'z fikri, his-tuyg'ulari, kayfiyatini, shuningdek, mavjud voqelikka nisbatan munosabatini ifodalash*

Jest (gavda, qo'l va oyoq harakatlari) – muayyan hodisa yoki ob'ektga nisbatan munosabatning gavda, qo'l va oyoq harakatlari yordamida ifodalanishi

Insoniyat qadim-qadimdan o'zaro munosabat va muloqotlarni tashkil etishda turli jestlardan o'rinli va samarali foydalanib kelgan. Zero, jestlar insonning hissiyotlari, ichki kechinmalari va ijtimoiy borliqqa bo'lgan munosabatini so'zsiz ifodalash imkoniyatiga ega. M: o'ng qo'l chap ko'krak ustiga kaftlar yoyilgan holda qo'yilsa, bu holat "Sizga hurmatim cheksiz", o'ng qo'lning kaftlari ochiq holda ko'rsatilsa, "Jim bo'ling!", "Bas qiling!", qo'l musht qilib tugilsa, "Qoyil qildim!" yoki "Qoyil qilaman!" kabi ma'nolarni anglatadi.

Juda qadimdan inson yuz ifodasi va qarashi atrofda qilarga so'zdan ko'ra kuchli ta'sir qilishi aniqlangan. Shu sababli qadimgi Rim va Yunonistonda notiqlarning nafaqat so'zdan, shu bilan birga mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olishlariga e'tibor qaratiladi.

Bugungi kunda ham rivojlangan mamlakatlarda siyosatchilarning yuqorida qayd etilgan harakatlar bo'yicha malakalarni o'zlashtira olishlariga jiddiy e'tibor qaratiladi.

O'qituvchi tomonidan mimika, pantomimika va jestlar (gavda, qo'l va oyoq harakatlari)dan samarali foydalana olish malakalarini samarali o'zlashtira olishi uning mehnatini qisman engillashtirish bilan birga, talabalarga ta'sir ko'rsatishida muayyan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishiga imkoniyat yaratadi.

Mimika, pantomimika va jestlar uzatilayotgan axborotning hissiy ahamiyatini oshiradi, uning puxtaroq o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Ko'zlar ham yuz ifodasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ko'zlar yordamida turli ma'nolarni ifodalash malakalarini o'zlashtira olish ham mahoratli pedagog bo'lish uchun nihoyatda zarur.

Agarda o'qituvchining kayfiyati yomon bo'lsa, uni qandaydir muammolar bezovta qilsa, oldida turgan pedagogik muammolar o'ylantirayotgan bo'lsa, u bu holatlarni yashirib tura olish, oshkor qilmaslikni uddasidan chiqishi darkor. Bu kabi salbiy holatlarni ochiq havoda piyoda sayr qilish, tabiat qo'ynida, ayniqsa, suv havzalarining bo'ylarida dam olish, qiziqarli kitoblarni o'qish orqali mavjud ruhiy zo'riqlashlarni bartaraf qilish mumkin. Yuz ifodasi va harakatlar faqatgina ta'lim maqsadiga, ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga yo'naltirilishi zarur. O'qituvchi yuz muskullarini va ko'zlarini tez-tez harakatlantirishdan, ularning birday qotib qolishidan ehtiyot bo'lishi kerak. O'qituvchi nigohi o'quvchilarga qaratilgan bo'lishi, bevosita ko'rish aloqasini vujudga keltira olishi zarur. Devor, deraza va shipga qarab turishdan saqlanishi, aksincha, barcha o'quvchilarni diqqat markazida ushlab turish muhim.


O'qituvchi o'z faoliyatida pedagogik texnika metodlari bilan birga pedagogik texnika vositalaridan ham foydalanadi.

Pedagogik texnika vositalari – pedagog tomonidan o'quvchilarning u yoki bu harakatlari yoki ularda namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy sifatlariga nisbatan sub'ektiv munosabat, alohida his-tuyg'ularning ma'noli ifodalanishini ta'minlovchi vositalar

O'qituvchining o'quvchilarga pedagogik ta'sir ko'rsatishida uning nutqi ham hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

O'qituvchi nutqi – pedagogning ta'lim-tarbiya jarayonida til vositalaridan foydalanishi

Ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda nutqning monolog, dialog, polilog shakllaridan foydalaniladi. O'qituvchi faoliyatida ham nutqning aynan mana shakllaridan foydalanish holatlari kuzatiladi (18-rasm):



18-rasm. O'qituvchi nutqining asosiy shakllar

O'qituvchi sinfda og'zaki nutqning turli shakllaridan foydalanadi. Quyi sinflarda ko'proq nutqning dialog va polilog shakli samaralidir, chunki bu bosqichda ta'lim suhbat usuli asoslanadi. Monologik nutqdan o'qituvchi hikoya,

tasvir, ta’rif, tavsif xarakteridagi mavzularni bayon etishda foydalanadi. Monologik nutq yuqori sinflarda ijtimoiy, gumanitar fanlar – falsafa, siyosatshunoslik, pedagogika, psixologiya, sosiologiya, madaniyatshunoslik, “Milliy istiqlol g’oyasi”, “Ma’naviyat asoslari”, tarix, huquq va adabiyot fanlarini o’qitishda qo’llanilsa, dialog shaklidagi nutq ona tili, chet tili, matematika, fizika, biologiya, geografiya, informatika va axborot asoslari fanlari bo’yicha tashkil etiladigan darslarida qo’l keladi. O’rganilayotgan mavzuning mohiyatidan kelib chiqqan holda o’qituvchi har bir darsda og’zaki nutqning barcha shakllaridan o’rinli, maqsadli foydalanishi mumkin.

O’qituvchi mavzular bo’yicha materiallarni o’quvchilarga etkazib berishda ularning xulqlariga samarali ta’sir etish maqsadida ko’z, qosh, qo’l, yuz, bosh, kaftlari yordamida muayyan harakatlarni amalga oshiradi. Uning bunday harakatlari tasdiq yoki inkorni ifodalashi mumkin.

O’qituvchi tomonidan sodir etilayotgan harakatlar o’rinli bo’lsa ular so’zsiz pedagogik ta’sir jarayonini kuchaytiradi. Biroq, bu kabi harakatlarni o’rinsiz, tez-tez sodir etaverishi o’quvchilarning diqqatlarini susaytiradi, ularni zeriktirib qo’yadi. **Pedagogik jarayonda o’qituvchining ta’sirini kuchaytiradigan omillardan biri – uning ovozi, unga xos bo’lgan xususiyatlar sanaladi.** O’qituvchi ovozining yoqimli va jarangdor bo’lishi o’quvchilar e’tiborini o’ziga to’la qarata olishini ta’minlaydi. O’z ovozining ta’sirchanligini aniqlash uchun o’qituvchi ovozining qanchalik darajada kuchli, shirador va yoqimli ekanligini bilishi, shuningdek, zarur vaziyatlarda ovozning bu kabi xususiyatlaridan unumli foydalana olishi zarur. O’z ovozida ma’lum kamchiliklar borligini sezgan o’qituvchi ularni bartaraf etishga harakat qilishi kerak. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida izchil, doimiy mashq qilib borishi talab etiladi. Zero, bir yoki ikki marta qilingan mashq bilan ovoz xususiyatlarini yaxshilab bo’lmaydi.

O’qituvchi ovozi o’zida quyidagi xususiyatlarni aks ettira olishi zarur:

- 1) jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);
- 2) keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo’lgan darajasi);
- 3) havodorlik (erkin so’zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo’lishi);
- 4) ixchamlik, harakatchanlik;
- 5) chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo’lish);
- 6) moslashuvchanlik (dinamika, tembr, ohandorlikning turli sharoitga moslasha olishi);
- 7) qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga tembr va tessituraning o’zgarib turishi);
- 8) suggestivlik (ovozning xayajon ifodalashi va bu orqali, qanday so’z aytilayotganidan qat’iy nazar, tinglovchining xulqiga ta’sir qilish xususiyati)

Pedagogik faoliyatda o’qituvchi o’z nutqini tashkil etishda quyidagilarga jiddiy e’tibor qaratishi zarur:

- 1) adabiy (sheva soʻzlarining qoʻllanilmasligi) meʼyorlariga (kadi – qovoq, pamildori – pomidor, kelutti – kelyapti, kartishka – kartoshka va hokazo tarzida) amal qilish;
- 2) talaffuz (o, a, u, oʻ, f, v, p, d, t, x, h, s, j, sh) meʼyorlariga (onor – anor, uxshash – oʻxshash, palakat – falokat, Hamit – Hamid, xam – ham, sentner – sentner, ijtimoiy – ishtimoiy kabi shakllar) rioya etish;
- 3) kelishik meʼyorlariga (Sobirni ukasi – Sobirning ukasi, oʻquvchini daftari – oʻquvchining daftari, poezdga keldim – poezdda keldim va b. koʻrinishida) amal qilish

Oʻqituvchi nutqi ham nutq tovushlarini hosil qiladigan nutq organlarining ishtirokida tashkil etiladi. Nutq koʻplab organlar ishtiroki, ularning imkoniyati bilan hosil qilinadi.

Nutq hosil qiluvchi organlar – nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etuvchi organlar.

Nutqni hosil qilishda ishtirok etuvchi organlar umumiy holda **nutq apparati** deb yuritiladi

Nutq apparati nutqni hosil qilish jarayonida ishtirok etadigan bir necha organlardan tashkil topadi (19-rasm):

Oʻpka	Ikkita bronx	Traxeya
Kekirdak	Boʻgʻiz	Hiqildoq
Halqum	Tishlar	Burun boʻshligʻi
	Lablar	

19-расм. Нутқ ҳосил қилувчи органлар

Shunday qilib, kishilik jamiyati taraqqiyotining shaxs tarbiyasi masalalari kun tartibiga qoʻyilgan ilk davrlardan oq bolalarning taʼlimi va tarbiyasi uchun masʼul shaxslar toifasining shakllanishi, ularning shaxs va mutaxassis sifatida muayyan ijtimoiy talablarga javob bera olishlari, kasbiy mahoratga ega boʻlishlariga nisbatan ijtimoiy talablar qoʻyila boshlagan. Talabalarni ijtimoiy talablar bilan yaqindan tanishtirish, ularda pedagogik malaka va kasbiy mahoratni shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagogik mahorat asoslari boʻljak mutaxassislarni taʼlim va tarbiya jarayonlarni metodik jihatdan puxta, tashkiliy jihatdan samarali tashkil eta olishlarida muhim poydevor hisoblanadi. Ularning pedagogik texnikaga ega boʻlishlari kasbiy jarayonda yuzaga keladigan shaxslararo munosabatlarni samarali, salbiy nizolarsiz uyushtirilishini taʼminlash bilan birga hech bir qiyinchiliksiz taʼlim va tarbiyaviy ishlar jarayonini tashkil etilishiga ham yordam beradi.

Nazorat uchun savollar:

1. “Mahorat” va “pedagogik mahorat” tushunchalari qanday ma’no anglatadi?
2. Pedagogik mahorat qanday muhim tarkibiy qismlardan iborat?
3. Pedagogik bilimdonlik va pedagogik refleksiya nima?
4. Pedagogik odobning asosiy shakllari qaysilar?
5. Pedagogik deontologiya nima?
6. Pedagogik obro‘ qanday qozoniladi?
7. Pedagogik qobiliyat nima va uning qanay turlari mavjud?
8. Qanday qobiliyatlar noyob qobiliyatlar sanaladi?

2-Mavzu: Texnologiya fani o’qituvchilarining kasbiy kompetentligining shakllanishiga ta’sir ko’rsatuvchi omillar

Reja:

1. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati.
2. Kasbiy kompetentlik sifatleri.
3. Pedagogning kasbiy kompetentligi.

Tayanch tushunchalar: kompetentlik, kasbiy kompetentlik, kasbiy kompetentlik sifatleri, pedagogik kasbiy kompetentlik, Individual rivojlantirish dasturi, pedagogning individual rivojlanish dasturi, o‘z-o‘zini rivojlantirish, pedagogning o‘z ustida ishlashi, pedagogning o‘z ustida ishlash bosqichlari, o‘z-o‘zini baholash.

3.1. “Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o‘rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo‘lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo‘lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo‘sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o‘zida qanday kompetentlik sifatlarini yoritish zarur. Ayni o‘rinda shu va shunga yondosh g‘oyalar yuzasidan so‘z yuritiladi.

“Kompetentlik” tushunchasi ta’lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik “noan’anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o‘zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimoboyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo‘ladi:

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik– ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda sub’yektlar bilan muloqotga kirishaolish.

2. Maxsus kompetentlik– kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil e’tishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib boorish bo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

1)psixologik kompetentlik– pedagogic jarayonda sog‘lom psixologik muhitni yarataolish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqaish tirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2)metodik kompetentlik – pedagogic jarayonni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlayolish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsionkompetentlik– axborotmuhitidazarur, muhim, kerakli, foydalima’lumotlarniizlash, yig‘ish, saralash, qaytaishlashvaulardanmaqsadli, o‘rinli, samaralifoydalanish;

4) kreativkompetentlik– pedagogikfaoliyatgatanqidiy, ijodiyoyondashish, o‘ziningijodkorlikmalakalarigaegaligininamoyishetaolish;

5) innovatsionkompetentlik– pedagogikjarayonnitakomillashtirish, ta’limsifatini yaxshilash, tarbiyajarayoniningsamaradorliginioshirishgadoiryangig‘oyalarniilgarisurish, ularniamaliyotgasamaralitatbiqetish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo’lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko’rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o’sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o’z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg’or texnologiyalarni o’zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to’g’ri harakatlanish malakasiga egalik.

Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o’ziga xos jihatlari o’rganilgan. Bunday tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova, va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin.

O’z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi

(1-rasm):




1-rasm. Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari (A.K.Markova)

3. Pedagogning kasbiy kompetentligi.

O’zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o’ziga xos jihatlari o’ranilgan bo’lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko’ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi

(42- rasm):



2-rasm. Pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari (B.Nazarova)

Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash – pedagogning izchil ravishda o'zining kasbiy BKM va shaxsiy sifatlarini rivojlantirib borish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etishi


O'z ustida ishlash quyidagilarda ko'rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtiribborish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy yondashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

ijobiy sifatlarni o'zlashtirish.

Pedagogning o'z ustida ishlashi bir necha bosqichda kechadi. Ular

(3-rasm):



3-rasm. Pedagogning o'z ustida ishlash bosqichlari

Pedagogning mutaxassis sifatida:

- aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;

- pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;
- izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;
- ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;
- faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;
- kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;

- salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralarini izlash yo'lida olib boradigan amaliy harakati uning o'z ustida ishlashini ifodalaydi.

Pedagoglarning o'z ustilarida izchil, samarali ishlashlarida faoliyatga loyihali yondasha olishlari qo'l keladi. Ularning loyihali yondashuv asosida quyidagi modelni shakllantira olishlari maqsadga muvofiqdir. Modelda o'z ustida ishlash bosqichlari va har bir bosqichda amalga oshiriladigan vazifalar qayd etiladi. Har bir bosqich uchun belgilangan vazifalarning samarali hal etilishi navbatdagi bosqichga o'tish imkonini beradi. Ma'lum bosqich vazifalari hal etilgach, pedagog bu holatni alohida bandda qayd etadi (8-jadval):

8-jadval. Pedagogning o'z ustida ishlash modeli

Босқичлар	Уларда амалга ошириладиган вазифалар	Қайдлар
1-босқич		
2-босқич		
3-босқич		
4-босқич		
5-босқич		

Pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishida o'zini o'zi tahlil qila olishi ham ahamiyatli sanaladi

O'zini o'zi tahlil qilish pedagog tomonidan kasbiy faoliyatda tashkil etayotgan o'z amaliy harakatlari mohiyatining o'rganilishidir. O'zini o'zi tahlil qilish orqali pedagog o'zini o'zi obyektiv baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Zero, pedagoglarning kasbiy kompetentlik sifatlariga ega bo'lishida ularning o'z-o'zini baholash malakalariga egaligi ham muhimdir.

O'zini o'zi baholash (O'O'B) – shaxsning o'z-o'zini tahlil qilishi orqali o'ziga baho berishi. O'zini o'zi baholash subyekt uchun shaxsiy imkoniyatlarini hisob-kitob qilish, o'ziga obyektiv baho berish, o'zidan qoniqishni ta'minlaydi.

O‘z-o‘zini baholash shaxsning qobiliyatini o‘z kuchi bilan yuzaga chiqishiga yordamlashishi zarur. O‘z-o‘zini baholash qiyin, lekin shaxsni bunga bevosita tayyorlash mumkin. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi pedagogning ham o‘zini o‘zi samarali baholay olishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zini o‘zi samarali baholash omillari:

1. O‘zini tushunish (o‘zi haqida aniq ma’lumotlarga ega bo‘lish).
2. Shaxs sifatida o‘z qadr-qimmatini anglash (o‘zi to‘g‘risidagi ijobiy ma’lumotlarni to‘plash).
3. O‘zini-o‘zi nazorat qilish (o‘zi to‘g‘risidagi shaxsiy fikrning atrofdagilar tomonidan unga berilayotgan bahoga mos kelishi).

O‘z-o‘zini baholash darajasi shaxsning o‘z-o‘zidan qoniqishi yoki qoniqmasligini belgilab beradi. Bunda o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlari shaxs imkoniyatlariga mos kelishi lozim. O‘zini o‘zi oshirib yoki pasaytirib ko‘rsatish o‘z-o‘zini baholash ko‘rsatkichlarining noto‘g‘ri bo‘lishiga olib keladi. Ko‘plab manbalarda shaxs tomonidan o‘z-o‘zini baholash quyidagi formula asosida aniqlanishi ko‘rsatilgan

$$\text{O‘O‘B} = \text{yutuqlar} / \text{o‘zini yuqori baholashga intilish} \\ (\text{yoki } \text{O‘O‘B} = \text{YU} / \text{O‘YUBI})$$

Formulaga ko‘ra, qandaydir yutuqqa erishgach, shaxs tomonidan o‘zini o‘zi yuqori baholash (yutuqlar hissasini oshirish) yoki o‘ziga nisbatan qo‘yayotgan talablarni pasaytirish ro‘y beradi.

Бизнинг фикримизча, ЎЎБда холисликка эришишда куйидаги формула ҳам кўл келади:

$$\text{ЎЎБ} = \text{ютуклар} / \text{ўз-ўзини ривожлантириш вазифалари} \\ (\text{ёки } \text{ЎЎБ} = \text{Ю} / \text{ЎЎРВ})$$

Ушбу формула билан ишлашда педагог куйидаги ўзини-ўзи баҳолаш моделига таяниб иш кўриши мумкин (9-жадвал):

9-жадвал. Ўзини-ўзи баҳолаш модели

№	Мавжуд ютуқлар	Ўз-ўзини ривожлантириш вазифалари
1.		
2.		
3.		
...		

Ushbu model asosida o‘z-o‘zini baholash nihoyatda oson kechadi. Bordi-yu, erishilgan yutuqlar soni o‘z-o‘zini rivojlantirish vazifalariga nisbatan ko‘p (1 dan

katta) bo'lsa, u holda pedagog yuqori darajada kasbiy kompetentlikni namoyon etadi. Bordi-yu, yutuqlar va belgilangan o'zini o'zi rivojlantirish vazifalari o'zaro (1 ga) teng bo'lsa, u holda u o'zida o'rta darajadagi kasbiy kompetentlikni ifodalaydi. Agarda, yutuqlar soni belgilangan rivojlantirish vazifalaridan kam (1 dan kichik yoki 0 ga teng) bo'lsa, u holda pedagogning kasbiy kompetentlik darajasi past hisoblanadi va bu holat pedagogdan o'z kasbiy kompetentligini rivojlantirishga jiddiy e'tibor berishini talab qiladi.

Formulada "o'zini o'zi rivojlantirish vazifalari" jumlasini qo'llanilgan ekan, eng avvalo, o'zini o'zi rivojlantirish nima ekanligini tushunish olish lozim.

O'z-o'zini rivojlantirish – shaxsning o'zida kasbiy tajriba, malaka va mahoratni takomillashtirish yo'lida aniq maqsad va puxta o'ylangan vazifalar asosida mustaqil ravishda amaliy harakatlarni tashkil etishi. Bir qator tadqiqotlarda mutaxassis, shu jumladan, pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishida "Individual rivojlanish dasturi" qo'l kelishi aytiladi.

Individual rivojlanish dasturi (IRD) – har bir shaxs yoki mutaxassisning o'zida ma'lum sifat, BKM, kasbiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlari asosida ishlab chiqilgan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dastur. Ushbu dasturda kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur bo'lgan BKM hamda kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish muddatlari belgilanadi.

Har qanday mutaxassis kabi pedagog ham o'zi uchun shaxsiy-amaliy xarakterga ega "Individual rivojlanish dasturi"ni ishlab chiqarish olishi, u asosida pedagogik faoliyatni yo'lga qo'yishi zarur.

Pedagogning individual rivojlanish dasturi – mutaxassis sifatida pedagogning individual ravishda o'zida u yoki bu kasbiy-pedagogik sifat, bilim, ko'nikma, malakalar, kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish ehtiyojlariga tayangan holda ishlab chiqqan shaxsiy-amaliy xarakterdagi dasturi.

Pedagog tomonidan ishlab chiqiladigan "Individual rivojlanish dasturi" quyidagi tarkibiy elementlardan tarkib topadi:

- 1) pedagogik bilimlar;
- 2) psixologik bilimlar;

- 3) mutaxassislik bilimlari;
 - 4) didaktik malakalar;
 - 5) tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari;
 - 6) ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar;
 - 7) o‘z-o‘zini rivojlantirish maqsadlari;
 - 8) o‘z-o‘zini rivojlantirish uchun topshiriqlar
- Quyidagi pedagogning “Individual rivojlantirish dasturi”ning namunasi keltiriladi (10-jadval):

10-jadval. Individual rivojlantirish dasturi

Билим, малака ва шахсий сифатлар	Мавжуд даража	Истиқбол вазифалар
Педагогик билимлар		
Психологик билимлар		
Мутахассислик билимлари		
Дидактик малакалар: билишга оид (гностик) лойиҳалаш ижодий-амалий (конструктив) тадқиқотчилик мулоқотга кирувчанлик (коммуникатив) ташкилотчилик изчилликни таъминловчи (процесссуал) техник-технологик малакалар		
Тарбиявий ишларни ташкил этиш малакалари: билишга оид (гностик) лойиҳалаш малакалари ижодий-амалий (конструктив) тадқиқотчилик мулоқотга кирувчанлик (коммуникатив) ташкилотчилик изчилликни таъминловчи (процесссуал)		

техник-технологик малакалар		
Рухиятнинг касбий аҳамиятга эга хусусиятлари ва шахсий сифатлар: педагогик фикрлаш тизимлилик мослашувчанлик мобиллик иждоқкорлик ҳозиржавоблик ҳиссий ривожланганлик педагогик рефлексия		
Ўз-ўзини ривожлантириш мақсадлари		
Ўз-ўзини ривожлантириш учун топшириқлар		

Pedagogning kasbiy jihatdan rivojlanish darajasini yana quyidagi shkala yordamida ham aniqlash mumkin (11-jadval). Shunday qilib, bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida yuzaga keladigan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish ehtiyoji har bir mutaxassisni o'zida kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlarni tarkib toptirishga undaydi. Lug'aviy jihatdan "qobiliyat", mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish" ma'nosini anglatuvchi kompetentlik negizida ijtimoiy, maxsus (psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion hamda kommunikativ), shaxsiy, texnologik va ekstremal kompetentlik kabi sifatlarni aks etadi.

11-jadval. Kasbiy rivojlanish shkalasi

	Касбий компетентлик сифатлари	Шкала кўрсаткичлари									
		10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
1. Ижтимоий компетентлик											
1)	ижтимоий ташкилотлар ва субъектлар билан ўзаро муносабатда бўла олиш кўникма, малакаларига эгаллик										
)	касбий мулоқот ва хатти-ҳаракат услубларини ўзлаштира олганлик										
2. Шахсий компетентлик											
	доимий равишда касбий ўсишга эришиш ва касбий малакани ошириб бориш										
	касбий фаолиятда ўз ички имкониятларини рўйбга чиқара олиш										
3. Махсус компетентлик											
	мустақил равишда касбий-педагогик фаолиятни ташкил этишга тайёрланиш										
	одатий касбий-педагогик вазифаларни тўғри ҳал										

	килиш ва ўз меҳнатининг натижаларини реал баҳолаш малакасига эгаллик										
	мутахассислиги бўйича янги билим ва кўникмаларни мустақил равишда изчил ўзлаштириб бориш қобилиятига эгаллик										
4. Технологик компетентлик											
	касбий-педагогик билим, кўникма ва малакаларни бойитадиган илғор технологияларни ўзлаштириш қобилиятига эгаллик										
	замонавий дидактик воситалар (техник воситалар, ўқув қуроллари)дан фойдаланиш малакасига эгаллик										
5. Экстремал компетентлик											
	фавкулотда ҳолатларда (табiiй офатлар содир бўлганда, технологик жараён ишдан чиққанда) оқилна қарор қабул қилиш, тўғри ҳаракатланиш малакасига эгаллик										
	муаммоли вазиятларда (педагогик зиддиятлар юзага келганда) оқилна қарор қабул қилиш, тўғри ҳаракатланиш малакасига эгаллик										

Birqator, xususan, A.K.Markova hamda B.Nazarovlarning tadqiqotlarida pedagogic kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o'tilgan. Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi.

Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishda pedagogga "Individual rivojlanish dasturi" qo'l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatleri va rivojlantirish zarur bo'lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin.

Nazorat uchun savollar:

1. "Kompetentlik" tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
2. Kasbiy kompetentlik nima?
3. Kompetentlik qanday holatlarda namoyon bo'ladi?
4. Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi?
5. Ijtimoiy kompetentlik deganda nimani tushunasiz?
6. Maxsus kompetentlik negizida qanday kompetentliklar ko'zga tashlanadi?
7. Psixologik kompetentlikning mohiyati nimadan iborat?

8. Metodik kompetentlikda qanday jihatlar aks etadi?
9. “Informatsion kompetentlik” deganda nimani tushunasiz?
10. Kreativ kompetentlik nima?
11. Innovatsion kompetentlikning o‘ziga xos jihatlari nimalarda ko‘rinadi?
12. Pedagogik faoliyatda kommunikativ kompetentlik qanday ahamiyat kasb etadi?
13. “Shaxsiy kompetentlik” tushunchasi Siz uchun qanday ma‘noni anglatadi?
14. Pedagogik kompetentlik nima?
15. A.K.Markova pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslarini qanday ifodalagan?
16. B.Nazarovanning yondashuviga ko‘ra pedagogik kompetentlik qanday asoslardan tarkib topadi?
17. Individual rivojlanish dasturi nima?
18. Pedagogning individual rivojlanish dasturida nimalar aks etadi?
19. O‘z-o‘zini rivojlantirish deganda nimani tushunasiz?
20. O‘z ustida ishlash nima?
21. Pedagogning o‘z ustida ishlash modelida qanday holatlar aks etadi?
22. Pedagogning o‘z ustida ishlashi qanday bosqichlarda kechadi?
23. O‘zini o‘zi tahlil qilish deganda nimani tushunasiz?
24. “O‘z-o‘zini baholash” tushunchasi qanday ma‘noni anglatadi?
25. Shaxsning o‘z-o‘zini baholashi qanday omillar negizida kechadi?
26. O‘z-o‘zini baholash qanday formula yordamida ifodalanadi?
27. O‘zini-o‘zi baholash modelida qanday holatlar aks etadi?

3-Mavzu:Pedagogik kreativlik va uning o‘ziga xos jihatlari

Reja:

1. “Kreativlik” va “Pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati.
2. Pedagogning kreativlik potentsiali.
3. Kreativlik potentsialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari.
4. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar.
5. O‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish.

Tayanch tushunchalar: kreativlik, kreativlikni rivojlantirish, kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladigan omillar, kreativ potentsial, pedagogik kreativlik, pedagogning kreativ potentsiali, kreativ potentsialning tarkibiy asoslari va tamoyillari, pedagogning kreativ potentsialini aniqlovchi mezonlar.

I. “Kreativlik” va “pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati.
Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lishi taqozo etadi.


Kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative ” yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi.

P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

- muammoga yoki ilmiy farazlarni ilgari surish;
- farazni tekshirish va o‘zgartirish;
- qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash;
- muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o‘zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta’sirchanlik

Kreativlik sifatlari quyidagilar sanaladi (27-rasm):



27-rasm. Kreativlik sifatlari

Boshqa har qanday sifat (fazilat) kabi kreativlik ham birdaniga shakllanmaydi. Kreativlik muayyan bosqichlarda izchil shakllantirib va rivojlantirilib boriladi. Xo‘sh, shaxs faoliyatida kreativlik xususiyatlari qachondan namoyon bo‘ladi?

Odatda kreativlik bolalarning faoliyatida tez-tez ko‘zga tashlansada, biroq, bu holat bolalarning kelgusida ijodiy yutuqlarni qo‘lga kiritishlarini kafolatlamaydi. Faqatgina ular tomonidan u yoki bu ijodiy ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirishlari zarur degan ehtimolni ifodalaydi.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda quyidagilarga e’tibor qaratish zarur:

- 1) ular tomonidan ko‘p savollar berilishini rag‘batlantirish va bu odatni qo‘llab-quvvatlash;
- 2) bolalarning mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish;
- 3) bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish;
- 4) bolalarning qiziqishlariga e’tibor qaratish


Quyidagi omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi:

- 1) o'zini tavakkaldan olib qochish;
- 2) fikrlash va xatti-harakatlarda qo'pollikka yo'l qo'yish;
- 3) shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- 4) boshqalarga tobe bo'lish;
- 5) har qanday holatda ham faqat yutuqni o'ylash

Psixologiyada P.Torrens tomonidan shaxs kreativligini aniqlovchi test ishlab chiqilgan. P.Torrensning fikricha, shaxs kreativligi o'zida quyidagi belgilarni namoyon qiladi:

- 1) savollar, kamchiliklarga yoki bir-biriga zid ma'lumotlarga e'tiborsiz bo'lmaslik;
- 2) muammolarni aniqlash uchun harakat qilish, ilgari surilgan taxminlar asosida ularning yechimini topishga intilish

Bugungi kunda psixologiyada shaxs kreativligi uning faoliyatiga xos ikki jihatga ko'ra aniqlanmoqda. Bunda faoliyatning ikki jihatini yorituvchi testlardan foydalaniladi. Ular quyidagilardir (28-rasm):



28-rasm. Shaxs kreativ faoliyati mohiyatini yorituvchi test turlari

II. Pedagogning kreativlik potentsiali. O'qituvchining ijodkorligi u tomonidan tashkil etilgan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati

Pedagogning **kreativlik potentsiali** uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o'z-o'zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potentsial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo'ladi.

Kreativ potentsial bilish jarayoniga yo'naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog'liq. Pedagogning kreativ potentsiali an'anaviy tafakkur yuritishdan farqli ravishda quyidagilarda namoyon bo'ladi:


tafakkurning tezkorligi va egiluvchanligi;
yangi g'oyalarni yaratish qobiliyati;
bir qolipda fikrlamaslik;
o'ziga xoslik;
tashabbuskorlik;
noaniqlikka toqat qilish;
zakovatli bo'lish

Pedagog kreativlik potentsialiga ega bo'lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e'tiborini qaratishi zarur:

- kasbiy faoliyatiga ijodiy yondashish;
- yangi-yangi g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish;
- ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish;
- hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida fikr almashish

Har bir pedagogning o'zini o'zi rivojlantirishi va o'zini o'zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog'liq.

Pedagogning kreativlik potentsialini rivojlantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samarali sanaladi (29-rasm):



29-rasm. Pedagogning kreativlik potentsialini rivojlantiruvchi metodlar

Odatda pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o'zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta'minlanadi.


Pedagog o'z-o'zidan ijodkor bo'lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma'lum vaqt ichida izchil o'qib-o'rganish, o'z ustida ishlash orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo'lgani kabi bo'lajak pedagoglarning kreativlik qobiliyatiga ega bo'lishlari uchun talabalik yillarida poydevor qo'yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o'zini o'zi ijodiy faoliyatga yo'naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.





Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o'z oldiga muammoli masalalarni qo'yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo'lgan dalillar bilan to'qnash keladi. Buning natijasida o'z ustida ishlash, mustaqil o'qib o'rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.

O'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish. Pedagogning kreativligi rivojlantirishda uning ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Buning uchun pedagoglar o'zlarida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish yo'lida tizimli, izchil amaliy harakatlarni tashkil etishlari zarur. Quyida ularning ayrimlari xususida to'xtalib o'tiladi.




1. Maxsus testlar bilan ishlash. Pedagoglarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida tinglovchilarda kreativlik qobiliyati va sifatlari mavjudligini aniqlashda P.Torrensning "Tugallanmagan rasmlar" testidan foydalanish samarali natijalarni beradi.

Mazkur test quyidagi shtrixlaran iborat noaniq tasvirlardan iborat bo'lib, tinglovchilarga ularni tugatib berish topshirig'i beriladi:





Ayni vaqtda OTM pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi qo‘llash jarayonida tinglovchilar tomonidan quyidagi takliflar berildi. (TATU, tinglovchi S.E.Holiqov):



2. Talaba va tinglovchilarda ijodiy tafakkurga shakllantirishga oid topshiriqlar bilan ishlash. Bu turdagi topshiriqlar talaba, tinglovchilarda ijodiy fikrlash, voqea, hodisa, jarayon yoki faoliyat mohiyatini mantiqiy ifodalash, xayolot olamini boyitish malakalarini o'zlashtiradi. Bu maqsadda kichik esse, tabriknoma, taklifnomalar uchun matnlarni yozish, reklama roliklari uchun matnlar ishlab chiqish kabi topshiriqlar foydalanish mumkin. Mashg'otlarda bu kabi topshiriqlar bilan ishlanganda milliy mentalitet xususiyatlari ijodiy mahsulot (o'zbek guruhlarida qarindoshlar, tanishlar, rus guruhlarida esa notanish, hatto davlat arboblari uchun tabriknoma) mazmunini shakllantirishga ta'sir ko'rsatishi kuzatildi. M:

Dorogoy Vladimir Vladimirovich! Pozdravlyayu Vas s Novym godom! Etot god dlya Vas byl uspehnym, tak kak Vam udalos rasshirit territoriyu Rossii i tem samym ostatsya v istorii Rossii v kachestve velikogo gosudarstvennogo deyatelya. Konechno 2014 god byl trudnym i nepredskazuемым, poroy byli takie situatsii, которые трудно было предtavit sebe.

V Novom godu jelayu Vam, samoe glavnoe zdorove, uspehov v ekolomike, a imenno ukrepleniya rublya, otmenit sanksiy so storony zapadnyx stran i konechno je rosta VVP (vnutrenniy volovyy produkt)

S uvajeniem stuent TIU

Irdjanov Xiloliddin

16 dekabr 2014 god

3. Matnli axborotlarni grafik shakliga o'tkazish. Matnli, ayniqsa, katta hajmdagi matnli axborotlar talabalar tomonidan qiyin qabul qilinadi. Zamonaviy sharoitda matnli axborotlarni grafik shakliga o'tkazish talab etilmoqda. O'quv axborotlarini grafik shakliga o'tkazishda ma'lumotlarni model, sxema, jadval, diagramma, tasvir, klaster, matematik, fizik, geometrik ko'rinishlarida ifodalash maqsadga muvofiqdir. Bu tarzda talabalarga taqdim etilgan axborotlar talabalar tomonidan samarali qabul qilinadi.

Ayni vaqtda OTM pedagoglarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarida "Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat" yo'nalishida tashkil etilgan amaliy mashg'ulotda tinglovchilar bilan quyidagi matnli axborotni klasterda ifodalash ko'nikma, malakalari bilan qurollantirildi:

Xalqaro qurolli mojar. Huquqiy tushuncha sifatida "xalqaro qurolli mojar" ilk bor 1949-yildagi Jeneva konvensiyasining 2-moddasida urush tushunchasi bilan bir qatorda tilga olingan. Eng avvalo, "mojar" va "xalqaro mojar" tushunchalari o'rtasidagi farqni bilib olish kerak. **Mojar** – ikki qarama-qarshilikning ixtilofi.

Xalqaro mojar (XM) – mojar asosida yotgan va unda qatnashayotganlar o'rtasida mavjud bo'lgan ziddiyatlarning keskin shaklda ifodalovchi rasmiy, siyosiy munosabat sanaladi. XMdan biri **qurolli mojar** sanaladi. Biroq, har qanday xalqaro mojar qurolli mojar bo'lavermaydi. Qurolli mojaroda ikkinchi tomonga nisbatan qurolli kuch ishlatiladi. Demak, qurolli kuch ishlatish qurolli mojaroning o'ziga xos jihatidir. 1975-1977-yillarda

5. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda qanday shartlarga amal qilish zarur?
6. Qanday omillar shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to'sqinlik qiladi?
7. P.Torrens shaxs kreativligi o'zida qanday belgilarni namoyon qiladi deb hisoblaydi?
8. Shaxs kreativligini aniqlovchi testlar necha turga bo'linadi?
9. Pedagogik kreativlik nima?

Mavzu: Pedagogik kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlar

Reja:

1. "Kompetentlik" tushunchasining mohiyati.
2. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar.
3. Ta'limda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishning muhim jihatlari

Tayanch so'zlar: Kompetentlik, Kasbiy kompetentlik, Ijtimoiy kompetentlik, Maxsus kompetentlik.

Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini e'tibor olishi zarur. Ayni o'rinda shu va shunga e'tibor berish g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi.

"Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologikizlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jaraenlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoèn etab olish"ni e'ritishga xizmat qiladi.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi

Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:
Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:

Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlarning aks etadi .

Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha èritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayèrlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashni izchil rivojlantirib boorishbo‘lib, ushbu kompetentlik negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

Sifatlar:

Ijtimoiy kompetentlik

Shaxsiy kompetentlik

Texnologikkompetentlik

Maxsus (èki kasbiy)kompetentlik

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning

Ektremal kompetentlik Psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik

- murakkab jaraènlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma‘lumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda
- o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o‘zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi

1) psixologik kompetentlik – pedagogik jaraènda sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta‘lim jaraènining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli salbiy psixologik ziddiyatlarni o‘z vaqtida anglay olish va bartaraf eta olish;

2) metodik kompetentlik – pedagogik jaraènni metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta‘lim èki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish, metodlarni samarali qo‘llay olish, vositalarni muvaffaqiyatli qo‘llash;

3) informatsion kompetentlik – axborot muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma‘lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

4) kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga tanqidiy, ijodiy èndashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish;

5) innovatsion kompetentlik – pedagogik jaraènni takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jaraènining samaradorligini oshirishga doir yangi g’oyalarni ilgari surish, ularni amaliëtgà samarali tatbiq etish;

6) kommunikativ kompetentlik – ta’lim jaraènining barcha ishtirokchilari, jumladan, talabalar bilan samimiy muloqotda bo’lish, ularni tinglay bilish, ularga ijobiy ta’sir ko’rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – izchil ravishda kasbiy o’sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o’z ichki imkoniyatlarini namoèn qilish.

4. Texnologik kompetentlik – kasbiy-pedagogikni boyitadigan ilg’or texnologiyalarni o’zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiyalardan foydalana olish.

5. Ektremal kompetentlik – favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jaraèn ishdan chiqqan)da, pedagogic nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to’g’ri harakatlanish malakasiga egalik. Bir qator tadqiqotlarda bevosita pedagogga xos kasbiy kompetentlik va uning o’ziga xos jihatlari o’rganilgan. Bun day tadqiqotlar sirasiga A.K.Markova , va B.Nazarovalar tomonidan olib borilgan izlanishlarni kiritish mumkin. O’z tadqiqotlarida A.K.Markova pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi tarkibiy asoslardan iborat ekanligi aytiladi

6. Pedagogning kasbiy kompetentligi. O’zbekistonda pedagogning kasbiy kompetentligi, uning o’ziga xos jihatlari o’ranilgan bo’lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o’ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko’ra pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar tashkil etadi Kasbiy-pedagogik kompetentlikka ega bo’lishda o’z ustida ishlash, o’z-o’zini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O’z-o’zini rivojlantirish vazifalari o’zini o’zi tahlil qilish va o’zini o’zi baholash orqali aniqlanadi.

O’z ustida ishlash quyidagilarda ko’rinadi:

- kasbiy BKMni takomillashtirib borish;
- faoliyatga tanqidiy va ijodiy èndashish;
- kasbiy va ijodiy hamkorlikka erishish;
- ishchanlik qobiliyatini rivojlantirish;
- salbiy odatlarni bartaraf etib borish;

Tarkibiy asoslar

Maxsus èki kasbiy kompetentlik (kasbiy faoliyatni yuqori darajada tashkil etish)

Shaxsiy kompetentlik (o’z-o’zini rivojlantirish, o’z-o’zini namoèn etish)

Individual kompetentlik (o’z-o’zini boshqarish, kasbiy rivojlanish va yangiliklar yaratish)

Ijtimoiy kompetentlik (qo’shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil etish)

Ta’limda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishning muhim jihatlari.

Insoniyat tarixida raqamli texnologiyalarning paydo bo’lishi telekommunikatsion sohada tub o’zgarishlarga olib keldi va bu o’z navbatida an’anaviy tovushli aloqa xizmatlari internet, ma’lumotlarni uzatish, mobil aloqa kabi interaktiv xizmatlar bilan o’rin almashmoqda. Shunga qaramasdan aksariyat sohalarda internet foydalanish an’anaviy tarzda davom etmoqda bu holat mamlakatimizda ham yaqqol ko’zga tashlanadi. Biz insonlar tamaonidan

shakillantirilgan jamiyatlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak bu jamiyatlar haëtiga kundan-kunga axborot kommunikatsion texnologiyalarning kirib borishi ularning o'zaro munosabatlariga o'z ta'sirini ko'rsataëtganligini ko'rishimiz mumkin. Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyasining va ularni amalga oshirish vositalarini juda tez rivojlanishi axborot jamiyatning shakllanishini oldindan belgilab beradi. Bunday jamiyatda inson faoliyatining xamma sohalarida mehnat qilaëtganlarning mutlaq ko'pchiligi axborotlarni ishlabchiqish, saqlash, qayta ishlash va uning eng yuqori shakli bilimlarni tarqatish bilan shug'ullanadi. Busohada Internet texnologiyalari muhim rol o'ynaydi.¹ Axborot texnologiyalari, zamonaviy kompyuterlarga va ofis jihozlariga talab oxirgi yillarda jahon iqtisodiy dinamikasi va sturukturasi, shuningdek ta'lim tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalari sohasida Internet tizimining paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi haqiqiy inqilob bo'ldi. Internet uchinchi ming yillikka kelib jahon iqtisodining yetakchi sohalaridan biriga aylandi, ningyillikqiymati 500 mlrd. dollarnitashkilqiladi, bu sohada uchmilliondan ortiq kishi band² ekanligi ham buning yaqqol misolidir. Ta'limdan internetdan foydalanish darajasini va unga bo'lgan ehtiëjning oshib boraëtganligi bu boradagi ayrim muammo va kamchiliklarni ham yuzaga keltirmoqda.

Mutaxassislarning hisobiga ko'ra, XX asr boshida «Bilimlar hajmi» har 50 yilda 2 barobar oshdi. Hozirgi paytda bu jaraën 1 yilda amalga oshirilmoqda, yaqin istiqbolda esa 1 oyda bo'ladi³oyda.

Bugungi kunda aksariyat ta'lim yo'nalishidan qat'iy nazar mustaqil ishlashi uchun berilgan barcha topshiriqlarni tinglovchi u o'quvchimi, talabami farqi yo'q barchasi birinchi bo'lib o'zlariga berilgan vazifaga doir ma'lumotlarni internetdan izlashadi va bunda internet foydalanuvchilari tamonidan bildirilgan fikr mulohazalar, ayrim asoslanmagan nazariyalar va g'oyalar ëki mashhur olimlar nomidan bildirilgan fikrlardan iqtiboslarni to'g'ridan-to'g'ri kuchirib olishadi.

Ayrim holatlarda usha internetdamashhur olimlar tamonidan bildirilgan deb iddo qilinaëtgan fikrlar olimning birorta kitobidan topa olmaslik kabi tushunarsiz va bahsli holatlarni yuzaga keltirmoqda.

Shuning uchun ta'lim beruvchi pedogog o'z tinglovchilariga rasman tan olingan va umum e'tirof etilgan ëki keltirilgan ma'lumotlar rasmiy nashirlarda chop etilganligini tasdiqlash mumkin bo'lgan internet saytlari ruyhati va undan foydalanish tirtib to'g'risida oldindan ma'lumot berib borishi lozim.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot institutlari, davlat idoralari hamda halqaro tashkilotlarining rasmiy saytlari to'g'risida va ularning ruyhatini ko'rsatgan holda tinglovchini habardor qilib borish kelgusida turli asosiz ma'lumotlarning kirib kelishini oldini olgan bo'lardi.

Bunday holatlarning oldini olish uchun nimalar qilishimiz kerak deb o'ylayman ?

1. Har bir oiladagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash,
2. Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktablarda farzandlarga va ota-onalarga tushuntirish ishlarini olib borish,

3. Ota-onaning farzand tarbiyasiga bo'lgan e'tiborini oshirish lozim
4. Mahallalar bilan birga ishlash
5. Keng jamoatchilik hamkorlikda ish olib borish
6. Huquq-tartibot idoralari bilash ishlash,
7. Yoshlar bilan ishlovchi tashkilotlar bilan ishlash (Yoshlar ittifoqi),
8. Internetdan oqilona foydalanishga o'rgatish
9. Internet iste'moli madaniyatini yuksaltirish
10. Milliy tarmoqda e'shlar uchun mo'ljallangan, ularning dunëqarashi, qiziqishlari hisobga olingan holda veb-saytlar ochish,
11. Yoshlarning axborot-psixologik xavfsizligini ta'minlashga doir ilmiy asoslarni yaratish,
12. Ta'lim muassasalarini internet tarmog'iga ulashda odob-axloq qoidalariga muvofiq bo'lmagan veb-saytlardan foydalanishga cheklovlarni joriy etish,
13. Ma'furaviy immunitetni shakllantirish,
14. Media-savodxonligi va internetdan foydalanish madaniyatini oshirish,
15. Turli xurujlardan himoya qilish texnologiyalarini yanada takomillashtirish lozim.

4-Ma'ruza

Mavzu. Texnologiya fani o'qituvchisining global kasbiy kompetentligi.

Reja:

1. Xodimning professional kompetentligini baholash.

2. Texnologiyasi ishining tuzilishi va prinsiplari bo'yicha bilimni shakllantirish va amalda qo'llashni o'rgatish.

Tayanch so'zlar: professional kompetentligini baholash, kalit kompetensiyalari, hamkorlikda bo'lish, differensial kompetentlik.

Kompetensiya iborasi zamonaviy adabiyotda keng qo'llaniladigan termin bo'lib, ta'lim, xodimlarni tanlash, mehnat natijasini baholash, ta'limning muvoffaqiyatligi, professional yo'naltirilganlik va shu kabi masalalarni qamrab oladi. Bugungi kundama'no nuktai nazaridan oxirgacha aniklashtirilmagan deb xisoblanadi.

1970 yillarda kupgina Garb Yevropa davlatlarida paydo bulib, bunda kompetentlik professional tayyorgarlikning yangi yunalishini kursatadigan buldi. «Kompetentlik» termini ta'lim fakatgina individual, texnik yeki tajribiy bilim va kobiliyatni egallash masalalar bilan bog'liq bulib kolmay, balki individ shaxsni keyinchalik rivojlantirishga baza bulib, xizmat kala oladigan kobiliyat vako'nikmalari majmuasini ifoda kiladi. Ammo bu goya barcha Yevropa davlatlarida turlicha uz ifodasini topdi.

Masalan, Germaniyada 1980 yillardan boshlab, «professional faoliyatda kompetentlik» iborasi boshlangich professional tayyorgarlik mabaynida erishilishi shart bulgan maksadni ifodalagan. Bu ukitish kursi uzaro og'ililik, texnik kompleks va umumiy bilim yigindisidan iborat bulib, bu bitiruvchiga kompaniyaning turli ish

joylarida ishnidavom ettirish imkonini berar edi. Bu umumiy malaka uzgarishsiz qolishi mumkin emas, u rivojlanib borishi kerak, chunki individ vajamiyat manfaatlaridan kelib chikkan xolda mexnat dunesiningtalablari va shartlari xam uzgarib turadi.

Buyuk Britaniyada «kalit kompetensiyalari» debyuritiladigan sistema aktiv kulanilmokda. Kalit kompetensiyalari bumuxim maxsus kompetensiyalar bklib, ular kundalik xayotdaekiprofessional tayergarlikni utaetganda kulaniladi.

Kalit kompetensiyalari 3 ta funksiyani bajaradi:

- 1) Ular talabalarning ta'lim olishga yerdam beradi.
- 2) Xodimlar ishga kabul kiluvchilarning talablariga ixchamlik bilan javob berish imkonini beradi.
- 3) Xaetlarida muvoffakiyatli bulishlariga yerdam beradi.

Quyidagi asosiy kompeteknsiyalarni ajratishadi:

- 1.Rakamlar orkali oshiriladigan kompetensiyalar-rakamli ma'lumotlarni yeritish, xisoblarni utkazish, yakuniy xulosalarni takdim etish kobiliyati
2. Kommunikatsiya- ma'lumotlarni tinglash, ukish,ezish va kabul kila olish kobiliyati
- 3.Informasion texnologiya-olingan ma'lumotlarni turli obrazda takdim etish, masalan , tekst, rakam, diagramma sifatida.
- 4.Mustakil ta'lim va mustakil prezintatsiya-xodimoarni boshqarish, karerani rivojlantirish va ta'lim olish kobiliyati
- 5.Insonlar bilan ishlash- kollektivda umumiy maksadlarnikuzlagan xolda faoliyatni rejalashtirish va amalga oshirishda insonlar bilan ishla olish qobiliyati.

Kalit kompetensiyalari faoliyat mobaynida rivojlanadi,masalan, lavozim majburiyatlarini bajarishda professional tayergarlikprogrammalarini utishda, ta'limning turli xil shakllarini egallashdarivojlanadi.

Mashxur ingliz psxologi Dj.Raven nazariy kompetentlikmodelini va shu bilan birga uni baxolashda yangi yunalishlarni taklifetgan.Ravenning fikriga kura, kompetensiya bu anik bir vazifanisamarali bajarish uchun talab kilinadigan tor doiraviy maxsus bilimlar,fikrlash yullarini kamrab oluvchi maxsus kobioiyat xamda uziningxarakatlari uchun javobgarlikni xis etishdir.

Ravenning «yuqori kompetensiyalar» deb nomlanuvchikompetensiyalar tugrisida suz yuritadi. Yukori kompetensiyalarinsonlarda yukori tashabbuskorlik kibiliyatini, uz maksadlarigaerishish uchun insonlar faoliyatini tashkillashtirish bilan bog'liqbulgan tashabusskorlik kobiliyati, uz xaraktlarining sotsial okibatlariniva amal kilishni talab kiladi.

Ravenning karashlariga muvofik, kompetentlikning tabiatishundan iboratki,bunda inson uzining faoliyatida chukur kizikish bilan qaraydi va inson kiymati bilan bir butunlikda namoyonbuladi.Komponentlikni baxolashda 2 boskichli model mavjud:

Avvalambor inson nima bilan shugulanmokchi ekanligi aniklanadi keyin esa mazkur faoliyatda ular kaysi kompetentlik komponentlarini kursatishi aniklanadi.

Raven ilgari surgan kompetentlik modeli kompetentlik soxalaridan iborat bulgan uziga xos «xarita»ni ifodaydi, ular motivatsiyalik, irodalik va natijalilik komponentlaridan iboratdir.

J. Leboter «kompetensiya injeniriyasi» deb nomlangan nazariyani ishlab chiqdi va sistemlashtirdi. Leboterga muvofiq, kompetensiya bilimlarning yigindisi, ko'nikma, kobiliyat, oldingi vayangi tajribalarning biron bir faoliyatda kullanilishi kuzatiladi. Yevropa ta'lim fondining glossariysida bu terminga Umumiy mazmun berilgan:

Kompetentlik-biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ishni bajarishda talablarni qondira olish kobiliyati, aniq ishchi funksiyalarni bajarishda talablarni qondira olish qobiliyati.

Prie glossariysi xam shunga uxshash tushuntirish berib o'tadi:

Kompetentlik-biron bir ishni samarali qila olish qobiliyati, ma'lum bir kasbda kullaniladigan standartlar buyicha bajara olish qobiliyati. «Yevropadagi urta ta'lim» proekti doirasida tuzilgan mundarijasida (spisk) kursatilgan kalit kompetensiyalarini kurib chiqamiz:

O'rganish:

- tajribadan foydani undira olish;
- egallangan bilimlarning o'zarobog'liqligini tashkilashtirish va joylashtirish;
- o'z shaxsiy bilim qo'llashni tashkillashtirish;
- muammolarni xal eta olish ;
- uz xoxoshi buyicha ta'lim bilan shugullanishi;

Izlanish:

- turli xil ma'lumotlarni izlash;
- atrof dagilardan surash;
- ekspertlardan konsultatsiya olish;
- ma'lumotlarni olish;
- hujjatlar bilan ishlay olish va ularni klassifikatsiya qila olish;

O'ylamoq:

- Bo'lib o'tgan va xozir sodir bulayotgan voqea-xodisalarning o'zaro-bog'liqligini tashkillashtirish;
- jamiyat rivojlanishi jarayonining u yeki bu aspektiga tankidiy yendashish;
- qiyinchiliklarni yengish;
- baxs-munozalarda o'zining pozisiyasini egallash va uz shaxsiy fikriga ega bo'lish;
- uqish vash i jaraenida sodir bo'laetgan siyosiy va atrof muhit dagi muhim tomonlariga e'tibor berish;
- sog'lik va atrof-muhit bilan bog'liq bulgan sotsial ko'nikmalarni baxolash;

-san'at va adabiet durdonarini baxolash;

Xamkorlikda bulish

-guruxda ishla olish va xamkorlik kilish;

-karor kabul kila olish;

-konflikt va kelishmovchiliklarni bartaraf eta olish;

-kelishish;

-kontraktlarni tuzi shva bajarish;

Ishga kirishish

-loyixaga kirishish;

-javobgarlikni xis etish;

-gurux va kollektivgv kushilib, uz xissasini kushish;

-xamfikrlikni bildirish;

-uz ishini tashkillashtira olish;

-xisob-kitob asboblari bilan ishlay olish;

Ko'nikish

-Yangi informasion va kommunikasion texnologiyalarni kullay bilish;

-tez-tez sodir bulayotgan uzgarishlar oldida ixchamlikni isbotlash;

-kiyinchiliklar oldida uzining kuch - matonatini kursatish;

-yangi qarorlarni chiqarish;

Shunday kilib, kompetent yunaltirilgan ta'limnmng barcha yunalishlarida, shaxsning tajribasi, uning aktiv pozitsiyasi, faoliyatga tayyorgarlik darajasi, sotsialmadaniy jamiyat talabining roliga asosiy urgu beriladi.

Xodimlarni boshqarish masalalarini xal etishda kompetentlik tushunchasi

Inson resurslarini boshqarishda xodimlarni baxolashprofessioanl kompetentlikni baxolashni takozo etgan. Bugungi kundajamiyat uzgarib turadigan jarayonlar muxitida yashamokda. Uningasosiy xususiyatlari-xalkaro rakobat ta'sirining kuchayishi, texnologiya soxasidagi uzgarishlar, masofali ta'lim metodlariningrivoji va boshkalardir. Iktisodiy soxada xam, mijozlarning talablaridaxam keskin uzgarishlar ruy berayotgan davr bulib, xodimni baxolashniamalga oshirishda yangi talablarining vujudga kelishiga olib keldi.

Quyidagi kompetentlik turlari mavjud:

- Uzini tutish(individual)
- Texnik (pofessional)
- Umumiy
- Maxsus
- Boshlangich (porogovaya)
- Ijrochi
- Differensial

1.Uzini tutish (povedencheskaya) kompetentligi- uzining professional vazifalarini bajarish paytida insonning individualligini xarakterlovchi kompetentlik tushuniladi. U shaxslararo munosabat, boshqarish usuli (stili), taxlil qilish kobiliyati, maksadni egallashga yunaltilgan muljalni uz ichiga oladi. Bular «yumshok talablar» yoki «yumshok kompetensiyalar» deb yuritiladi.

2.Texnik (professional) kompetentlik- bu mehnat natijalari, professional majburiyatlarni bajarish standartlari bilan bevositab bog'liq bulgan kompetentlik tushuniladi. Bular «kattik talablar» yoki «kattik kompetensiyalar» deb yuritiladi.

3. Umumiy kompetentlik- ma'lum bir kasb bilan shugullanuvchi barcha insonlarni xarakterlovchi kompetentlik xisoblanadi. Masalan: menejment bilan shugullanuvchi insonlarni. Shu bilan birga insonning kaysi tashkilotda ishlayotgani yoki kaysi lavozimni egallagani muxim axamiyat kasb etmaydi.

4.Maxsus kompetentlik- anik professional majburiyatlarni samarali bajarish uchun kerak bulgan kompetentlik tushuniladi.

5. Boshlangich kompetentlik- topshirilgan professional vazifalarni bajarish uchun ishchiga zarur bulga asos, bazar kompetentlari tushuniladi.

6.Ijrochilik kompetentligi- erishilgan natijaning sifatini aniklashtiruvchi kompetentlikdir. Ch. Vudrafining fikriga kura, boshlang'ich va ijrochi kompetensiyalar urtasidagi farkni sezish kiyin. Buning uchun ma'lum darajadagi kompetentlik kerak buladi.

7.Differensial kompetentlik - u yoki bu darajada samarali ijrochilarni farqlashga yordam beradigan kompetentlik xisoblanadi. Buxildagi kompetentlik u yoki bu professional vazifani bajarish paytida uzini kanday tutishi kerakligi tasirlangan modellar tarzida mavjud buladi. Bu boshkaruvchi va professional vazifalarni bajaruvchi ijrochining roziligi bilan qo'llanilishi mumkin. Kompetensiya kirish, chiqish, jarayon sistemalarini xam ko'rib chiqadi.

Kompetensiyada kirish bu- shu guruxga mansub vazifani bajarish uchun real kobiliyat tushuniladi. Bu bilim, kobiliyat, munosabatlarni uz ichiga oladi. Bu kabi kompetensiya tugma yoki ta'lim olish, trening va professional tajriba moyinida egallangan kompetensiya bulishi mumkin.

Kompetensiyada chiqish bu – professional vazifani samarali xal eta olish kobiliyatini kursatadi. Bunda asosiy vazifa boshlangich natijani emas, balki eng samarali natijani baxolash xisoblanadi.

Kompetensiyada jarayon bu- kutilayotgan natija yoki maksadga erishish uchun egallangan bilim va ko'nikmalarni qo'llay olish imkonidir. Xodimni baxolash tugrisida suz yuritilganda, bunda «baxolash» suzini aniklashtirishga asosiy e'tibor beriladi. Kadrlarni tanlashdagi kompetentlik nuqtai nazaridan, mehnatning nakadars samaradorligini baxolash tushuniladi. Shuning uchun samaradorlik kriteriyalari asosida, mazkur samarali natijalarga erishish uchun muljallangan kompetensiyalarni egallagan mutaxassis modelini kurish kerak deb xisoblanadi.

Inson resurslarini rivojlantirish nuqtai nazaridan,

kompetentlik fakat mazkur tashkilotda talab qilinadigan kompetensiyalar talabi asosida bulajak mutaxassis modelini kurishninazarda tutadi.

Natijaviylik nuktai nazaridan, kompetentlik mexnat natijasamaradorligini baxolash («chiqish») bilan chegaralanib kolmay, balkixodim mazkur professional rolda uzining potensialini kay darajadaochib bera oldi, bu natijalarga kanday kanday yullar bilan erishildi,shu kabi savollarga javobni aniklaydi. Bu kabi kompteks baxolashxodimga bundan xam yukori natijaga erishish uchun tavsiyalar ishlabchiqishga yordam beradi.

Mehnatni rag'batlantirish nuqtai nazaridan, kompetensiya Konsepsiyasining rivojlanishi boshqarish tajribasida eng oxirgiyutuklardan biri xisoblanadi. Bu metodning maksadi mutaxassisningmalakali professional modelini tuzishdan iborat bulib, bunda ish xaqixodim kompetensiyasining rivojlanishibilan chambarchars bog'liqbuladi.

Professional kompetensiyani baxolash metodlarining prinsiplari

Professional kompetensiyani baxolash metodikasi eng avvalo,minimal xarakat, urinish bilan yukori natijalarga erishish ya'nisamaradorlikni kutarish bilan bog'liq. Ma'lum bir prinsiplarni rioya kilish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Nisbiy ravishdaularni 3 guruxga ajratish mumkin.

1)tashkiliy

2)ilmiy-metodik

3)etik

1.Tashkiliy prinsiplarishning optimalligiga yunaltirilgan bo'lib, partnerlar orasidagi vazifa va javobgarlik taqsimlanadi.

Yuridik xukuk prinsipi mexnat soxasidagi normativ xujjatlar, xukukiy aktlarga muvofik, ishni olib borishni nazarda tutadi.

Urinishlar koordinatsiyasi prinsipi kompetentliknibaxolashda ishtirok etgan barcha ishtirokchilarning (xodimlarnibaxolash buyicha mutaxassislar, kadrlar agentligi,tibbiyot va sotsialxizmatlari xodimlari va boshkalar) xamfikrligini nazarda tutadi.

Tomonlarning javobgarligi prinsipi- tomonlariningprofessional kompetensiyani baxolash ishlarini amalga oshirishdamajburiyatlarni amalga oshirish mexanizmlarini aniklashni nazardatutadi. Kabul kilinayotgan majburiyatlar tegishli xujjatlardakursatilgan bulishi kerak: protokollar, dasturlar, kelishuv bitimlarida.

Qabul qilingan kelishuv ustidan nazoratni urnatuvchitizimli prinsip- yukori sifatli ishning ta'minlanishning imkoniniberadi. Erishilgan natijalarning kuzatuvi xamda ishda vujudgakelayotgan muammolarning kuzatuv jarayonini nazarda tutadi.

2.Ilmi-medotik prnsipi-ishni anna xam asosli kilib, sifatlinatijalarni erishishga yerdam beradi. Professional kompetensiyani baxolash xodimlarining bashorat ishining baxosini oshiradi.

Tizimli prinsip xodimlarni tanlash yulida tizimli jaraenga xosbulgan yendashuvni taklif etadi. Bu uz navbatida mexnat bozoridasodir bulaetgan dinamik jaraenlarni inobatga olgan xolda modelniyaratishni kuzda tutadi.

Kompleks prinsipi kompetentlikni baxolash faoliyatini xartarafdan kurib chiqishni taklif kiladi. Bunda sotsial, iktisodiy, tibbiyot,psixologik, professional va boshqa tomonlar ajratib ko'rsatiladi.

Varianlilik prinsipi professional baxolash ishida standartlashmuximligini inkor etmagan xolda, stereotiplashdan kutilish imkoniniberadi. Bu yunalishning muximligi shundan iboratki, kompetentlikbaxolash jaraeniing kupkirraliligini xamda turli xil xarakteristika vatalablarni inobatga olishni takazo qiladi.

Bashoratlilik prinsipi professional loyixani amalga oshirishdagimuvoffakiyatni bashorat kilishni, bulajak raxbar va kollektiv bilanuzaro munosobatlarning xarakterini nazarda tutadi.

Maksadga muvofiklik prinsipi kompetentlik baxolash jarayoning optimalligini nazarda tutadi.

Individual-tipologik yondashuv prinsipi shaxslarningindividual- tipologik xarakteristikalarini ajratishning muximliginikursatishga asoslangan.

3.Etik prinsiplari kompetentlik baxolash ishi doirasiga kiruvchixizmatlarning sifatini ta'minlashga karatilgan. Bunda inson xuquqlariga rioya kilish, faoliyatning madaniyatini kutarish nazardatutiladi.Kuyidagilar etik prnsiplari orasida eng muximlari xisoblanadi:

Konfidensiallik prinsipi kompetentlik baxosini aniklashgamurojaat etgan mijozlarning ximoyasiga karatilgan bir kanchatalablarni bajarishga karatilgan.Kompetentlikni baxolash bilan bog'liqbulgan jaraenida katnashish uz xoxish irodasini bildirgan xoldaamalga oshirilgan bulishi kerak. Professional kompetensiyani baxolash buyicha mutaxassis mijoz xakidagi xama ma'lumotnituplashga intilishi kerak emas, balki fakat baxolashga ta'lukli bulganma'lumrtni tuplashi kerak.

Kompetentlik prinsipi eng muxim prinsiplardan biri xisoblanadi.Bu prinsipga muvofik, professional kompetentlikni baxolash buyicha

xama ish mazkur soxadagi oxirgi yutuklar bilan tanish bulgan ,maxsus tayerlangan malakali mutaxassislar tomonidan olib borilishikerak. Professional baxolash olib borietgan mutaxassis uz ishinmukammal bajarishi uchun boshka mutaxassislar bilan xamkorlik qilishi kerak bo'ladi.

Pozitivlik prinsipi butun faoliyatni shunday tarzda olib borishni taqozo kiladiki, bunda maksimal pozitiv natijaga erishilishi kerakbuladi. Pofessional baxolashni utaetgan shaxslarning individual xususiyatlarini inobatga oluvchi tomonlariga e'tiborni karatishninazarda tutadi(jinsi, yeshi, millati, sotsial- iqtisodiy mavke'i, diniva boshqalar).

Ishtirokchilarning manfaatlari va xurmatini inobatga olish

prinsipi- kompetentlikni baxolash bilan shugullanadiganmutuxassislarning faoliyati davomida tomonlarning bir biriga o'zaroxurmati nazarda tutiladi. Uzaro manfaatlarni aniklash, talab va taklifurtasidagi uzaro kelishuvni izlab, bundan xam samarali professionalloyixani yaratish yukoridagi prinsip asosida imkon topadi.

Nazorat savollari:

1. «Professional faoliyatda kompetentlik» tushunchasi nimani anglatadi?
2. Qanday kompetentlik turlari mavjud?
3. Kompetentlik nimani anglatadi?
4. Ch.Vudrafning fikriga kura ijrochilik kompetentligi qanday shakllanadi?
5. Professional kompetensiyani baxolash metodlarining prinsiplarini keltiring.

5-Mavzu : Bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligining invariantli tuzilmasi

Reja:

1. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi kasbiy kompetentligining Invariant.
2. Motivatsion komponent – ehtiyojlar.
3. Kompetentlik va kompetensiya o'zaro ichki-tashqi shartlar.

Tayanch so'zlar: professional kompetentligini baholash, kalit kompetensiyalari, hamkorlikda bo'lish, differensial kompetentlik.

«Invariant» tushunchasi fanda keng qo'llaniladi va biror bir narsaning berilgan shartlari o'zgarganda ham uning o'zi o'zgarasligini anglatadi. Matematikada invariant - deganda tarkibidagi o'zgaruvchilarni ma'lum shakl almashtirishlarda o'zgarmaydigan matematik ifoda (masalan, bir koordinata sistemasidan boshqasiga o'tish) tushuniladi.

Mos ravishda oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi kasbiy kompetentligining invarianti uning turkum komponentlari orasidagi mustahkam funksional bog'lanishlar tizimi, u biror bir mutaxassislik bitiruvchisining kasbiy kompetentligining turli ko'rinishlarida amalga oshirilishining asosiy xususiyatlarga to'plamiga ega.

Invariantning real mazmuni uning biror variantidan iborat. Shuning uchun

«invariant» tushunchasi invariantga nisbatan u yoki bu nisbatga har doim farqqiluvchi aniq ob'yekt tahlili me'yorini beruvchi biror nazariya hosil qilishdan iborat. Invariant va variativlik dialektikasini oddiy analogiya yordamida tasvirlash mumkin. Har bir inson o'z tuzilmasi bo'yicha tabiat tomonidan yaratilgan invariantdir, chunki u bosh, tana, qo'l, oyoqdan iborat. Ammo, Yerdabirorta ham boshqa insonga to'liq o'xshash bo'lgan inson yo'q, shu ma'nodabizning har birimiz variativmiz.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisida kompetentlikning invariantli tuzilmasining mavjudligi ushbu yangilikni shakllantirish uchun axborotli, ziddiyatsiz va qulay kompetensiyalar yordamida yoki kompetentlikni tavsiflash uchun yetarli asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Bu esa, barcha oliy

ta'limmuassasalarining faoliyatini umumlashtirish, tartiblashtirish va aniqlashtirishimkonini beradi.

Kompetentlikning invariantlarini ishlab chiqish va asoslash jarayonidabiz, shunday psixologik-pedagogik sharoitlar yaratilishi kerakki, unda talababilish va bo'lajak mehnat faoliyatining to'laqonli sub'yekti sifatida harakatqilishi kerak, ya'ni shaxs o'z kasbiy kompetentligini shakllantirish jarayonidamaqsadni qo'yish va uni amalga oshirishga qobiliyatli, ichki va tashqimotivlashgan faollik manbai sifatidan - degan fikrga asoslanamiz.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi faoliyatga intilsa (hohlaydi), ungatayyor bo'lsa (bajara oladi), o'z ishini mas'uliyatli va yuqori kasbiy darajadabajarsa (bajarmoqda) shu vaqtda, u kompetentli mutaxassis hisoblanadi. Demak, faoliyat sub'yekting kompetentligi quyidagi uchta tashkil etuvchi orqalitavsiflanadi: «hohlaydi», «bajara oladi», «bajarmoqda» .

Kompetentlikning «hohlaydi» tashkil etuvchisi individning faolligi vauning yo'naltirilganligini rag'batlantiruvchi ichki yoki tashqi sharoit vako'rsatmalar majmuasiga bog'liq bo'lgan shaxsning motivatsion sohasigabog'liq. Kompetentlikning «bajara oladi» tashkil etuvchisi sub'yekt ma'lumturdagi faoliyat uchun zarur va yetarli «uskunalar» ga egaligi bilan aniqlanadi.

Bularga quyidagilar kiradi: bilim, ko'nikma, malaka, tajriba, ma'lum holatda qanday harakat qilish haqida tasavvurga egalik, ushbu faoliyatga qobiliyatning mavjudligi, uning individual-psixologik xususiyatlari (asab tizimlarixususiyatlari, sog'ligi, yoshi va boshqalar) faoliyatni muvaffaqiyatli o'zlashtirish va uni yuqori darajada olib borish, muvaffaqiyatga erishish (1.2-rasm).

Kompetentlikning «bajarmoqda» tashkil etuvchisi o'qituvchi shaxsiy imkoniyati va faoliyatining amalga oshirilishini bir butunga birlashtiradi. Keng bilimlarga, shakllangan malakaga ega, mas'uliyatli hatti-harakatlarga tayyor bo'lib ham real holatda o'z psixik holatini boshqara olmasligi va o'z imkoniyatini amalga oshira olmasligi ham mumkin. Shu bilan birga o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmi shakllangan, ammo faoliyat uchun zarur bilimlar yokifaoliyat motivi mavjud bo'lmagan mutaxassisni ham kompetentli deb bo'lmaydi.

«bajara oladi»

«hohlaydi»

«bajarmoqda»

Faoliyat sub'yekti kompetentligining tashkil etuvchilari.

«Yaxshi bajaradi» tavsifida faoliyat sub'yekti kompetentligi sifatida ikkixil ma'no mavjud: «yaxshi» – sifatning yuqori darajasi va natijaliligini bildiradi; «yaxshi» – ijtimoiy yo'naltirilgan – o'z hatti-harakatlarining ijtimoiy natijalarini anglagan holda, ya'ni ma'suliyatli ma'nosini anglatadi. Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim bitiruvchisining kasbiy kompetentligi invariantini qadriyatli-ma'noli, motivatsion, individual-psixologik, uskunaviy, konativli komponentlardan iborat tuzilmali funksional tizim sifatida tavsiflash mumkin (1.3-rasm). Har birkomponent alohida kompetensiyalardan

iborat, ularning integrallashgan birligi -bu kompetentlik [36]. Ushbu holatni batafsil ko'rib chiqamiz. Qadriyatli-ma'noli komponent – kasbiy kompetentlik invariant tuzilmasida yetakchi hisoblanadi. Kompetentlik shaxsning integrallashgan yangiasosiy sifati, shaxsning o'zi esa – faoliyatning olib borilishi, sifati va natijalarigashaxsiy mas'uliyatini nazarda tutuvchi inson ijtimoiy sifatlaridan iborat.

Mas'uliyatli hatti-harakat asosida shaxsning umuminsoniy, milliy va kasbiy qadriyatlar («inson», «hayot», «oil», «jamiyat», «ta'lim», «tabiat», «mehnat»)ga ijobiy munosabati va ularga mos kompetentli harakati va urinishlarini tanlashyotadi.

Motivatsion komponent – ehtiyojlar, motivlar, yo'naltirilganlik, ma'lumkasbiy sohadagi mehnat faoliyati, ushbu faoliyatni takomillashtirishga intilish. Motivatsion komponent asosiy komponent, chunki usiz invariantning boshqabarcha komponentlari mavjud bo'lganda ham haqiqiy kompetentlik haqidagapirib bo'lmaydi.

Agar, talabada bilish motivi mavjud bo'lmasa, u holda mutaxassis(bakalavr, magistr) ni tayyorlash jarayonida bilish motivatsiyasini shakllantirishva uni kasbiy motivatsiyasiga ko'chirish muammosi paydo bo'ladi. Bundayko'chirishning psixologik-pedagogik qonuniyatlari kontekstli ta'limda N.A.Bakshayeva tomonidan o'rganilgan. Buning uchun an'anaviy yondoshuvgaqaraganda kompetentli yondoshuv qulay sharoitlar yaratishini ta'kidlash lozim. Individual-psixologik komponent – oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisishaxsining faoliyatni o'zlashtirish tezkorligi va uning muvaffaqiyatinianiqllovchi qobiliyati bilan birga kasbiy ahamiyatli sifatlaridan iborat. Ularningbarchasi kompetentlik invarianti rivojlanishining sharti va shu bilan birga,natijasi hamdir. Kasbiy ahamiyatli sifatlar – mehnat faoliyati sub'yektifaoliyatining yetarli darajada bajarilishi uchun zaruriy xususiyatlardir. Kasbiyahamiyatli sifatlar kasbiy invariantning boshqa komponentlari bilan birgamehnat faoliyatining muvaffaqiyati (samaradorlik, sifat, natijalilik) nita'minlaydi.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining kasbiy kompetentligiinvariantining uskunaviy komponentini umummadaniy va kasbiy bilim, malaka,ko'nikma va faoliyat tajribasi, qonun me'yorlari, qoidalar, me'yoriy talablar,an'analar bilan tasdiqlangan ishlab chiqarish vazifalari, huquqlar vamajburiyatlarni amalga oshirishga mutaxassisning kasbiy tayyorgarlik darajasiva ko'rinishlari tashkil etadi.

Konativli komponent (inglizcha conation - erkin harakatga qobiliyatli) – kasbiy faoliyat holatlarida mutaxassis kompetensiyalarini amalga oshirishmexanizmi (maqsadni tanlash, yechimni qabul qilish, mavjud sharoitlar tahliliasosida amallar dasturini tuzish, maqsadga erishish jarayonini tashkil etish, zarurbo'lganda uning natijalarni baholash asosida to'g'rilash). Uning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat: mutaxassisning kasbiy motivlari va qadriyatlimunosabatlarini amalga oshirishni, mutaxassis tomonidan bilim, malaka,tajribalarni samarali qo'llash, faoliyat jarayonini baholash, to'g'rilashnita'minlash, ular esa, o'z navbatida o'z-o'zini nazorat qilish mexanizminingshakllanganligini nazarda tutadi.

Kasbiy kompetentlikning invariantli tuzilmasining har bir komponentikonativ komponent bilan birga oliy ta'lim muassasasida shakllantirish zarurbo'lgan alohida kompetensiya sifatida ishtirok etadi. Bunday kompetensiyalarnikasbiy invariantga birlashtirish faoliyat sub'yekti amaliy harakat qila boshlaganvaqtda amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, konativni sub'yektning o'zfaoliyatini nazorat qilish mexanizmi sifatida qarash qayd etilgan barchakompetensiyalarni kasbiy kompetentlikning yagona invariantiga birlashtiradi.Bundan esa, «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarning farqlanishikelib chiqadi.

Kompetensiya mutaxassis potentsialli faolligining mazmunli-jarayonlitavsifidan iborat. Bu mehnat sub'yektining ma'lum dispozisiyasi, ya'ni uningmahsuldor faoliyatga tayyorligi va intilishi hisoblanadi. Kompetentlik esa,kompetensiyalarning amalga oshirilgan tizimi, ya'ni ishdagi muvaffaqiyat vauning natijalari uchun mas'uliyatni belgilovchi faoliyatda mutaxassis shaxsiningnamoyon bo'lgan integrallashgan tavsifi.

Kompetentlik va kompetensiya o'zaro ichki-tashqi shartlar bilan bog'liq.O'z-o'zini nazorat qilish mexanizmisiz, aniq vaziyatda safarbarliksizkompetensiya faqat imkoniyatlar, ammo amalga oshirilmagan faollik bo'libqolishi mumkin. Mos ravishda faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchikompetentlik haqida gapirish mumkin emas. Kasbiy vaziyatlarda o'z-o'ziniboshqarish va o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlarini rivojlantirish bitiruvchikasbiy kompetentligining barcha komponentlari harakatini belgilovchi omilsifatida ishtirok etadi.Demak, «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari oliy ta'limmuassasasi bitiruvchisining kasbiy faoliyati muvaffaqiyatini aniqlovchi kasbiyshaxsiysifatlarining tavsifidir, ularning farqi «kompetensiya» – potentsialli,«kompetentlik» – esa shaxsning real faoliyat holatida namoyon bo'lgan tavsifiekanligidir.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisini kompetentli deb hisoblash uchunqancha miqdordagi kompetensiya zarur? Bu savolga javobni shaxsningkompetentligi uning faoliyati orqali belgilanadi va uning asosi degan holatdankelib chiqqan holda izlash kerak. Bizning nuqtai nazarimizga ko'ra,kompetentlik tuzilmasiga beshta konativ bilan «zanjirlangan» kompetensiyalar,ya'ni konativ bilan birga kasbiy invariant komponentlari kiradi. Har birkompetensiya xususiy kompetensiyalarning chekli sonidan iborat bo'lib, ularkasbiy faoliyat mazmunining tahlili, mutaxassis tomonidan amalga oshiriladiganharakatlar, hal etiluvchi masalalar va muammolar orqali aniqlanadi.Kompetentlik faoliyatning aniq sohasida, aniq mutaxassislikda namoyonbo'ladi. Faoliyatning u yoki bu turi uchun talablar kompetentlik doirasiningchegaralanganligini va uning klasterlarga birlashtirilgan aniq turlarini ajratishninazarda tutadi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi o'z predmeti mazmuni, ungaqo'yilgan talablar, shartlar, shu bilan birga faoliyat olib borayotgan ijtimoiysharoitlar bilan tavsiflanuvchi aniq kasbiy faoliyat sub'yekti sifatidatayyorlanishi kerak.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining kompetentligi invariantlariga, biz,quyidagilarni kiritamiz: kasbiy kompetentlik (ma'lum kasbiy muhitdamuvaffaqiyatli mehnat qilishga tayyorlik, intilish) va ijtimoiy-

psixologikkompetentlik (o'zi va boshqalar bilan uyg'unlikda yashashga intilish vatayyorlik). O'z navbatida bu kompetentliklarning har biri barcha oliy ta'limmuassasasi bitiruvchilari uchun umumiy (bazaviy, asosiy) kompetentlik vama'lum kasbiy sohada muvaffaqiyatli mehnat faoliyati uchun zarur bo'ladiganmaxsus kompetentlikka ajratilishi mumkin.

Bitiruvchining umumiy kasbiy kompetentligi umumkasbiy bilim, malaka, ko'nikma, qobiliyat va tajribani, shuningdek, ularni kasblarning ma'lumguruhlarida (ilmiy-tadqiqot, loyihali-konstruktiv, ma'muriy-boshqaruv, ishlabchiqarish, pedagogik) faollashtirishga tayyorligini o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining kompetentligi kasbiy kompetentlik ijtimoiy-psixologik kompetentlik umumiy maxsus umumiy maxsus

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi kompetentligining invariantlari.

Maxsus kasbiy kompetentlik bitiruvchining kasbiy tayyorlik darajasi vaturi, unda kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan kasbiy kompetentliklarning mavjudligini o'z ichiga oladi.

Umumiy ijtimoiy-psixologik kompetentlik tarkibiga atrofdagilar bilan samarali o'zarota'sirda namoyon bo'lgan tayyorgarlik, intilish va qobiliyatlar,o'zini va boshqalarni dinamik psixik holat sharoitlarida tushunish, shaxslararomunosabatlar va ijtimoiy muhit sharoitlari kiradi.

Maxsus ijtimoiy-psixologik kompetentlik mazmunini mutaxassisning ma'lum mehnat faoliyati sharoitlarida samarali hamkorlik faoliyati va muloqotini ta'minlovchi shaxs sifatlari tashkil etadi.Mutaxassisning umumiy va maxsus ijtimoiy-psixologikkompetentliklarini tabaqalashtirish oson emas. Shu bilan birga, rahbar,o'qituvchi, quruvchi yoki muhandisning kommunikativ kompetentligi birbiridanmazmuni, sifatiy va miqdoriy tavsiflari bo'yicha farqlanishi tushunarli.Yuqorida qayd etilganlardan kelib chiqqan holda, oliy ta'lim muassasasibitiruvchisining kasbiy kompetentligi invariantini quyidagicha ta'riflaymiz:kasbiy kompetentlik invarianti - bu uning komponentlari orasidagi mustahkambog'lanishlar tizimi (qadriyatli-ma'noli, motivatsion, uskunaviy, individualpsixologikva konativli) bo'lib, kompetentlikning aniq turi – umumiy va maxsuskasbiy, umumiy va maxsus ijtimoiy-psixologik ko'rinishlarida amalgaoshirilishining asosiy belgilariga ega.

Mutaxassisning kompetentligi invariantlarini mazmunli to'ldirish

aniqlangan me'zonlarning aniq majmuasiga (tuzilmali va funkcionalli) tayanganholda amalga oshirilishi kerak.

Mutaxassis kasbiy kompetentligi invariantlarining shakllanganlik mezonlari

Mezon turlari	Kompetentlik mezonlari
Tuzilmali	1. Bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat tajribasi (kompetentlikning uskunaviy asosi). 2. Faoliyat motivlari. 3. Qobiliyatlar. 4. O'z-o'zini nazorat qilishga qobiliyatlilik
Funkcionalli	Faoliyatning jarayonli tavsiflari (sur'at, jadallik, hajm, taklif etilgan topshiriqlarni bajarishda sub'yekt tomonidan qo'llanilgan usullar va amallar). Faoliyatning natijaviy tavsiflari (belgilangan vaqt ichida maqsadli faoliyat natijalarining darajasi va sifati).

Kompetentlikning tuzilmali mezonlari bo'lib, bilim, ko'nikma, malaka, faoliyat, tajriba, shaxsning yo'naltirilganligi, faoliyat motivlari va qobiliyatlar hisoblanadi.

Funkcionalli mezonlariga faoliyatning jarayonli (jadallik, hajm, taklif etilgan topshiriqlarni bajarishda sub'yekt tomonidan qo'llanilgan usul va harakatlarning turlari) va natijali (me'yori belgilangan vaqt ichida faoliyat natijalar sifati) tavsiflari kiradi.

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligi tuzilmasi yuqori darajadagi umumlashtirilgan invariantlikka ega bo'lishi, ya'ni turli sanoq tizimida o'zgarishsizligi kerak. Bizning holda esa, bunday sanoq tizimi sifatida kasbiy faoliyat turlari ishtirok etishi mumkin. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchi va bo'lajak psixolog kompetentligi bir xil komponentlardan (motivatsion, uskunaviy, qadriyatli-ma'noli, individual-psixologik, konativli) iborat ekan. Kasbiy kompetentlik invariantlarini tadqiq qilish quyidagilarga imkon yaratadi:

- oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining kasbiy kompetentligini shaxsning kasbiy faoliyati muvaffaqiyati va sifatini, uning natijalariga

mas'uliyatnianiqlovchi, integrallashgan, faoliyatda namoyon bo'ladigan tavsifi sifatidaqarash;

- oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining kompetentligi tuzilmasini kompetentlikning umumiy va maxsus kasbiy, umumiy va maxsus ijtimoiypsixologikko'rinishlarida aniq amalga oshirilishining asosiy belgilarimajmuasiga ega bo'lgan kompetentlik asosiy komponentlari orasidagimustahkam funksional tizim sifatida aniqlash;

- kasbiy kompetentlik invariantining shakllanganligini baholash mezoni,ya'ni tuzilmali (motiv, qadriyatlar, bilim, ko'nikma, malaka, qobiliyat) vafunksionalli (jarayonli va natijali) faoliyat tavsiflari, invariant tuzilmasishakllanayotgan kompetensiyalarning keyingi tasnifi uchun tayanch to'plambo'lib xizmat qilishi mumkin;

- quyidagilar uchun sharoit yaratish: a) amaliyotchilar uchun tushunarli vaziddiyatlarsiz kompetensiyalarning to'liq to'plamini yaratish; b) umummadaniyva kasbiy kompetensiyalarning faoliyatli integrasiyasi; v) oliy ta'lim muassasasiDavlat ta'lim standartlariga mos hujjatlarni ishlab chiqish; g) kompetentliyondoshuvni amalga oshirish bo'yicha qabul qilingan loyihaviy yechimlarningumumiy «me'yori» ni aniqlash va shu bilan barcha oliy ta'lim muassasasio'qituvchilarining mehnatini tejash, umumlashtirish, tartiblash vamuvofiqlashtirish;

- oliy ta'lim muassasasida talabalarni kasbiy tayyorlashning aniqyo'nalishida kompetentli-yo'naltirilgan ta'lim jarayonining pedagogik modeliniloyihalash va tajribaviy tekshirishning maqsadli asosini ishlab chiqish uchunasos yaratish.

Mavzu: Bo'lajak o'qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlar

Reja:

1.Kompetentlikka yo'naltirilgan yondoshuv ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar.

2. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tayyorgarligi sifatini tahlil qilish uchun kompetentlik.

3.Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi.

Tayanch so'zlar: Kompetentlik, Kasbiy kompetentlik,

An'anaviy oliy ta'limda uning maqsadlari bitiruvchilar egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi bilan aniqlanadi. Bugungi kunda bunday yondoshuv yetarli bo'lmay qoldi. Zamonaviy jamiyatga keyinghayotga kirisha oladigan, oldida paydo bo'lgan har qanday hayotiy va kasbiy muammolarni amaliy hal eta oladigan mutaxassislar zarur. Bu esa, o'z navbatida, olingan bilim, ko'nikma va malakalarga hamda «kompetensiya», «kompetentlik» tushunchalari orqali izohlanuvchi, ta'limning zamonaviy maqsadlarini tushunishga ko'proq mos keladigan qandaydir qo'shimchasifatlarga bog'liq bo'lib, ularni pedagogik amaliyotga kiritish esa, ta'lim mazmuni va usullarini o'zgartirishni, ta'lim oluvchilar ta'lim yakuniga qadar va alohida predmetlarni o'rganishda egallashi lozim bo'lgan faoliyat turlarini aniqlashni talab etadi.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o'qituvchisidan yuqori madaniyat, chuqur ma'naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas'uliyatlilik, chuqur bilimga ega bo'lishi, o'z o'quvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o'z ustida ishlashga, kasbiy faollikka qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi. Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya'ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o'ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya'ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi. Oliy ta'lim muassasasida bitiruvchilarini tayyorlash sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri – kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishdir.

Erkin va faol fikrlash, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta'lim berish va tarbiyalashning yangi g'oya va texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi. Kasbiy kompetentli o'qituvchi birinchidan, o'quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta'lim oluvchilarni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, ikkinchidan, o'z kasbiy faoliyatida ijobiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi.

Respublikamizda, bugungi kunda, oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan modernizatsiyalash jarayoni va tub islohotlar bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan quyidagi ikki omil bilan shartlashilgan: 1) ta'limning «bakalavr magistr» ikki bosqichli tizimiga o'tish; 2) bo'lajak mutaxassisni kasbiy tayyorlash jarayoniga kompetentli yondoshuvni joriy etish. Qayd etilgan omillar orasida bo'lajak o'qituvchilarni, xususan matematika o'qituvchisini tayyorlashda ikkinchi yondoshuv asosiy rol o'ynaydi. Chunki, oliy ta'lim muassasasida ta'lim olish vaqtida talaba kompetentli yondoshuvni amalga oshirishning ob'yekti bo'lib

hisoblanadi. Boshqa tomondan esa, oliy ta'limmuassasasini tugatgandan so'ng uning oldida ushbu yondoshuvni maktabamaliyotida qo'llash masalasi turadi.

Oliy ta'lim tizimiga kompetentli yondoshuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi munosabatlarida jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Jumladan, «bilimli» yondoshuvda ta'lim maqsadi ta'lim oluvchidan har bir fandan alohida bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltiradigan bo'lsa, «kompetentli» yondoshuvda ta'lim oluvchida fanlar bo'yicha integrallashgan bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratiladi. Shunga ko'ra, oliy ta'lim muassasalarida ta'limni tashkil etishning mavjud shakllari bo'lgan ma'ruza, amaliy, seminar va laboratoriya mashg'ulotlarini mazmun jihatidan o'zgartirish nazarda tutiladi. Ma'ruza darslarining muammolita'lim shaklida, seminar darslarni kreativ tafakkurni va amaliy mashg'ulotlardatadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishligi maqsadgamuvofiq. Mustaqil ishlarni tashkil etishda individuallikka ahamiyat qaratish va ular hajmi jihatidan ko'proqni tashkil qilishi kerak.

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondoshuv ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalarning ham o'zgartirilishini taqozo etadi. Bilimlarni berishda kreativ pedagogik texnologiyaga o'tish talab etiladi. Kreativ pedagogik texnologiyada o'qituvchi tomonidan taqdim etilayotgan turli individual topshiriqlar ijodiy faoliyatga qaratilgan bo'lishi va ta'lim oluvchilarda har birtopshiriqni bajarishga ijodiy yondoshuvni talab qilsin. Bu texnologiya o'qituvchi o'z o'quv fani yuzasidan doimiy ijodiy izlanishga, ta'lim oluvchini esa, topshiriqlarni bajarishda faqat o'z bilim va ko'nikmalariga tayanish kerakligini o'rgatadi.

Ta'lim mazmuni, shakli, pedagogik texnologiyalarning o'zgarishlarini nazorat usullarini takomillashtirish kerakligini ham taqozo etadi. Jumladan, «bilimli» yondoshuv tizimida ta'lim oluvchini har bir fandan olgan bilim, malaka va ko'nikmalari nazorat qilinib, umumiy reyting bali o'zlashtirish ko'rsatkichi sifatida qo'llaniladi. Ta'lim oluvchining kompetentli darajasini aniqlashga qaratilgan «kompetentli» yondoshuvda, eng avvalo kompetentlikni aniqlash talab etilib, bu integrallashgan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniqlash degani. Ta'limda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishning yetakchi g'oyasishundan iboratki, bitiruvchilarda kompetensiyalar majmuasini shakllantirish ularegallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi bilan aniqlanuvchi oliy ta'lim muassasasiga an'anaviy bo'lgan maqsadga to'la qonlimos kelmaydi. Bu yondoshuv L.S. Grebnev, N.M. Rozina, S.A. Smirnova, A. Zimnyaya, N.V. Kuzmina, T.D. Makarova, Dj. Raven, N.A. Selezneva, Yu.G. Tatur, G. Xutmaxer, A.V. Xutorskiy, N.A. Muslimov va boshqalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tayyorgarligi sifatini tahlil qilish uchun kompetentlik bilan bog'liq mezonni tanlash shu bilan shartlashilganki, oliy ta'lim muassasasi uzoq mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan kasbiylashtirishni emas, balki bitiruvchining kasbiy tayyorgarligi

vakompetentligini ta'minlashi mumkin. Demak, kompetensiya ta'lim oluvchining ta'limiy (yoki kasbiy) tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan talablarga qaysidir darajada uzoqlikninazarda tutsa, kompetentlik esa, tayyor bo'lgan shaxsiy sifatlarni nazarda tutarekan.

Ushbu muammoni tadqiq qilishda, birinchi navbatda kasbiy kompetentliknima ekanligini, uning tuzilmasi va shakllanish sharoitlarini aniqlash zarur. Psixologo-pedagogik adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili «kasbiykompetentlik» tushunchasi ta'rifiga bir necha yondoshuvlar mavjudliginiko'rsatdi. Masalan, xorijiy tadqiqotchilar tomonidan bu tushuncha ko'pincha«chuqurlashtirilgan bilim», «harakatlarning samaradorligi» kabilar sifatidatalqin etilgan. Bizning nuqtai nazarimizcha esa, mutaxassis kompetentligi kasbiyfaoliyat davomida orttirilgan ijtimoiy-ahamiyatli va shaxsiy-ahamiyatlikompetensiyalar tizimidan iborat. Agar, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasihaqida so'z yuritilsa, u holda bu tushuncha mazmuniga pedagogik masalalarnimustaqil va yetarlicha samarali hal etish imkonini beruvchi o'qituvchi, tarbiyachi, pedagogning shaxsiy imkoniyatlari kiritiladi. U yoki bu pedagogicmasalalarni hal etish uchun pedagogik nazariya va uning qoidalarini amaldaqo'llay olish ko'nikmasi va tayyorgarlik zarur. Shu bilan birga yanao'qituvchining kasbiy kompetentligi uning mehnatida pedagogik faoliyat vapedagogik muloqotning turli tomondan shakllanganligidir. Turli davrlarda va turli mualliflarda turli xil ta'riflar uchraydi va ularquyidagilardan iborat: ma'lum mehnat faoliyati vazifalarini bajarish ko'nikmasiva qobiliyatiga egalik, psixik holat, ta'lim olish va umummadaniyat darajasi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga amaliy tayyorgarlik va nazariyaningbirligi. Bular esa, kasbiy kompetentlikni pedagog shaxsining psixologikpedagogikva fan sohasida bilimlarga egaligini, kasbiy ko'nikma va malakalari, shaxsiy tajribasini tavsiflovchi integrallashgan shaxsiy xususiyati sifatidaaniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga pedagog o'z faoliyati istiqbolinimaqsad qilgan, bilimlarini boyitishga intiluvchan, o'ziga ishongan va kasbiynatijalarga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur. Ba'zi bir tadqiqotchilar pedagogning kompetentligi tashkilotchilik, javobgarlik, mehnatsevarlik, maqsadga erishish, o'ziga ishonish kabi shaxsiysifatlarini o'z ichiga oladi - deb hisoblasa, boshqa birlari esa, kompetentliktuzilmasiga motivatsion-qadriyatli sohani ham kiritish zarur, chunki bu sohabilimlarga egalik darajasini aniqlaydi - deb hisoblaydi. Shunday qilib, kompetentlikning qayd etilgan tashkil etuvchilari insonning kasbiy faoliyatida, kasbiy muloqotida, o'z kasbining ustasi sifatida shakllanib yetishganliginianglatadi.

Bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining shakllanishi nafaqat o'quvpredmetlari ro'yxati, balki, fanni o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan kasbiyko'nikma va bilimlar, shuningdek, talabaning ijtimoiy, siyosiy va madaniyhayotdagi faol o'rnidan iborat ta'lim mazmuni orqali amalga oshiriladi. Buningbarchasi majmuaviy holda, bo'lajak pedagog shaxsini shunday tarbiyalaydiki, uo'z-o'zini rivojlantirish va o'z komilligi ustida ishlay olish usullariga egabo'ladi, bu esa, o'z vaqtida pedagogga «inson-inson» tizimida kasb ustasi -sub'yekti sifatida samarali faoliyatni ta'minlaydi. Bugungi kun talablariga

javob bera oladigan, zaruriy sifatlar, bilim vako'nikmalarga ega kompetentli mutaxassisni tayyorlash ilmiy asoslangan moso'qitish tizimini yaratmasdan mumkin emas. Mutaxassisning kompetentligini ta'riflashga turlicha yondoshuvlar mavjud. Masalan, N.F. Talizinaning nuqtai nazaricha, u uchta asosiy tarkibiy qismlarga (sifatlar, bilimlar, ko'nikmalar) mos kelishi kerak. Ularga quyidagilar kiradi: Sifatlar: ishga munosabatni ifodalovchi: mehnatsevarlik, e'tiborlilik, ijodiy yondoshuv; hatti-harakat va faoliyatning umumiy ma'romini tavsiflovchi: ijrochilik, mustaqillik, so'ziga sodiqlik, obro'lilik, faollik va shijoatlilik; aqliy qobiliyatlar: egiluvchanlik, zukkolik, uzoqni ko'ra bilishlik; ma'muriy-tashkiliy: ish muhitini yaratish ko'nikmasi, insonlarga rahbarlik qilish ko'nikmasi, jamoani himoya qilish, insonlarni farqlay olish, ularni ishonтира olish ko'nikmasi; insonlarga munosabatni tavsiflovchi: rostgo'ylik, tarbiyalilik; o'zigamunosabatni tavsiflovchi: talabchanlik, kamtarlik, dadillik, mukammallik. Bilimlar: o'z mutaxassisligi bo'yicha kasbiy, umummadaniyat, kasbiy faoliyat haqida ma'lumotlilik. Ko'nikmalar: qo'yilgan masalalarni yechish, adabiyotlar bilan ishlash, faoliyatni rejalashtirish [109]. Bu ro'yxat faoliyat turiga qarab to'ldirilishi yoki qisqartirilishi mumkin.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining quyidagi asosiy kompetensiyalari ajratiladi: o'quv-bilish, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy-foydali, shaxsiy o'zo'zini takomillashtirish. Bularning barchasi bitiruvchiga kasbiy bilim, ko'nikma va keyingi hayotda faoliyat usullari majmuasini ongli ravishda qo'llash imkonini beradi.

Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi, shuning uchun uning tasniflanishi eng avvalo, faoliyat tasnifiga mos bo'lishi kerak. Umumiy holda bular mehnat, o'quv, o'yin va kommunikativ kompetentliklar. Bularga yana quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin:

- kompetentlikni faoliyatning yo'naltirilgan ob'yekti bo'yicha tasniflash, u «inson-inson», «inson-texnika», «inson-badiiy obraz», «inson-tabiati», «inson belgilitizimi» sohalarida kompetentlikni beradi;
- kasblarning alohida sinflari va guruhlari sohasidagi kasbiy kompetentlik;
- aniq faoliyat (mutaxassislik) dagi predmetli kompetentlik.

Jamiyatning turli sohalarida esa quyidagi maxsus kompetentliklar ham talab etiladi: maishiy xizmat sohasida, san'at sohasida, sport sohasida va boshqalar. «Bilimlilik» tavsiflari ham kompetentlikka kiradi va ijtimoiy bilimlar sohasi (matematika, fizika, gumanitar fanlar, biologiya va boshqa fanlar sohasida kompetentlik), ishlab chiqarish sohalar (energetika, transport, aloqa, mudofaa, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar) bo'yicha tasniflanadi. Psixologik tavsif sifatida kompetentlik tushunchasi nafaqat kognitiv (bilimlar) va operatsion-texnologik (faoliyatli), balki motivatsion-etik, ijtimoiy va ahloqiy tashkil etuvchilarni ham o'z ichiga oladi.

Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo'lganligi uchun ularning har biri o'z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobiliyatlar eng umumiy ko'rinishlari bilan kompetensiyaning jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi, umumiy o'quv, amaliy, ijrochilik, ijodiylik, badiiy, texnik, shu bilan birga pedagogik-psixologik,

ijtimoiy va boshqa ko'nikmalariga mos keladi. Ijtimoiy rivojlanishi va maqomi pog'onalari bo'yicha kompetentlikni quyidagi turlarga ajratish mumkin: bolaning maktabga tayyorgarligi; bitiruvchining kompetentligi; yosh mutaxassisning kompetentligi; ish stajiga egamutaxassisning kompetentligi.

Mutaxassisning kompetentlik modeli, bitiruvchi modeli emas, chunki kompetentlik, talaba ta'lim muassasasida ta'lim olishi davomida kerakli hajmda egallay olmaydigan muvaffaqiyatli faoliyat tajribasi bilan uzluksiz bog'liq. Darslarda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi, rolli, imitasi o'yinlarni ijodiy mustaqil ishlarda, rejalarni ishlab chiqishda qo'llashni kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak pedagog kompetentligining muhim qadriyatli ma'noli komponentini shakllantirish zarur.

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat:

- 1) tashkiliy-boshqaruvchanlik (o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, darsjadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini moddiy-texnik ta'minlash);
- 2) o'quv-uslubiy (mashg'ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integrasiyasi, yetakchi g'oyalarni ajratish);
- 3) texnologik (nazorat-baholash, o'qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash);
- 4) psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o'qitishga motivatsiyani rag'batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yo'llash).

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko'nikmalari orqali, ko'nikmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yo'naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi. V.A. Slavenin barcha pedagogik ko'nikmalarni quyidagi to'rtta guruhga birlashtirgan:

- ob'yektiv pedagogik faoliyat, tarbiyalashning ob'yektiv jarayonini aniq pedagogik masalalarga «o'tkazish»ni bilish;
- mantiqan yakunlangan pedagogik tizimni qurish va amalga oshirishni bilish (ta'lim-tarbiya masalalarini rejalashtirish, ta'lim jarayonining mazmuni, usullari, tashkil etish vositalari, shakllarini tanlash);
- pedagogik faoliyat natijalarini e'tiborga olish va baholashni bilish, ya'ni ta'lim jarayoni va o'qituvchi faoliyati natijalarini tahlil qila olish;
- tarbiyaning turli komponentlari va omillari orasida o'zarobog'lanishlarni ajratish va o'rnatishni bilish [103].

O'qituvchining nazariy tayyorgarligining mazmuni ko'p hollarda psixologik-pedagogik va maxsus bilimlar majmuasi sifatida tushuniladi. Ammo, maqsad - faqat bilimlarni shakllantirishdan iborat emas.

O'qituvchi tajribasi tuzilmasida ortiqcha yuk bo'lib hisoblangan va birtizimga keltirilmagan bilimlar hech kimga kerak bo'lmagan narsa bo'lib qoladi. Shuning uchun ham nazariy tayyorgarlikning shakllariga e'tibor qaratish

zarur. Bunday nazariy faoliyat o'qituvchida analitik, bashorat qilish, loyihalash varefleksiv ko'nikmalar mavjudligini nazarda tutuvchi pedagogik fikrlashni umumlashgan holda bilishda namoyon bo'luvchi faoliyatdir. Analitik ko'nikmalar quyidagi bir qator xususiy ko'nikmalardan iborat: pedagogik hodisalarni tahlil qilish, ya'ni ularni asosiy elementlarga ajratish (shartlar, omillar, namoyon bo'lish shakllari va boshqalar); pedagogic hodisalarni to'g'ri tashxislash; joriy pedagogik masalani ta'riflash; masalani yechish uchun optimal usullarni topish. Bashorat qilish ko'nikmasi ta'lim jarayonini boshqarish bilan bog'liq vaboshqarish sub'yekti, uning faoliyatining maqsadi haqida o'qituvchining ongida quyidagi aniq tasavvurlar mavjud bo'lishini nazarda tutadi: ta'lim maqsadlari va vazifalarini shakllantirish; ularga erishish usullarini tanlash; mumkin bo'lgan cheklanishlarni, o'zaro hodisalarni oldindan ko'ra bilish va ularni bartaraf etish usullarini tanlash; ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro hamkorligi mazmunini rejalashtirish.

Bashorat qilish ob'yektiga ko'ra, bashorat qilish ko'nikmalarini quyidagi uchta guruhga birlashtirish mumkin: jamoa rivojlanishini (uning tuzilish dinamikasi, o'zaro munosabatlar tizimining rivojlanishi, faollar va alohida olingan ta'lim oluvchining o'zaro munosabatlar tizimida o'zgarishi vaboshqalar) bashorat qilish; shaxs rivojlanishini (uning shaxsiy-ishbilarmonlik sifatleri, hissiyotleri, irodasi va ahloqi, shaxs rivojlanishida mumkin bo'lgan cheklanishlar, tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatishdagi qiyinchiliklar va boshqalar) bashorat qilish; pedagogik jarayonni (o'quv materialining ta'lim, tarbiya va rivojlantiruvchi imkoniyatlari, talabalarning ta'lim olish va faoliyatning boshqa turlarida qiyinalishi, ta'lim berish vatarbiyalashning u yoki bu usullari, yo'llari va vositalarini qo'llash natijalari vaboshqalar) bashorat qilish.

Loyihalash ko'nikmalari ta'lim jarayoni loyihasini ishlab chiqish sifatida amalga oshiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi: ta'lim va tarbiya chegaralarini aniqlashtirish; ularni bosqichma-bosqich amalga oshirish usullarini asoslash; ta'lim jarayoni ishtirokchilarining talabi va qiziqishlarini, moddiy texnika bazasi imkoniyatlarini, shaxsiy tajriba va shaxsiy-ishbilarmonlik sifatleri e'tiborga olib, ularning faoliyat turlari va mazmunlarini rivojlantirish; talabalar bilan ularning qobiliyatlari, ijodiy imkoniyatlari va iste'dodlari rivojlanishida mavjud kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida individual ishlarni rejalashtirish; pedagogik jarayonning shakli, usuli va vositalarini hamohanglikda tanlash; talabalarning faolligini rag'batlantirish va ularning hulkidagi salbiy holatlarni yo'qotishni rejalashtirish; ota-onalar va jamoat tashkilotlari bilan aloqa bog'lash va tarbiyaviy muhitni shakllantirishni rejalashtirish.

Refleksiv ko'nikmalar pedagog tomonidan nazorat-baholash faoliyatini amalga oshirishda zarur va u quyidagilarni nazarda tutadi: olingan natijalarni berilgan namunalar bilan moslashtirish asosida nazorat; faqat aqliy faoliyatda bajarilishi nazarda tutilgan harakatlar natijalari asosida nazorat; bajarilgan amallarning tayyor natijalari asosida nazorat.

Refleksiya nazariy faoliyatning shaxsiy harakatlarini anglash va tahlil qilishga yo'naltirilgan maxsus shakli sifatida tushuniladi. O'qituvchi uchun olingan natijalar qay darajada (ijobiy yoki salbiy) uning faoliyat vositalariekkanligini aniqlash juda muhimdir.

Refleksiya - bu amalga oshirilgan faoliyat, tafakkur, muloqot va bu faoliyat davomida insonning o'z psixologik holatini tahlil qilishi, anglashi, maqsadlari harakatlari, his-tuyg'ularini muvofiqlashtirishi jarayonidan iborat. O'qituvchining amaliy tayyorgarligi tashqi ko'nikmalarda, ya'ni kuzatish mumkin bo'lgan harakatlarda ifodalanadi. Ular qatoriga tashkiliy va kommunikativ ko'nikmalar ham kiradi. O'qituvchining tashkilotchilik faoliyatida ta'lim oluvchilarni faoliyatning turli ko'rinishlariga jalb etish va uni tarbiya ob'yektidan sub'yektiga aylantiruvchi faoliyatni tashkil etishdan iborat. Tashkilotchilik ko'nikmalarga umumiy pedagogik ko'nikmalar sifatida safarbarlik, axborotlashtiruvchi, rivojlantiruvchi va yo'naltirilgan bilimlar kiradi.

O'qituvchining safarbarlik ko'nikmalari quyidagilarni nazarda tutadi: talabalarning e'tiborini jalb qilish va ularda ta'lim olishga qiziqishni rivojlantirish; ularda bilimga ehtiyojni shakllantirish; ilmiy ko'nikmalarni shakllantirish va o'quv jarayonini ilmiy tashkil etish yo'llarini o'rgatish; o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan yoki behosdan sodir bo'lgan muammoli holatlarda maktab, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlari da olgan bilimlarini qo'llash va o'z hayotiy tajribasiga tayangan holda atrofdagi olam hodisalariga ta'lim oluvchining faol, mustaqil va ijodiy munosabatlarini shakllantirish, rag'batlantirish va jazolash usullari tizimini ongli qo'llash.

Axborot bilan ishlash ko'nikmalari nafaqat o'quv axborotini bevositabayon qilish, balki uni olish va qayta ishlash usullari bilan ham bog'liq. Ungachop etilgan va bibliografik manbalar bilan ishlash, boshqa manbalardan axborotni olish va uni ta'lim jarayoni maqsadlari va vazifalariga mos holda qayta ishlash ko'nikmalari kiradi. Ta'lim berish davrida axborot bilan ishlash ko'nikmalari quyidagi qobiliyatlarda namoyon bo'ladi:

- o'quv materialini fan xususiyatlari, talabalarning tayyorgarlik darajasi, hayotiy tajribasi va yoshini e'tiborga olgan holda tushunarli tarzda bayon etish;
- o'quv axborotini uzatishning turli usullari va ularning mosligi, ya'ni materialni aytib berish, tushuntirish, suhbat, muammoni induktiv va deduktiv bayon qilishlarni e'tiborga olgan holda o'quv materialini uzatish jarayonini mantiqiy to'g'ri tuzish;
- savollarni tushunarli va to'g'ri ta'riflash;
- talabalar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish darajasini va tavsifini tekshirish. Rivojlantiruvchi ko'nikmalar quyidagilarni nazarda tutadi:
- alohida talabaning yoki butun guruhning «yaqin rivojlanish zonasi» ni aniqlash;
- talabalarning bilish jarayonlari, hissiyotlari va idroklarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar va boshqa sharoitlarni yaratish;
- bilish mustaqilligi va ijodiy fikrlashini rag'batlantirish, mantiqiy (xususiyni umumiyga va boshqalar) va funksional (sabab-natija, maqsad vositalar, sifat-sonlar, harakat-natijalar) munosabatlarni o'rnatish zaruriyati;

- individual xususiyatlarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu maqsadda individual yondoshuvni amalga oshirish.

Mo'ljalli ko'nikmalar talabalarning ma'naviy va ilmiy dunyoqarashlarinishakllantirishga, o'quv faoliyati va fanga mustahkam qiziqishini rivojlantirishga, ta'lim oluvchilarning shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos kasbiyfaoliyatga, shaxsning ijtimoiy ahamiyatli sifatlarini maqsad qilib olgan hamkorliijodiy faoliyatni tashkil etishga yo'naltirilgan. Talabani kommunikativ ko'nikmalari o'zaro bog'liq perseptiv bilimlarga, xususan, muloqot ko'nikmalari, pedagogik malakalari va ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Perseptiv ko'nikmalar muloqotning boshlang'ich bosqichida paydo bo'lib, umumiy ko'nikmaga, ya'ni boshqalarni (talabalarni, o'qituvchilarni, ota-onalarni) tushunishga o'tadi. Buning uchun esa, boshqa shaxsning ideallari, ehtiyojlari va qiziqishlarini bilishi shart. Bundan tashqari talabada o'zi haqidagi mavjud tasavvurlarni, ya'ni u nimani o'ziga xos deb hisoblashini va nimalarga qarshilik qilishini bilishi kerak. V.L. Slavenin perseptiv ko'nikmalar majmuasini quyidagilar orqali ifodalaydi:

- hamkorlik faoliyati davomida sherigi bilan muloqot qilish natijasida olinadigan axborot va signallarni qabul qilish va uni qo'llash;
- boshqa insonlarning shaxsini chuqur o'rganib chiqish;
- shaxsning individual o'ziga xosligini o'rnatish;
- shaxsning tashqi tavsiflari va hatti-harakatini tezkor baholash asosida uning ichki dunyosini, yo'naltirilganligini va insonning kelajakdagi harakatlarini aniqlash;
- shaxsning qaysi turga va qaysi temperamentga munosib ekanligini aniqlash;
- unchalik ju'ziy bo'lmagan belgilar bo'yicha hayajon xarakterini, insonholatini, uning u yoki bu hodisalarga bog'liq yoki bog'liq emasligini bilib olish;
- insonning harakatlari va boshqa alomatlarida uning boshqalardan ham o'zidan ham farqli xususiyatlarini topish;
- boshqa insonlarning muhim jihatlarini ko'rish, uning ijtimoiy boylklarga munosabatini to'g'ri aniqlash, insonlarning hatti-harakatlarida o'rganilayotgan «o'zgartirishlar» ni hisobga olish, boshqa insonni o'rganishining o'ziga xosligi (ideallashtirish va boshqalar).

Pedagogik muloqot ko'nikmalari «kommunikativ hujum», - deb nomlanuvchi harakatlarni amalga oshirish bilan bog'liq, ya'ni o'ziga e'tiborni quyidagi to'rtta usul bilan jalb etadi:

- nutqli (ta'lim oluvchilarga verbal murojaat);
- faol ichki muloqot bilan jimlik (e'tiborni talab etish bilan);
- harakatli-belgili (jadvallar, ko'rgazmali qurollarni osish, doskada yozish va boshqalar);
- avvalgi uchta usul elementlaridan iborat aralash usul. Pedagogik texnika quyidagi bilim va ko'nikmalardan iborat:
- talabalar bilan muloqotda to'g'ri yo'l va ohangni tanlash;
- ularning e'tiborini tortish;

- suhbatdoshini o'ziga jalb etish;
- ma'lumotni obrazli uzatish va boshqalar.

Pedagogik faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchiquyidagi amaliy ko'nikmalar guruhlaridan biriga ega bo'lishi juda muhimhisoblanadi: badiiy (kuylash, rasm chizish, musiqa asboblariidan foydalanish vaboshqalar); har kim ega bo'la oladigan tashkilotchilik (masalan, bir yoki birnecha sport turlari bo'yicha trener, turizm bo'yicha yo'riqchi, sayohatchi,to'garak rahbari).

Kasbiy kompetentlik tizimini shakllantirish holati, sifat va miqdoriyjiatidan o'zgarishlar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lish uchun axborotsharoitlarini yaratish sifatida pedagogik monitoring xizmat qilishi mumkin.Pedagogik monitoring talabaning shaxsi haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishmaqsadida sosiologik, psixologik va bajaruvchilik monitoringini birlashtiradi.Talabaning shaxsini o'rganishga bunday majmuali yondoshuv, avvalambor,mavjud real o'quv imkoniyatlarni, ya'ni ta'lim olganlik darajasi, o'qitilishi,bilish va shaxsiy qiziqishlar, o'qish ma'nosi va sust o'zlashtirishning didaktiksabablarini o'rganish, talabalar va pedagoglarning ta'lim jarayoni bilan qoniqishdarajasi, ta'lim oluvchilarning emotsional holati, o'zaro munosabatlar xarakteriva boshqalarni amalga oshirishga yo'naltiriladi.

6-ma'ruza

Mavzu. Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholashning shakl, metod va vositalari

Reja:

- 1.Kasbiy-psixologik baholash, mijozni kutish va uning talabini belgilash.
- 2.Qobilyatni baholashda kasbi ypsixologik portretndan foydalanish bo'yicha malakalarini shakllantiris.
3. Talabgorning kasbiy-psixologik portreti tarkibi.

Tayanch so'zlar: baholash, ekstravert, intravert, mijozni kutish, qobilyatni baholash, meta-qobilyat

Javobgarlilik, yaratuvchanlik va tashkilotchilik kabi bir qatoruniversal muhim kasbiy sifatlar mavjud. Lekin muayyan kasb vadaraja uchun mutaxassislik sifati talab etiladi. Shuning ko'plab yirikkompaniyalarda shaxsning kasbiy hulq-atvori standartlari va asosiytalablari mavjud. Bu talablarga shaxsning muvofiqligini ko'rib chiqishva nazorat qilish menejerning shaxs bilan ishlash vazifasi hisoblanadi.

Xulosa nomzodlarning talab etilayotgan lavozingamuvofiqligiga, ularning kuchli-kuchsiz tomonlariga javob berishikerak. Xulosaning grammatik tili to'g'ri, ilmiy terminlardan iborat vatushunarli bo'lishi kerak. Konsultant o'z tadqiqoti natijasida qo'lgakiritgan yakuniy xulosani qisqacha "ha" yoki "yo'q" tahlili asosidanomzod faydali imkoniyatlarining ta'siri va uning "xavfli zona"sihaqida yozma xulosa beradi. Xulosa yasash maqsadida o'z nuqtainazarimizdataalabgor haqidagi ma'lumotlar blokini ko'rib chiqamiz.

Mijozni kutish va uning talabini belgilash. Konsultant buhaqdagi ma'lumotlarni mijoz bilan birinchi uchrashuvdayoq qo'lgakiritadi. Ma'lumot to'liq va ishonchliroq bo'lishi va kompetentnostnibaholashda qiyinchilik tug'dirmasligi uchun talabgor bilan qandayaloqa o'rnatishni hisobga olish zarur. O'zaro suhbat va kompetentnostnibaholash jarayoni ko'pincha mijoz uchun yangi va notanish holathisoblanadi. Birinchi uchrashuvdayoq kompetentnosni baholashtexnologiyasining mohiyatini mijozga ochib berish kerak, u ishningmazmun-mohiyatini yaxshilab tushunib olishi lozim. Bu bosqichdakonsultant nafaqat mijozning vaziyatga moslashishiga yordam beradi,balki mijoz bilan birgalikda baholashnig mazmunini shakllantirib, unibirgalikda amalga oshirishni mo'ljallaydi va kasbiy rejanishakllantirishda mijozga zarur bo'lgan yordamni muhokama qiladi.

Shu yerda proektning dastlabki g'oyasi ayon bo'ladi, insongaqanday tavsif berishadi, o'z maqsadini amalga oshirish yo'lini qandayifodalaydi. Bu bosqichda vaziyatni baholashdagi to'g'rilik vahaqqoniylilikda har ikki tomon pozitsiyasini birxillashtirish muhimhisoblanadi.

Qobilyatni baholashning maqsadi. Baholash o'z-o'zini anglash,o'z imkoniyatlari va mahoratini kengaytirish, ma'lumotga ega bo'lish,mahoratni o'stirishda muvaffaqiyatga erishish yo'lini qayta ishlabchiqish va muayyan lavozimni egallash maqsadida o'tkaziladi.

Ma'lumoti. Talabgor bitirgan oliy ta'lim muassasalari ro'yxati vabuning natijasida egallangan mutaxassislik. Talabgor o'qishni qachontamomlagan va egallagan mutaxassisligi bo'yicha faoliyat bilan qanchashug'ullangan. Mijoz uchun ko'rsatilgan mutaxassisliklar kasbiy rejanibajarishda qanchalik muhim.Agar mijoz faqatgina umumiy ma'lumotga ega bo'lsa, undaquyidagilarni bilib olish mumkin: qaysi maktab, qanday mutaxassislikbo'yicha o'qigan, nega bu sohani tanladi, mukammal mutaxassislikniegallashgas imkon bo'lganmi, nimaga oxirigacha o'qimagan, maktabdaqaysi fanlarni yoqtirgan, o'qishda nima qiyinchilik tug'dirgan vanimada muvaffaqiyatga erishgan.

Boshlang'ich kasbiy ma'lumot: talabgor tamomlagan ta'limmuassasasi; mutaxassislik,darajasi. Amaliy mashg'ulotlarda kattaroqdarajaga erishishda qaysi fan ko'proq yoqqan, ishlab chiqarishamaliyotini qayerda va qancha muddat o'tagan.O'rta mutaxassislik ma'lumoti: ta'lim muassasasini tamomlagandanso'ngi mutxassisligi, mahorati; to'liov pulli bo'lganmi, o'qishgakirishdan avval mutaxasiligi bo'lganmi, nega bu mutaxassisliknitaneladi, ma'lumoti bilan bog'liq asosiy muvaffaqiyatlari, ilmiyyo'nalishi, yutuqlari, diplom va kurs ishlari mavzusi, qayerda vaqancha vaqt ishlab chiqarish amaliyotini o'tagan.Oliy ma'lumot: qaysi o'quv yurtini tamomlagan, qanchalikmuvaffaqiyatli, kasbni qanday tanlagan, o'qish pulli bolganmi yokiyo'q, o'qishni tamomlagach egallagan mutaxassisligi va mahorati,ilmiy yo'nalishi, yutuqlari, diplom va kurs ishlari mavzusi, qayerda vaqancha vaqt ishlab chiqarish amaliyotini o'tagan.Ikkinchi oliy ma'lumoti: nega ikkinchi ma'lumotni olish zaruratitug'ildi,bu ma'lumot birinchisini to'ldirishga qanchalar asqotadi.Qo'shimcha ma'lumot: kursda o'qishni davom ettiruvchanligiqanday,nega ularni tugatish zarurati paydo bo'ldi, ular qanday bilim

vako'nikma berdi, kasbiy faoliyatda bu bilimlar qanday naf keltiradi, kursdagi o'qish faoliyatga o'tishda turtki bo'ldimi.

Ish tajribasi. Mashg'ul bo'lgan faoliyat turlari ro'yxati, jumladan bu faoliyat turi bilan bog'liq bo'lgan umumiy majburiyatlar vajavobgarlik. Ishchilar va rahbarlar uchun lavozimning nomi, firmaning nomi, lavozimni egallab turgan muddati, javobgarligi va lavozim majburiyatlari. Bizning nazarimizda talabgor bilan uning mehnat faoliyati davomida erishgan yutuqlarini muhokama qilish uchun vaqt ajratib berish muhimdir.

Qobilyatni baholash jarayonida mijoz o'z kasbiy hayotida nimaga tayanayotganligini anglash juda muhimdir. Ko'p hollarda mijozning kasbiy rejasi uning bu kasb bilan shug'ullanish jarayonida egallangan bilim, malaka va ko'nikmalariga asoslanmaydi. Kundalik hayot yoki hobbi ham tajriba mahoratni berishi mumkin. Konsultant mijoz hayotini har tomonlama tahlil qilishi, uning haqiqiy malaka, ko'nikma va barcha imkoniyatlarini to'liq anglab yetishi lozim.

Muhim kasbiy sifatlarni rivojlantirish darajasi. Bunday ma'lumotlarni konsultant qobilyatni baholashining turli metodlarini qo'llash va tashxis bosqichi natijalari asosida qo'lga kiritadi. Ijodiy imkoniyati (intelektual va bilim salohiyati), umumiy intellektual darajasi qanday, mantiqiy fikrlash qobilyati, analitik, abstrakt yoki konkret. Intelektual faoliyatining har tomonlama rivojlanishidan omurtasizlik bormi, aqliy faoliyatining tezligi qanday va boshqa dinamik xarakterlari. Intelektual faoliyatni yo'lga qo'yishlik bilan ajralib turadimi, emotsional tafakkur mahsuliga ta'siri qanday, kutilmagan vaziyatda qaror qila oladimi, zaruriy qarorni qabul qila oladimi. Uning kasbiy faoliyati doirasidan tashqarida bo'lgan voqealarga salohiyat bilan munosabat o'rnatib oladimi, voqealar rivojini prognoz qila oladimi, ijodiy tasavvuri qanday, tanqidiy qarashlari qay darajada, o'z qobilyatini real baholay oladimi, qayta baholaydimi yoki ularni kam baholaydimi.

Meta-qobilyat (hamkorlikka qobilyati, moslashuvchanligi, o'qituvchiligi, yetukligi). Motivatsiya-baholash sferasi: qanday asosiy ehtiyojlar inson hayotini "harakatlantiradi", o'z hulq-atvorida bu ehtiyojlar qanday ifodalangan, mijoz shuhratparastmi, "hokimiyat"ga chanqoqmi, o'zini ustun tutadimi, bu inson uzoqni ko'zlab ish tutadimi yoki uning hatti harakati ayni vaqtga bog'liqmi.

Vaziyatni tahlil, tashxis qilish va faoliyat istiqbolini baholash.

Ishning bu qismi mijoz imkoniyati rivojlanishini qay darajada ko'ribchiqa olish haqida xulosa qilishga qaratiladi. Chunki uning o'tmishi va buguni kasbiy rejaning muvaffaqiyatli amalga oshishiga asos bo'ladi. Rejani amalga oshirishda qanday to'siqlarga uchrashi mumkin, bu to'siqlarni yengib o'tishga qanday imkoniyatlari bor, bu inson o'z maqsadini amalga oshirishda qanday dadil qadam qo'yadi.

Qobilyatni baholash natijalari borasida xulosa

- ☐ Anketa ma'lumotlari (F.I.O., yoshi)
- ☐ Qobilyatni baholash maqsadi
- ☐ Suhbat natijalar, mijozdan kutilgan baho (kelajak haqidagi fikri, kasbiy rejasi haqidagi g'oyalari)

- ☐ Ma'lumoti:
- ☐ Ish tajribasi:
- Kasbiy muhim sifatlarining rivojlanish darajasitashxisining natijalari.
- ☐ Bilim, malaka va ko'nikma
- ☐ *Meta-qobilyat* (hamkorlikka qobilyati, moslashuvchanligi, o'qituvchiligi, yetukligi).
- ☐ Ijodiy imkoniyatlari (intelektual va ilmiy salohiyati)
- ☐ Ruhiy-fiziologik imkoniyati (ishga qobilyati, tushkunlikka chidamliligi va boshqalar)
- ☐ Motivatsiya-baholash sferasi
- ☐ Vaziyatni tahlil, tashxis qilish va faoliyat istiqbolinibaholash
- ☐ Kasbiy rejasining mundarijasi
- ☐ Mijozning kuchlilik sifati
- ☐ Rivojlanish imkoniyati
- ☐ Mijozning zaif tomonlari
- ☐ Kasbiy rejani amalga oshirishdagi to'siq va cheklovlar
- ☐ Rejani amalga oshirishda mo'ljallanayotgan qadam

Qobilyatni baholashda kasbiy-psixologik portret dan foydalanish.

Qobilyatni baholash texnologiyasi doirasida mijozning qiziqishlari va maqsadiga muvofiq tarzda kasbiy-psixologik portret dan foydalanish mumkin. Shaxsiy xususiyatlar va individual tajribani taqdim qilishda bir qancha keng tarqalgan portretlar mo'ljalga olinadi.

Mijoz ulardan ish qidirish davomida o'z imkoniyat va tajribalarini namoyon qilishda, C3 mutaxasisi bilan ishga joylashish muammosini hal etishda, o'qishga kirish, o'z-o'zini anglash va rivojlanishini bilish maqsadida foydalanishi mumkin. Portretning tarkibi uning tuzilish maqsadlariga qarab jiddiy o'zgaruvchan, nazariy-metodik yo'nalgan, portret tuzilishi o'tkaziladigan kontekst, metodik tanlovlar va boshqalardan iborat bo'lishi kerak.

Portret tuzishdagi murakkab savollardan biri nomzodni baholash parametrlarini aniqlash hisoblanadi. Parametrlarni tanlash ko'phollarda tanlov yondashuviga qarab amalga oshiriladi. O'tkazilgan tahlilni ko'rsatishda ko'p tarqalgan usullardan klinik-konsultativ va asosiy kompetativ modellardan foydalanish hisoblanadi.

Klinik-konsultativ yondashuv asosan psixik jarayonlar davomidagi qonuniylik bilimiga asoslanadi, bunda shaxs xarakteristikasini baholash, ish yuzasidan turli vazifalarni bajarishdagi muvaffaqiyatlilik va o'ziga xos xususiyatlarni yuzaga kelish vaziyatini tashxis qilishga asosiy e'tibor qaratiladi. Psixologik tadqiqot asosida shaxs xarakteristikasiga oid ma'lumotlarni ko'rib chiqishda keng tarqalgan usullar quyidagicha amalga oshiriladi:

Intelektual xarakteristikasi. Intelektning o'ziga xos xususiyatlariva darajasi, kognitiv stili, intellektual imkoniyatlarini amalga oshirish etapi. Emotsional

xarakteristikasi. Emotsional turg'unligi, emotsionalmoslashuvchanlik qobiliyati, "ego" kuchi, emotsional sferagaintegratsiya darajasi, irodaliligi va boshqalar.

Motivatsiyali xarakteristikasi. Istak-xohishlari darajasi, psixologikehtiyoji, xulq-atvorga ta'sirida ularning qiyosiy kuchi.O'zi va atrofdagilarni tushunishi. Xolislikka munosabati,ta'sirchanligi, o'zini kuzatishi, yangilikka intiluvchanligi, "psixologik"qarashi, empatiya, psixologik himoya borasida ustunligi.

Muloqot xarakteristikasi. Ustun turish yoki bo'ysunishgamoyilligi, xayrixohliligi, hamkorlikka, moslashuvchanlikka vako'ngilliIshbilarmonlik xarakteristikasi. "Texnik" ko'nikmasi, boshqaruv,tashkilotchilik, koordinatorlik, rejalashtirish, javobgarlikni o'zigaolish, boshqaruv stili va boshqa qobiliyatlari.Tajriba mulohazalariga ko'ra ko'pchilik o'z hisobotini oltitamuvofiq qismga ajratadi, qolganlar bu tartibdagi hisobotdan qochadi.Shaxs bilan ishlash jarayonidagi kompetativ model xorijiydavlatlarda juda keng tarqalgan. Kompetativ modelni qo'llashdagiyondoshuvning asosiy mohiyati tashkilotning shaxs bilan ishlashinstrumentini ko'p maqsadga yo'naltirganligi, qabul qilingan biznesstrategiyaniamalga oshirishda yakdillik qilish.

Bunday yondoshuvning asoschisi D.Mak-Klelandaninganiqlashicha, qobilyat - bu muvaffaqiyatli faoliyat uchun zarur bo'lganxarakteristikadir. Kasbiy sferaga bog'liq holda qobilyat va ularningkombinatsiyalari muayyan sohaga qaratilishi mumkun, lekin universalxarakter qobilyat bilan bir qatorda turadi. Ularning mavjudligi harqanday tashkilot ishining muvaffaqiyatini yuqori darajadagi aniqlik bilan tashxis qilish imkonini beradi. Hozirgi kunda umumiy korporativ qobilyatlarning o'ndan ikki qismi ishlab chiqilgan bo'lib, oldindan ko'rish, moslashuvchanlik, maqsadga erishish, qaror qabul qilish, tashkilotchilik ko'nikmasi, ta'siri, kommunikativ ko'nikmasi,delegatlik ko'nikmalari shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda g'arbning yetkchi yirik kompaniyalariningko'pchiligida qobilyat modeli bor. Shuning uchun ular oldidaadaptatsiya yoki mavjud korporativ modelga muvofiq turli ishpozitsiyalarida qoshimcha "sozlash" muammosi turadi.Agar Rossiya korxona va tashkilotlari hqaida gap ketganda,ularning ko'pchiligi qobilyatni modelni faqatgina tuza boshlashgan.Bu ish tashkilot strategiyasini amalga oshirish, ushbu muassasa uchunshaxsning ishdagi xulq-atvor meyorlarini ishlab chiqishni taqozoetadi.

Talabgorning kasbiy-psixologik portreti tarkibi

1-qadam. Bo'lgusi ishga nomzod talablarini bayon qilish

Mukammal qobilyatni baholashni amalga oshirish uchuntanlanayotgan talabgorning faoliyat turini yaxshi bilish zarur. Umumiykvalifikatsiyani belgilovchi ya'ni tajriba va imkoniyatlarni daqiqoydinlastirishga imkon beruvchi talablar xarakteristikada qulkayjoylashtirilgan bo'lishi ishni muvaffaqiyatli bajarilishi uchun zarurdir.

Bilim, malaka va ko'nikma. Bu kasbda ishlash uchun insonnimanini bilishi va qila olishi lozim? Bu ish uchun qanday malaka ungazarur? Kvalifikatsiyasi uchun qandaydir rasmiy talab kerakmi?

Qanday maxsus ko'nikmalar zarur?

Intelektual faktorlari. Bu ishga qanday fikrlash talab etiladi -analitik yoki ijodiy? Ishdagi muammolarni hal etishda, muloqotgakirirshishda, favqulodda vaziyatlarda tezkor o'ylash va unio'zlashtirish borasida qanday intellektual talablar ko'rsatiladi? Qandayshaxsiy qobiliyatlar zarur?

Shaxsiyat. Ishda, hamkasblar bilan munosabatda qanday shaxsiysifatlar bo'lishi lozim? Qat'iyatlilik, ishontira olish, favquloddavaziyatlarda ishlay olishn, xotirjamlik kabi maxsus sifatlar zarurmi.

Motivatsiya. Ishchilar nima qilishni yoqtirishlari kerak? Ulargayoqishi kerak bo'lmagan nimalar bor? Ishinchlilik darajasini aniqlashzarurmi? Mayda detallarga e'tibor berish, bahslashish va qat'iyatlibo'lish kabi maxsus sifatlar zarurmi? Maxsus intilishlar kerakmi? Ishma'lum darajadagi tirishqoqlik yoki harakatchanlikni talab qiladimi?

Jismoniy sifati. Belgilangan darajadagi sog'lomlikka ega bo'lishikerakmi? Tashqi ko'rinish shartmi?

Xarakter. Ish demokratik yoki avtoritar xulq-atvorni talab qiladimi? Insonni ishga yaroqsiz qiladigan qanday xarakter bormi?

Shart. Ish vaqti qanday? Bunga u faol tayyormi? Ishchinishaxsiy mashinasi bormi? Ishda umumqabul qilingan shatrtlarganomuvofiq va noodatiy narsalar bormi?

2-qadam. Talabgor bilan ishlash

Dastlabki suhbat va hujjatlar tahlili.

Nomzod kasbiy-psixologik portretini tayyorlash uchun uninganketa va hujjatlarni qanday to'ldirishini o'rganish maqsadga muvofiq.Agar imkoni bo'lsa dastlabki suhbatni o'tkazib ko'rish mumkin.

Birinchi uchrashuv konsultant uchun juda muhim bo'lib, nomzodningkasbiy va shaxsiy psixologik xususiyatlari haqida dastlabki tasavvurgaega bo'lish imkonini beradi, shuningdek nomzodning anketada taqdimqilgan biografik ma'lumotlari va boshqa hujjatlardagi ma'lumotlarninganiqligini tekshirish imkonini ham beradi. Bu uchrashuvda consultant mijoz bilan aloqa o'rnatish va hamkorlikdagi kelgusi ishlar rejasinimuhakama qilish imkiniga ham ega bo'ladi.

Standartlashtirilgan intervyu. Talabgordan oldindan olinadiganintervyu konsultant uchun o'ta ma'lumotli bo'ladi. Intervyu jarayonidaberiladigan savollar ikkita kategoriyaga bo'lingan:

1. Savollar, ishga yo'nalganlik, ish yuzasidan muhim talablarningpaydo bo'lishi.

2. Savollar, shaxsiy xususiyatlariga yo'nalganlik, dastlabkitadqiqot natijalari va yig'ilgan hujjatlar yuzasidan.

3. Mijozning shaxsiy xususiyatlari haqida ma'lumot olish uchununga quyidagi savollarni berish maqsadga muvofiq:

4. O'z hulq-atvoringizni qanday tasvirlardingiz?

5. So'ngi to'rt-besh yil ichida Sizni nima uchun ko'proq tanqidqilishgan?

6. Sizni tortishuvchan xususiyatingiz ko'pmi yokikelishuvchanmi?

7. O'zingizni uchta sifat bilan tasvirlay olasizmi?

8. Qiyinchiliklarga qaramay Sizni muvaffaqiyatga erishtirgan vaziyatni ko'rsating?

9. Lavozimga kirishishni nimadan boshlaysiz?

10. Siz savollarga javob berishda o'zingizni qay darajada "bezadingiz"?

Psixologik test o'tkazish. Test o'tkazish uchun bu kasbga oid intellektual, shaxsiy, motivatsiya va iroda kabi muhim sifatlarni o'zichiga olgan bir qancha testlar to'planadi. Test o'tkazish har doim mijozda emosional bosimni yuzaga keltiradi. Shuning uchun konsultant avvalo mijozga qobiliyatni baholashda nima uchun psixologik test o'tkazishdan foydalanayotganligini tushuntirish lozim. Suhbat mijozga uning shaxsiy xususiyatlarini psixologik bahosini tan olish hissini bera olishi kerak. Suhbatda test o'tkazish natijalaridan foydalanish chegarasini belgilab olish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tadqiqot natijalari qanchalik sir tutilsa va psixolog qanchalik suhbatdoshiga e'tibor qaratsa, ular orasidagi ishonch ko'prog'ishunchalik mustahkam bo'ladi. Agar inson bu ma'lumotlar uning barcha sirini ochib bera olishiga qattiq ishonsa, unda uning hech qanday yashirin jihati qolmaydi. Ishning yakunida konsultant so'ngitadqiqot natijalari asosida bilib olgan istak va xohishlarini mijoz bilan muhokama qilishi kerak.

3-qadam. Kasbiy-psixologik portretni tayyorlash

Psixologik tadqiqotlar natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni tartibga solishda keng tarqalgan usullardan biri mijozning shaxsiy xarakteristikasini quyidagi tarzda ko'rib chiqishni taklif etadi.

1. Hayotdagi o'rni (konsultantning inson hayot tarzini tushunishi, uning shaxsiy modelidagi "haqqiniylik", haqqiniylikni tushunub yetish va anglash qobiliyati).

2. Kasbiy reja va maqsadlari (ularni haqqoniyligi, mukammalligi, mijozning o'ziga tushunarli, ularning mantiqiy, mijozning hissiyotga beriluvchanlik darajasi va boshqalar).

3. Yo'nalganligi, motivatsiya (bu insonni hayotda qanday asosiy ehtiyojlar "harakatlantiradi", motivatsiya uni muvaffaqiyatga erishtiradimi, shuhratparastmi yoki o'zini boshqalardan ustun tutadimi va boshqalar)

4. Mahorati. Ish tajribasi (bilimi, malaka va ko'nikma hamda qobiliyati)

5. Intellektual salohiyati, o'ragtuvchanligi (idroklik, yangiliklarga quvvanchilik, bilim olishga intilish, intellektual xususiyatining sifati va darajasi, intellektual imkoniyatlarining amalga oshirish etapi).

6. Shaxsiy va ish sifati (kasbning qanday darajasida, strategik yoki taktik, tanqidga munosabati, vaqtni boshqara olish qobiliyati). Emotsional ahvoli (hissiy barqarorligi, vaziyatga bog'liqlik darajasi, hissiy etukligi, hissiyotlarini ochiq ifoda etish va ularni boshqarish qobiliyati)

8. Kommunikativ sferasi (o'zgalar bilan munosabati, ekstravert yoki intravert va boshqalar)

9. Nizoli vaziyatlarda o'zini tutishi

10. O'z-o'zini baholash

11 O'zini tutishi va faoliyatidagi muntazamlilik (mustaqil qaror qabul qilish darajasi, yutuq va kamchiliklarni tahlil qila olishi, mustaqillik darajasi, o'zini erkin tutishi, harakatchanligi).

Xulosa bir maromda bo'lishi lozim. Dastlab insonni afzalliklariniko'rsatib o'tish lozim, so'ngra uning ishlash qobiliyatidagi o'zgartirishkerak bo'lgan narsalar baholanadi va keyingi navbatda uningkamchiliklari.

Bu psixologdan o'z ma'lumotlarini ifoda etishda konstruktivqobilyat va bebaho muomala madaniyatini talab etadi. Ideal hisobotmijozda barcha muhim g'oyalar o'z-o'zidan uning miyasigakelmasligini, xulosa mantiqiy va tabiiy ekanligi va imkoniyatlarnio'zgartirish xohishi hissini yuzaga keltirishi lozim. Konsultant ba'zidamijozning psixologik qarshiligiga to'qnash keladi, bunda portretnituzishda unga psixologik tadqiqot yo'li bilan ma'lum bo'lganmexanizm hisobga olinishi lozim. Mijozga uning xavotiri hurmatqilinishi va gumon qilinayotga qiyinchiliklarni yengib o'tsabo'lishligini tushuntirib berish juda muhim.

Portretning yakuniy qismida konsultantning tadqiqot natijasidagiasosiy xulosasi bayon qilinadi. Bunda u qisqacha "ha" yoki "yo'q"tahlili asosida nomzod faydali imkoniyatlarining ta'siri va uning"xavfli zona"si va nomzod imkoniyatlaridan foydalanishningmaksimsl shartlari haqida yozma xulosa beradi.

Ilova. Romanov G.V.ning psixologik portreti.

Kasbiy tashxis natijasida Romanov G.V.ning shaxsiy vamotivativ sferasi, intellektual xususiyatlari quyidagicha namoyonbo'ldi.

Intellektual rivojlanish darajasi yuqori darajada. So'zni yaxshi hisetadi, abstraktlashtirish, tasniflash va jamlash qobiliyati yuqori. Zamonva makon haqidagi tasavvuri yaxshi rivojlangan. Matematik tafakkuririvojlanish darajasi quyi. Katta hajmdagi diqqatni jamlash va tezkorxotirasi. Tezkor va moslashuvchan fikrlash.

Sinaluvchi - hissiy yetuk inson, faktlarga dadil qaraydigan, o'zigaishongan, hamisha o'z rejalari va yaqinlari bilan, favquloddatebranuvchi kayfiyatga tushmaydigan.

Narsalarga jiddiy va real qaraydi, haqiqatni talab qilishi yaxshi vao'z kamchiliklarini yashirmaydi. Romanov G.V. uchun o'z so'zinio'tkazish, boshqalardan ajralib turish, mustaqil bo'lishga intilish,ijtimoiy va avtoritet shartlarni mensimaslik xarakterlidir.

Shuhratparastlikning oliy ko'rinishi bir qancha egoistik va o'rnatilganqoidalardan qochish kabi tendensiyalar bilan qo'shilib ketgan.Yuqori ijtimoiy dadillik va tashabbusga ega bo'lish bilan birga,xavfli va keskin hissiyotlarni sevadi. Favqulodda vaziyatlarni yaxshio'tkazadi. Hissiy mustahkamligi nizoli vaziyatlarni yengib o'tishgayordam beradi. Xavfli chaqiriqlarga e'tibor bermasligi mumkin. G.V.ishonuvchan, oqko'ngil va chidamli. Atrofdagilar haqida qayg'urish,ularga yordam berish va qo'llab-quvvatlashga intilishnio'zidaifodalaydi.

Ijodiy tasavvuri rivojlangan va ichki dunyosi boy. Amaliy vakundalik ishlariga qayg'urish uni kam to'lqinlantiradi, shuning uchunmayda detallarga emas, "asosiy" ishga e'tibor qaratadi. Iltimoiymunosabatlarda tajribasiz, ijtimoiy voqealarni tashxis qilishda birxillik va bevositalik.

Hissiy mustahkamligi, bosiqlik, yetuklik va o'z kuchiga ishonish. Hayotdagi qiyin vaziyatlarni oson yengib o'tadi. Xavfsizlik va o'zigayuqori darajada ishonch hissi erkin va betashvish bo'lish imkoniniberadi.

Kasbga muloqot bilan bog'liq yorqin qiziqishning ifodalanishi (tarbiya, o'qish, maslahat) va faoliyatning estetik turlari (adabiyot, tasviriy va sahna asarlari, rejissorlik). Sinaluvchi ijtimoiy normalargayo'naltirilgan, boshqalarning hissiy ahvolini tushunish. Mehnatni afzalko'rish, boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni bosh maqsad deb bilish. vazifalarni hal etish imkoni, odamlarni o'qish va hulq-atvorini tahlil qilishni afzal ko'ruvchi (sotsial tip).

Kasbiy ma'lumotlar turining originalligi, qaror qabul qilishda mustaqilligi, hayotga noodatiy qarashga egaligi, tezkor vamlashuvchan fikrlash, yuqori emotsiyalik. Odamlar bilan munosabatda o'z hissiyotlari, tasavvuri vaintuitsiyasiga tayanish. Muloqot qilish va sevish. Shu tarzda, sinaluvchi "inson-inson" va "inson-tasviriy san'at" kasbiy tipidan muvaffaqiyatli o'tishi mumkin. Optimal turdagifaoliyatni tanlash vazifasi motivatsiya qarama-qarshiliginimurakkablashtiradi. Shuning uchun sinaluvchini kasbiy va shaxsiyehtiyojini amalga oshirishda asosiy muammo faoliyat qidirishda ekanligi ma'lum bo'ladi. Bular psixologiya, jurnalistika va ta'limberish sohalari bo'lishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Kasbiy mahoratni baholash bo'yicha tayyorlov qanday amalga oshiriladi?
 2. Kasbiy-psixologik portret qanday tayyorlanadi?
 3. Psixologik test o'tkazish yullarini aytib bering.
- Muhim kasbiy sifatlarni rivojlantirish darajasi tushunchasiga izoh bering.
6. Mijozni kutish va uning talabi qanday belgilanadi?

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

MILLIY LIBOS VA SAN'AT FAKULTETI

TEXNOLOGIK TA'LIM KAFEDRASI

KASBIY KOMPETENTLIK

FANIDAN

O‘QUV - USLUBIY MAJMUA

TERMIZ – 2023

Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi: Amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etish bo‘yicha kafedra professor - o‘qituvchilari tomonidan ko‘rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda fanning asosiy ma‘ruza mavzulari bo‘yicha olgan bilim ko‘nikmalarini va masalalarni yechish orqali yanada boyitadi. Shuningdek darslik va o‘quv qo‘llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustahkamlashga erishish, o‘quv materiallaridan foydalanish, talabalar bilimlarini oshirish masalalarini echish, mavzular bo‘yicha ko‘rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi.

1-amaliy mashg'ulot
Mavzu: Pedagogik jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash shartlari.

Reja:

1. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi va pedagogik texnologiyalar mohiyatiga oid blits-so'rov.
2. Kichik guruhlar ta'lim tizimining modernizatsiyasining ahamiyatini yorituvchi "Ikki sahifali kundalik"ni shakllantirish.
3. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.
4. Mavzuga oid arajali testlarni yechish.

Mashg'ulotning borishi

I. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi mohiyatiga oid blits-so'rov.

Topshiriq (blis-so'rov):

1. Modernizatsiya –
2. Ta'lim tizimining modernizatsiyasi –
3. Ta'lim texnologiyasi –
4. Ta'lim metodi –
5. Pedagogik texnologiya –
6. "Ta'lim texnologiyasi" nazariyasining shakllanish birinchi bosqichi –
7. "Ta'lim texnologiyasi" nazariyasining shakllanish ikkinchi bosqichi –
8. "Ta'lim texnologiyasi" nazariyasining shakllanish uchinchi bosqichi –

II. Kichik guruhlar ta'lim tizimining modernizatsiyasining ahamiyatini yorituvchi "Ikki sahifali kundalik"ni shakllantirish.

Tinglovchilar uchun quyidagi ish qog'ozi tavsiya etiladi:

1-sahifa

Modernizatsiya -
Ta'lim tizimining modernizatsiyasi –
Ta'lim tizimi modernizatsiyasining
maqsadi -

2-sahifa

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash
vazifalari –


III. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.

1. Keys bayoni. Ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish pedagogik faoliyatning muhim ko'rinishi bo'lib, u muayyan bosqichlarda amalga oshiriladi.


Keys topshirig'i: ta'lim jarayonini texnologiyalashtirish yo'lida amalga oshiriladigan vazifalarni bosqichlar bo'yicha belgilang:

Bosqichlar	Vazifalar
1-bosqich	- talabalar faoliyatini nazorat qilish;
2-bosqich	- talabalar faoliyatini tashxislash;
3-bosqich	- loyihani yaratish;
4-bosqich	- pedagogik jarayonning samarali
5-bosqich	kechishini ta'minlash;
	- pedagogik jarayonni tashkil etish

Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'ozi:




O'qituvchining yechimi:



2. Keys bayoni. Ta'lim innovatsiyalari bir necha turga ajratiladi. Har bir turga oid ta'lim innovatsiyalari ham bir necha guruhlarga bo'linadi.


Keys topshirig'i: berilgan ta'lim innovatsiyalarini tegishli turlar bo'yicha belgilang.



Ta'lim innovatsiyalari:

1. Pedagogik jarayonda qo'llaniladigan innovatsiyalar;
2. O'zlashtirilgan innovatsiyalar;
3. Modifikatsiyalangan innovatsiyalar;
4. Ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar;
5. Modul innovatsiyalari;
6. Radikal innovatsiyalar;
7. Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan innovatsiyalar
8. Kombinatsiyalangan innovatsiyalar;
9. Tarmoq (lokal) innovatsiyalari;
10. Tizim innovatsiyalari.

O'qituvchining javobi:



IV. Mavzuga oid arajali testlarni yechish.

1. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlarini, jamiyat va davlatning malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta'lim olish bo'lgan talabini qondirish yo'lida uzluksiz ta'lim tizimini barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida mavjud mexanizmning qayta ishlab chiqilishi yoki takomillashtirilishi – bu ...

- a) ta'lim tizimining rivojlanishi;
- b) ta'lim tizimining shakllantirilishi;
- c) ta'lim tizimining holati;
- d) ta'lim tizimining modernizatsiyasi.**

2. Lug'aviy jihatdan “innovatsiya” tushunchasi qanday ma'noni ifodalaydi?

- a) o'zgartirish kiritish;
- b) qo'shimcha kiritish;
- c) yangilik kiritish;**
- d) taklif kiritish.

3. “Innovatsion ta'lim” tushunchasi dastlab qaerda asoslangan?

- a) 1919 yilda Berlinda;
- b) 1979 yilda Rimda;**
- c) 1920 yilda Vashingtonda;
- d) 1995 yilda Moskvada.

4. Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar, ilg'or ish uslublari. Ular ... ko'rinishlari.

- a) texnologiyaning;
- b) metodikaning;
- c) innovatsiyaning;**
- d) loyihalashning.

5. Ta'lim (o'qitish) jarayonining yuksak mahorat, san'at darajasida tashkil etilishi qanday nomlanadi?

- a) ta'lim metodikasi;
- b) ta'lim texnologiyasi;**
- c) ta'lim paradigmasi;
- d) ta'lim metodologiyasi.

6. Ta'lim shakllarini takomillashtirish vazifasini ko'zlagan o'qitish va boshqalarni o'zlashtirishning barcha jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari vositasida yaratish, tadbqiq etish va aniqlashning izchil metodi. "Pedagogik texnologiya" tushunchasining ushbu ta'rifi kim tomonidan berilgan?

- a) U.Nishonaliev;
- b) B.Farberman;
- c) YuNYeSKO;**
- d) V.P.Bespalko.

7. Pedagogik texnologiya mezonlarini raqamlarini mos kataklarga qo'yib chiqing: 1) kontseptuallik; 2) tizimlilik; 3) boshqaruvchanlik; 4) samaradorlik.

Ta'limiy texnologiya samarali natija va ta'lim maqsadlariga erishish kafolatini ta'minlaydi	Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilariga ega, ya'ni: yaxlitlik, tuzilmaviylik, barcha tashkil etuvchilarning o'zaro bolliqligi va ularning bir-biriga bo'ysunishi, tizim va muhitning o'zaro bog'liqligi	Ta'lim texnologiyasi falsafiy, psixologik, didaktik va tahlilimiy maqsadning ijtimoiy-pedagogik asoslangan aniq ilmiy g'oyalariga asoslanadi	TT mohiyati – ishlarni aniq bajarilishida, ya'ni: butun tugallangan ta'lim jarayonini aniq pedagogik g'oya ostida dastlabki bashoratlash, loyihalashtirish va rejalashtirishida ko'rish mumkin

Javob:

4	2	1	3
---	---	---	---

8. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror topishi bosqichlarining mos raqamlarini yozing.

Bosqichlar	Raqamlar
Pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z kontsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi	

Yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi	
Mavjud tizimga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritadi	
Tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi	

Javob:

Bosqichlar	Raqamlar
Pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z konsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi	
Yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi	
Mavjud tizimga yangi g'oyalarni, metodlarni kiritadi	
Tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi	

9. Ta'lim innovatsiyalari turlariga mos keladigan innovatsiya turlarini yozing: 1) faoliyat yo'nalishiga ko'ra; 2) kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra; 3) o'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra; 4) kelib chiqish manbaiga ko'ra.

Jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar	Radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan innovatsiyalar	Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar	Tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari

Javob:

4	2	1	3
---	---	---	---

10. Novatsiya va innovatsiyaga oid xususiyatlarga mos raqamlarni jadvalning o'ng tomoniga yozing: 1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; 4) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; 7) metodlar yangilanadi; 9) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi; 2) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 3) ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 5) subektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 6) yangi texnologiyalar yaratiladi; 8) faoliyatda yangi sifat

natijalariga erishiladi; 10) amaliyotning o'zi ham yangilanadi.

Tushunchalar	Javoblar
Novatsiya	
Innovatsiya	

Javob:

Tushunchalar	Javoblar
Novatsiya	1, 4, 7, 9
Innovatsiya	2, 3, 5, 6, 8, 10

Mashg'ulotning yakunlanishi

Kichik guruhlar va har bir tinglovchining mashg'ulot jarayonidagi ishtiroki baholanadi. Ta'lim maqsadining natijalanganligi tahlil etiladi.

2-amaliy mashg'ulot

Mavzu: O'qitish amaliyotida innovasion ta'lim shakl, myetod va vositalaridan foydalanish


Reja:

1. "O'qitish tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llanilishining ahamiyati" mavzusida "Qarorlar qabul qilish texnologiyasi" grafik organayzeri yordamida bahs-munozara tashkil etish.
2. Mavzuga oid keys topshiriqlarini bajarish.
3. Mavzuga oid darajali testlarni yechish.
4. Ta'lim jarayonida amaliy (didaktik) o'yinlardan foydalanish borasida o'zaro tajriba almashish.
5. O'qitish tizimida interfaol metodlarni qo'llash yuzasidan mahorat darslarini tashkil etish.

Mashg'ulotning borishi

I. "O'qitish tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni qo'llashning ahamiyati" mavzusida "Qarorlar qabul qilish texnologiyasi" grafik organayzeri yordamida bahs-munozara tashkil etish.

Tinglovchilarga quyidagi ish qog'ozi taqdim etiladi:



Buning natijasida ular o'rtasidagi farqlarni aniq ko'rish mumkin bo'ladi.

Keys topshirig'i: Novatsiya va innovatsiya o'rtasidagi farqlarni toping.

Keys topshirig'ini bajarish uchun ish qog'ozi:

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya

O'qituvchining javobi:

Asosiy farqlar	
Novatsiya	Innovatsiya


1) amaldagi nazariya doirasida qo'llaniladi; 2) ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi; 3) metodlar yangilanadi; 4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi	1) tizimli, yaxlit va davomli bo'ladi; 2) amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi; 3) sub'ektlarning faoliyati to'la yangilanadi; 4) yangi texnologiyalar yaratiladi; 5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliyotning o'zi ham yangilanadi
--	---

4. Keys bayoni. O'yinlar pedagogik maqsadda ham qo'llaniladi va ular o'yin texnologiyalari deb nomlanadi. O'yin texnologiyalari ta'lim oluvchilarni muayyan jarayonga tayyorlash, ularda ma'lum hayotiy voqelik, hodisalar jarayonida bevosita ishtirok etish uchun dastlabki ko'nikma, malakalarni hosil qilishga xizmat qiladi. Har qanday o'yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o'yinlar ham o'zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo'ladi. Mashhur pedagog G.K.Selevko pedagogik maqsadlarda qo'llanilayotgan o'yinlarni muayyan tartibda guruhlashtirgan.

Keys topshirig'i: quyidagi keltirilgan pedagogik o'yinlarni mashhur pedagog G.K.Selevko tomonidan tavsiya etilgan sxemada qayta ifodalang.

1. Produktiv, reproduktiv va ijodiy o'yinlar.
2. Jismoniy o'yinlar.
3. Intellektual o'yinlar.
4. O'rgatuvchi, mashqlantiruvchi, nazorat qiluvchi, umumlashtiruvchi o'yinlar.
5. Ishbilarmonlik o'yinlari.
6. Muloqotga asoslanuvchi, tashxislovchi, kasbga yo'naltiruvchi, psixologik-texnik o'yinlar.
7. Mehnat, texnik, ishlab chiqarishga doir o'yinlar.
8. Kompyuter, televizion va texnik vositalarga asoslanuvchi o'yinlar.
9. Stol o'yinlari, xona o'yinlari, ko'cha o'yinlari, joy bilan bog'liq o'yinlar.
10. Mehnat o'yinlari.
11. Ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi o'yinlar.
12. Didaktik o'yinlar.
13. Jismoniy, sport, harbiy, sayyohlik, xalqona o'yinlar.
14. Imitatsion o'yinlar.
15. Rolli o'yinlar.
16. Syujetli o'yinlar.
17. Texnik va harakatni ta'minlovchi o'yinlar.
18. Ijtimoiy, boshqaruv, iqtisodiy, tijorat xarakteridagi o'yinlar.
19. Dramatik o'yinlar.
20. Predmetli va predmetsiz o'yinlar.
21. Musiqiy, teatr tomoshasi, badiiy o'yinlar.
22. Matematik, biologik, kimyoviy, fizik va ekologik o'yinlar.
23. Ijtimoiy o'yinlar.
24. Psixologik o'yinlar.

O'qituvchining javobi:



5. Keys bayoni. Zamonaviy Yevropada yagona kasbiy ta'lim makonini yaratish zamonaviy o'qitishning eng muhim talabi deya e'tirof etildi. Ana shu maqsadda Bolonya jarayoni tashkil etildi. Bu jarayon yagona Yevropa oliy ta'limi makonini yaratish maqsadida Yevropa mamlakatlari oliy ta'lim tizimining bir-biriga yaqinlashishi va o'zaro uyg'unlashuvini ta'minlovchi jarayon sanaladi. 1999 yilning 19 iyunida Yevropaning 29 mamlakati vakillari ishtirokida Bolonya deklaratsiyasi imzolandi. Unga ko'ra keng ko'lamda talabalar almashinuvini qo'llab-quvvatlash uchun Yevropa sinov birliklari (kredit) tizimi (YeSBT) joriy etildi.

“Kredit” atamasi (YeSTS-credit) – “sinovdan o'tdi” ma'nosini anglatib, talabaning o'quv yurtida ma'lum bir kurs (modul)ni muvaffaqiyatli yakunlaganligi to'g'risida ma'lumot beradi.

Keys savoli: kredit (sinov birligi) nima anglatadi: ma'lum o'quv fani (moduli)ni o'zlashtirish va sinovlarni birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinishda topshirish mumkinligini yoki ma'lum o'quv fanini talabaga

yuklatiladigan yuklanma hajmi (mehnat sarfi)dan kelib chiqqan holda modul (blok – qism) holda o'zlashtirish va har bir modul (qism) o'zlashtirilgandan so'ng sinovdan o'tish zarurligini?

O'qituvchining javobi. Kredit ma'lum o'quv fani (moduli)ni o'zlashtirish va sinovlarni birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinishda topshirishni anglatmaydi. Aksincha, kredit har bir o'quv fanining umumiy hajmi, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim uchun ajratilgan soatlar (nazariy mashg'ulotlarga nisbatan amaliy mashg'ulot va mustaqil ta'lim soatlarining ko'pligi), bir so'z bilan aytganda, talabaning mehnat sarfidan kelib chiqib ajratiladi. Kredit – o'quv fanini o'zlashtirish va sinovlarni topshirish uchun birinchi, ikkinchi yoki uchinchi urinish emas. Balki bir o'quv fani uchun ajratilgan umumiy soatni bir necha modul (blok – qism)ga ajratgan holda o'zlashtirish va sinov topshirib borish deganidir.

6. Keys bayoni. Zamonaviy sharoitda ta'lim tizimida vebinar texnologiyalar tobora keng qo'llanilmoqda. **“Vebinar texnologiyalar” tushunchasi** ingliz tilidan tarjima qilinganda (“webinar” –web-based seminar) web-texnologiyalari va an'anaviy ta'limning o'zaro birligi asosida tashkil etiladigan seminarni anglatadi. Biroq, keng ma'noda web-texnologiyalari yordamida tashkil etiladigan nafaqat seminarni, balki turli onlayn tadbirlar (seminar, konferentsiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, ayrim holatlarda trening, turli hodisalar bo'yicha tarmoq translyatsiyalari (kompyuter yoki Internet tarmog'ida namoyish etiladigan lavhalar)ni yoritishga ham xizmat qiladi.


Ushbu texnologiyalarni o'zlashtirish orqali pedagoglar interfaol o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Talabalar uchun esa bu texnologiyalar vaqtni va boshqa resurslarni tejash imkoniyatini yaratadi. Chunki ushbu interfaol ta'lim jarayoni bilan qulay vaqt va qulay joyda tanishish imkoniyati mavjud. Bu esa pedagoglardan vebinar texnologiyalar asosidagi mashg'ulotlarni samarali tashkil etish uchun muayyan ko'nikmalarga ega bo'lish, bir qator shart va qoidalarga rioya etish talab qilinadi.

Keys savoli: ko'pchilikning fikricha vebinar darslarning sifatiweb-texnologiyalarining ta'minotiga bog'liq. Bu fikr qanchalik to'g'ri.

O'qituvchining javobi:vebinar darslarning sifatiweb-texnologiyalarining ta'minoti ham muhim ahamiyatga ega. Biroq, boshqa turdagi darslar kabi vebinar darslarning sifat hamda samaradorligi ularning metodik jihatdan tashkil etilishiga bog'liq. Tashkiliy-texnologik masalalar, ya'ni vebinar darsining Internet tarmog'igi orqali talaba, tinglovchilarga uzatib berilishining hal qilinishigina vebinar darslarning sifatiweb-texnologiyalarining ta'minoti bilan bog'liq. Bordi-yu, vebinar darslarining translyatsiyasi juda sifatli bo'lgani holda kutilgan ta'limiy natija qo'lga kiritilmasa, u holda o'quv mashg'uloti pedagog tomonidan samarali, sifatli tashkil etilmagan bo'ladi.

7. Keys bayoni. Innovatsion jarayonlarni boshqarish o'z mazmuniga ega. Tadqiqotchilar innovatsion jarayonlarni xarakterlovchi bir qator modellarni yaratishgan. Har bir modelda innovatsion jarayoning u yoki bu jihatlari aks etadi.

Keys topshirig'i. K.M.Ushakov g'oyasiga ko'ra innovatsion jarayonlarni boshqarishga doir modellarni o'rganing va har biriga tavsifnoma (xarakteristika) yozing:



O'qituvchining yechimi:

1. **Inkor etish** – har qanday yangilikning rad etilishi, qabul qilinmasligi.
2. **Qarshilik** – yangiliklarning qabul qilinishiga nisbatan salbiy munosabatning mavjudligi, yangiliklarning qabul qilinishini xohlamaslik.
3. **Tadqiqot etish** – yangiliklarning amaliy ahamiyatga egaligini amaliy izlanishlar asosida o'rganish.
4. **Ommalashtirish** – amaliy ahamiyati isbotlangan yangiliklarning amaliyotga keng tatbiq etilishi.
5. **An'anaviylashtirish** – amaliy ahamiyati isbotlangan yangiliklarni amaliyotda izchil qo'llanilishiga erishish.

8. Keys bayoni. Har qanday pedagogik faoliyatning samaradorligi uning natijasi yoki natijalari bilan o'lchanadi. Shaxs faoliyati, bilimi, ko'nikma va malakalarini baholashda muayyan mezonlarga tayanib ish ko'riladi. Mezonlarning ishlab chiqilishi faoliyat, bilim, ko'nikma va malakalarning ob'ektiv, xolis baholanishini ta'minlaydi.

Keys topshirig'i. Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

O'qituvchining yechimi:

Pedagoglarning innovatsion faoliyatini baholash mezonlari

Holat	Mezonlar
Pedagogning innovatsion faoliyati	1. Yangiliklardan izchil xabardor bo'lish. 2. O'z fani bo'yicha yangiliklarni yaratish xohishiga egalik. 3. O'zlashtirgan yoki o'zi asoslangan yangiliklarni amaliyotga tadbiq etishda qat'iyatlilik ko'rsatish. 4. O'z faoliyatida innovatsiyalarni faol qo'llash

9. Keys bayoni. Ta'lim innovatsiyalaridan samarali foydalanishda pedagoglarning kasbiy mahorati, kompetentligi, iqtidori va ish tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Pedagog qanchalik darajada kasbiy mahorat, kompetentlik, iqtidor va ish tajribasiga ega bo'lsa, u ta'lim innovatsiyalarini o'z faoliyatida shunchalik faol qo'llaydi va samarali natijalarga erishadi.

Keys topshirig'i. Pedagoglarning innovatsion salohiyatini baholash mezonlarini ishlab chiqing.

O'qituvchining yechimi

Pedagoglarning innovatsion salohiyatini baholash mezonlari

Holat	Mezonlar
Pedagogning innovatsion salohiyati	1. Yangicha fikrlash qobiliyatiga egaligi. 2. O'zini turli, ayniqsa, yangiliklar bilan bog'liq vaziyatlarda sinab ko'rishga intilishi. 3. Ijodiy faollik ko'rsata olishi. 4. Izchil ravishda innovatsion g'oyalarni ilgari surish mahoratiga egaligi

III. Mavzuga oid darajali testlarni yechish.

1. Ta'lim innovatsiyalari necha turga bo'linadi?

a) 2 turga;

b) 4 turga;

c) 6 turga;

d) 8 turga.

2. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;

b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;

c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;

d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

3. Faoliyat yo'nalishiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari qanday turlarga bo'linadi?

a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;

b) radikal, modifikatsiyalangan hamda kombinatsiyalangan innovatsiyalar;

c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;

d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

4. Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar ... deb nomlanadi?

a) ta'lim vositalari;

b) ta'lim texnologiyalari;

c) ta'lim metodlari;

d) ta'lim innovatsiyalari.

5. ... muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat.

a) innovatsiya;

b) novatsiya;

c) gravitatsiya;

d) gradatsiya.

6. Yangi g'oyalar, tizim yoki faoliyat yo'nalishini o'zgartirishga qaratilgan aniq maqsadlar, noan'anaviy yondashuvlar, odatiy bo'lmagan tashabbuslar, ilg'or ish uslublari. Ular ... ko'rinishlari.

a) texnologiyaning;

b) metodikaning;

c) innovatsiyaning;

d) loyihalashning.

7. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'rata'lim innovatsiyalari ... kabi turlarga bo'linadi?

a) tarmoq (lokal), modul va tizim innovatsiyalari;

b) radikal, modifikatsiyalangan va kombinatsiyalangan innovatsiyalar;

c) jamoa tomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar;

d) pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar.

8. Faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lmay, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa ... deb yuritiladi?

a) novatsiya;

b) evrika;

c) innovatsiya;

d) intuitsiya.

9. O'zaro muvofiqlikni aniqlang.

1. Kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari	A. kombinatsiyalangan innovatsiyalar
2. O'zgarishlarning ko'lamiga ko'ra ta'lim innovatsiyalari	B. tarmoq(lokal) innovatsiyalari
	C. modul innovatsiyalari
	D. modifikatsiyalangan innovatsiyalar
	E. tizim innovatsiyalari
	F. radikal innovatsiyalar

Javob: 1-B, C, E. 2-A, D, F.

10. Ijodiy faollik, yangilikni kiritishga texnologik va metodologik tayyorgarlik, yangicha fikrlash, yuksak muomala madaniyati. Innovatsion faoliyatning tarkibiy elementlarini uning muallifi bilan juftlang.

Innovatsion faoliyatning tarkibiy elementlari	A	V. Slastenin
	B	U. Nishonaliyev
	C	M. Klarin
	D	V. P. Bepalko


Javob: A

11. "Pedagogik texnologiyalar" tushunchasi unga mos ta'rif bilan juftlang.


Pedagogik innovatsiyalar	A	Zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilinishi natijasida, jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash
	V	Ta'lim muassasasini boshqarishning yangi metodlarini amalga oshirish, tashqi aloqa o'rnatish va ish o'rinlarini tashkil etish
	S	Pedagogik yangiliklarni o'rganish, o'zlashtirish, ularni baholash, foydalanish va amaliyotga tatbiq etish
	D	Pedagogik, tashkiliy va iqtisodiy innovatsiyalar bilan muvofiqlashtirilgan va o'zaro aloqadorlik asosida amalga oshirilishi

12. Pedagoglarda innovatsion yondashuvning qaror toptirish bosqichlarini izchil tarzda ifodalang: 1) pedagog o'qitish va tarbiyalashga oid o'z kontsepsiyasi yoki metodikasini yaratadi; 2) mavjud tizimga yangi

g'oyalarni, metodlarni kiritadi; 3) yangi g'oyani amalga oshirish mazmuni, shakl va metodlarini tizimlashtiradi; 4) tayyor metodik tavsiyanoma (mavjud innovatsiya)lardan foydalaniladi.



Javob:



13. Innovatsiyalar mohiyatini yorituvchi ta'riflarni ularga tegishli tushunchalar bilan juftlang.

№	Ta'riflar	№	Tushunchalar
1	Faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilsa	A	Ta'lim innovatsiyalari
2	Zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilinishi natijasida, jahon standartlariga mos keladigan mutaxassislarni tayyorlash	B	Innovatsiya
3	Ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar	C	Novatsiya
4	Ta'lim muassasasini boshqarishning yangi metodlarini amalga oshirish, tashqi aloqa o'rnatish va ish o'rinlarini tashkil etish	D	Iqtisodiy innovatsiyalar
5	Faoliyat ma'lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilsa	E	Tashkiliy innovatsiya

Javob:	1-	2-	3-	4-	5-
Javob:	1-C	2-D	3-A	4-E	5-B

14. Ta'lim tizim modernizatsiyasining ustuvor vazifalarini belgilang.

Har bir shaxsnin g to'laqonli ta'lim	Uzluksiz ta'lim tizimi (UTT)	Elektron axborot -ta'lim resurslarini	Yangi ta'lim resurslarini jalb qilish, ulardan samarali	Davlat va jamiyatning qo'llab-quvvatlashi negizida	O'qitishning mavjud va yangi texnologiyasi	Ta'lim tizimining davlat va jamoatc
--------------------------------------	------------------------------	---------------------------------------	---	--	--	-------------------------------------

olishida boshqalar bilan teng huquqliligi va ta'lim olishning ochiqligini ta'minlash	da yangi sifat ko'rsatkiçlariga erishish	yaratish	foydalanish asosida UTTda samarali me'yoriy-huquqiy va tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish	ta'lim tizimining ijtimoiy maqomi va kasbiy kompetentligini rivojlantirish	shakllarini o'zaro muvofiqlash-tirish	hilik boshqaruviga asoslanganlik tamoyiliga muvofiq ta'lim jarayoni ishtirokchilari – talabalar, pedagoglar, oilalari va ta'lim muassasalarining rolini oshirish
A	B	C	D	E	F	G

15. Ta'lim innovatsiyalarini ularning turlari bilan juftlang.

1	Faoliyat yo'nalishiga ko'ra	A	Jamoatomonidan bevosita yaratilgan yoki o'zlashtirilgan innovatsiyalar
2	Kiritilgan o'zgarishlar tavsifiga ko'ra	B	Modul, tarmoq (lokal) va tizim innovatsiyalari
3	O'zgarishlar ko'lamiga ko'ra	C	Pedagogik jarayonda yoki ta'lim tizimini boshqarishda qo'llaniladigan innovatsiyalar
4	Kelib chiqish manbaiga ko'ra	D	Radikal, modifikatsiyalangan, kombinatsiyalangan innovatsiyalar

Javob:	1-	2 -	3 -	4 -
Javob:	1-C	2-D	3-B	4-A

16. "Ta'lim texnologiyasi" nazariyasining shakllanish bosqichlari va har bir bosqichga mos xususiyatlarini o'zaro juftlang.

№	Bosqich va yillar	№	Ta'lim texnologiyasi sifatida talqin etilgan holatlar
1	I-bosqich: XX asrning 30-yillari	A	Ta'lim jarayonida texnik vositalarni qo'llash, ularning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot sig'imini kengaytirish, ularni uzatish

			xizmatini sifatli tashkil etish, talaba faoliyatini individuallashtirish
2	II-bosqich: XX asrning 50-yillari	V	Dasturiy ta'lim – ta'lim maqsadlarining aniqlanishi, ta'lim jarayonini umumiy loyihalash, talabalar tomonidan nazariy bilimlarning o'zlashtirilishi ehtimolini oldindan tashhishtirish, ta'lim jarayonining samaradorligini aniqlash, ta'lim maqsadining natijalanganligini o'rganish, faoliyat natijalarini tahlil etish
3	III-bosqich: XX asrning 60-yillari	S	O'quv mashg'ulotlarini aniq va samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi usul va vositalar yig'indisi

Javob:

1-	2-	3-
1-S	2-A	3-V

17. Berilgan tushunchalarni mos o'rinlarga qo'yib, ta'lim jarayonini loyihalash qonuniyatlari mohiyatini yoritib.

№	Ta'riflar	№	Tushunchalar
1	... o'qituvchining individual uslubiga muvofiq tanlanadi	A	texnologik vositalari
2	... teskari aloqa (o'qituvchi va talaba o'rtasidagi) ko'lam, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog'liq	B	texnologik boshqaruv, vosita, axborot, ijtimoiy-psixologik muhit
3	Ta'limning ... talabalarning individual xususiyatlariga bog'liq holda tanlanadi	S	loyihalash strategiyalari
4	Ta'lim jarayonining loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar ...ning loyihada maqsadga muvofiq yoritilishi asosida ta'minlanadi	D	loyihalash sifati

Javob:

1-	2-	3-	4-
1-S	2-D	3-A	4-V

18. Berilgan ta'riflar asosida “novatsiya” va “innovatsiya” tushunchalarining mohiyatini yoritib.

Novatsiya	Innovatsiya
Faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'ladi	
Faoliyat ma'lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshiriladi	
Faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qiladi	
Uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qiladi	

Javob:

Novatsiya	Innovatsiya
Faoliyatning qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lishi va faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o'zgartirishga xizmat qilishi	Faoliyatning ma'lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilishi va natijasining muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o'zgartirishga xizmat qilishi

19. Quyida berilgan holatlar bo'yicha ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalarini qo'llashning izchil tartibini belgilang. 7. Mashg'ulotlarning bosh maqsadini ifodalash. 1. Muammo va vaziyatni vujudga keltirish. 2. Materiallar, yo'riqnomalar, qoidalar va ko'rsatmalar to'plamini tarqatish. 3. Maslahat berish. 4. Guruhni shakllantirish. 5. O'yin reglamentini o'rnatish. 6. Rollarni taqsimlash.

Javob: 4, 7, 1, 6, 5, 2, 3.

20. Quyidagi jadvalda masofaviy ta'limni tashkil etishda ishtirok etadigan mutaxassislar va ularning vazifalarini mos ravishda juftlang.

№	Mutaxassislar	№	Ularning vazifalari
1	Moderator	A	Masofaviy ta'lim asosida tashkil etiladigan o'qitish natijalarini nazorat qiluvchi pedagog
2	Tyutor	B	Bitiruv malakaviy ishi, kurs loyihalarining talabalar tomonidan individual, mustaqil bajarilishi vaqtida metodik yordam beradigan maslahatchi
3	Invigilator	C	Guruhlarning faoliyatini muammoning yechimini topishga yo'naltiruvchi, guruhlarda yuzaga keladigan muloqotni rivojlantiruvchi pedagog
4	Fasilitator	D	Masofaviy ta'lim negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbat, forumlarga boshchilikqilib, talabalarning faoliyatlarini faollashtiruvchi (boshqaruvchi) pedagog
5	Edvayzer	E	O'quv kurslari uchun interfaol metodlarni tanlovchi,

			ma'ruza o'qituvchisi bilan talaba o'rtasida ta'limiy aloqani o'rnatuvchi pedagog
--	--	--	--

Javob:

1-	2-	3-	4-	5-
1-D	2-E	3-A	4-C	5-B

21. Quyidagi holatlarning pedagogik kompetentlikning qaysi turiga mos kelishini belgilang: 1) ijtimoiy kompetentlik; 2) maxsus kompetentlik; 3) shaxsiy kompetentlik; 4) texnologik kompetentlik; 5) ekstremal kompetentlik.

Favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik	Kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, uning negizida psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik ko'zga tashlanadi	Izchil ravishda kasbiy o'sishga erishish, malaka darajasini oshirib borish, kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini namoyon qilish	Ijtimoiy munosabatlarda faollik ko'rsatish ko'nikma, malakalari ga egalik, kasbiy faoliyatda sub'ektlar bilan muloqotga kirisha olish	Kasbiy-pedagogik BKMni boyitadigan ilg'or texnologiya-larni o'zlashtirish, zamonaviy vosita, texnika va texnologiya-lardan foydalanish

Javob:

5	1	3	2	4
---	---	---	---	---

22. **Maxsus kompetentlik** – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, BKMni izchil rivojlantirib borish bo'lib, ushbu kompetentlik negizida _____, _____, _____, _____, _____ va _____ kompetentlik ko'zga tashlanadi:

- 1) psixologik kompetentlik;
- 2) ijtimoiy kompetentlik;

- 3) metodik kompetentlik;
- 4) shaxsiy kompetentlik;
- 5) texnologik kompetentlik;
- 6) informatsion kompetentlik;
- 7) kreativ kompetentlik;
- 8) innovatsion kompetentlik;
- 9) ekstremal kompetentlik;
- 10) kommunikativ kompetentlik.

23. Ushbu ta'rif qaysi tushunchaning mohiyatini yoritadi?

Pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi _____ deb ataladi.

Javob. Pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va sub'ektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligi **pedagogik mahorat** deb ataladi.

24. Ta'riflar mohiyatini ifodalovchi tushunchalarni toping.

A. Ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqot ishlarini qaysi portfolio o'zida aks ettiradi –

V. Talabalar yoki pedagoglar tomonidan jamlangan eng yaxshi ishlarni o'zida aks ettiradigan portfolio –

Javob:

A. Ijodiy ishlar, loyihalar, tadqiqot ishlarini qaysi portfolio o'zida aks ettiradi – **ishlar portfoliosi**.

V. Talabalar yoki pedagoglar tomonidan jamlangan eng yaxshi ishlarni o'zida aks ettiradigan portfolio – **natijalar portfoliosi**.

25. Pedagoglarda kreativ faoliyatni tashkil etishga imkon beradigan malakalar guruhlarini belgilang.

Bilis h ga oid (gno s tik) mala ka lar	Loyi ha lash mala ka lari	Ijodiy - amali y (kons t ruktiv) mala ka lar	Suhb at ni tashkil etish mala ka si	Texni k- texno logik malak a lar	Tad qi qotc hi lik mala ka lari	Mulo qotga kirishu v chanlik (komm uni kativ) malaka lari	Tash ki lotch i lik mala ka lari	Dars ni olib borish malak a si	Izchi likni ta'm in lovch i (prot ses sual) mala ka lar	Tala ba lar bilim i ni baho lash mala kasi
A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K

A	B	C	D	E	F	G	H	I	J	K
---	---	---	---	---	---	---	---	---	---	---

IV. Ta'lim jarayonida amaliy (didaktik) o'yinlardan foydalanish borasida o'zaro tajriba almashish.

Tinglovchilar quyidagi savollar asosida ta'lim jarayonida o'zlari tomonidan qo'llanilayotgan amaliy (didaktik) o'yinlar va ulardan samarali foydalanishga oid tajribalarini o'zaro o'rtoqlashadi:

1. Sizningcha, mashg'ulotlarda foydalanilayotgan didaktik o'yinlar talabalarni qanchalik darajada faollashtiradi?
2. Shaxsan Siz ta'lim jarayonida qanday didaktik o'yinlardan foydalanasiz?
3. Talabalarning faolliklarini oshirish uchun mashg'ulotlar jarayonida amaliy (didaktik) o'yinlardan samarali foydalanish uchun aynan nimalarga e'tibor qaratish zarur deb hisoblaysiz?

V. O'qitish tizimida interfaol metodlarni qo'llash yuzasidan mahorat darslarini tashkil etish.

Tinglovchilar kichik guruhlariga birlashgan holda o'zlari tomonidan ta'lim jarayonida interfaol metodlarni qo'llashga doir mahorat darslarini tashkil etadi.

Mahorat darslarini tashkil etish quyidagi texnologiyaga asoslanadi:

1. Mahorat darsini tashkil etish mavzusi, maqsadi va vazifalarini belgilash.
2. Mahorat darsining texnologik loyihasini ishlab chiqish.
3. Mahorat darslarini tashkil etish.
4. Mahorat darsini tashkil etgan pedagog bilan interfaol muloqotni tashkil etish.
5. Mahorat darsini yakunlash.

Mashg'ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

4-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Pedagogik kompyutyentlik sifatlarinirivojlantirish.

Reja:

1. Mavzu yuzasidan blits-so'rov savollariga javob berish.
2. Mavzuga oid "Kichik esse" yozish.
3. "Individual rivojlantirish dasturi" bo'yicha ishlash.
4. "Kasbiy rivojlanish shkalasi" asosida tinglovchilarning pedagogik kompetentligi darajasini baholash.
5. "O'z-o'zini rivojlantirishning 36 qoidasi" asosida pedagoglar uchun amaliy tavsiyalarishlab chiqish.

Mashg'ulotning borishi

1. Mavzu yuzasidan blits-so'rov savollariga javob berish.

Blis-so'rov:

1. Lug'aviy ma'nosiga ko'ra "kompetentlik" –
2. Mazmuniga ko'ra "kompetentlik" –
3. Maxsus (kasbiy) kompetentlik –
4. Ijtimoiy kompetentlik –
5. Shaxsiy kompetentlik –
6. Individual kompetentlik –
7. Ekstremal kasbiy kompetentlik –
8. Технологик компетентлик –
9. Индивидуал ривожланиш дастури –

"Kichik esse" uchun taklif etiladigan mavzular:

1. Pedagogning o'z-o'zini baholashi.
2. Педагогнинг ўзини таҳлил қилиши.
3. Педагогнинг ўз-ўзини ривожлантириши

3. "Individual rivojlantirish dasturi" bo'yicha ishlash.

Individual rivojlantirish dasturi

Bilim, malaka va shaxsiy sifatlar	Mavjud daraja	Istiqbol vazifalar
Pedagogik bilimlar		
Psixologik bilimlar		
Mutaxassislik bilimlari		
Didaktik malakalar: bilishga oid (gnostik) loyihalash ijodiy-amaliy (konstruktiv) tadqiqotchilik muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ) tashkilotchilik izchillikni ta'minlovchi (protsesssual) texnik-texnologik malakalar		
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etish malakalari: bilishga oid (gnostik) loyihalash malakalari ijodiy-amaliy (konstruktiv) tadqiqotchilik muloqotga kiruvchanlik (kommunikativ)		

tashkilotchilik izchillikni ta'minlovchi (protsessual) texnik-texnologik malakalar		
Ruhiyatning kasbiy ahamiyatga ega xususiyatlari va shaxsiy sifatlar: pedagogik fikrlash tizimlilik moslashuvchanlik mobillik ijodkorlik hozirjavoblik hissiy rivojlanganlik pedagogik refleksiya		
O'z-o'zini rivojlantirish maqsadlari		
O'z-o'zini rivojlantirish uchun topshiriqlar		

4. “Kasbiy rivojlanish shkalasi” asosida tinglovchilarning pedagogik kompetentligi darajasini baholash.

Kasbiy rivojlanish shkalasi

№	Kasbiy kompetentlik sifatlari	Shkala ko'rsatkichlari									
		10	9	8	7	6	5	4	3	2	1
1. Ijtimoiy kompetentlik											
1)	ijtimoiy tashkilotlar va sub'ektlar bilan o'zaro munosabatda bo'la olish ko'nikma, malakalariga egalik										
2)	kasbiy muloqot va xatti- harakat uslublarini o'zlashtira olganlik										
2. Shaxsiy kompetentlik											
1)	doimiy ravishda kasbiy o'sishga erishish va kasbiy malakani oshirib borish										
2)	kasbiy faoliyatda o'z ichki imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olish										
3. Maxsus kompetentlik											
1)	mustaqil ravishda kasbiy- pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish										

2)	odatiy kasbiy-pedagogik vazifalarni to'g'ri hal qilish va o'z mehnatining natijalarini real baholash malakasiga egalik										
3)	mutaxassisligi bo'yicha yangi bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda izchil o'zlashtirib borish qobiliyatiga egalik										
4. Texnologik kompetentlik											
1)	kasbiy-pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni boyitadigan ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirish qobiliyatiga egalik										
2)	zamonaviy didaktik vositalar (texnik vositalar, o'quv qurollari)dan foydalanish malakasiga egalik										
5. Ekstremal kompetentlik											
1)	favqulotda holatlarda (tabiiy ofatlar sodir bo'lganda, texnologik jarayon ishdan chiqqanda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik										
2)	muammoli vaziyatlarda (pedagogik ziddiyatlar yuzaga kelganda) oqilona qaror qabul qilish, to'g'ri harakatlanish malakasiga egalik										

5. “O'z-o'zini rivojlantirishning 36 qoidasi” asosida pedagoglar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

O'z-o'zini rivojlantirishning 36 qoidasi:

1. Kamolot, takrorlanmas (yagona) bo'lishga intiling!
2. O'zingizni o'zingiz tahlil qilishga e'tibor qarating!
3. O'zingizga nisbatan talabchan bo'ling!

4. O'zingiz uchun goho dam olishni uyushtiring, "mehnatning quli" bo'lmang!

5. Boshqalarga achining, ammo, aslo o'zingizga achinmang!

6. Orzu-istaklaringizning quliga aylanmang!

7. O'zingiz uchun o'zgacha xos hayot tarzini yarating!

8. Muloqot madaniyatini o'zlashtiring!

9. Bosiqlik talab etilganda jiddiy, bosiq bo'ling!

10. O'z kuchingiz va qobiliyatingizga ishonang!

11. Vaqt tutqich bermaydi, shu bois uni qo'ldan boy bermang!

12. Xatolardan saboq chiqaring. Unutmang, hatto qirollar ham xatoga yo'l qo'yadi.

13. Ilm o'rganing!

14. O'tmishga boqmang, bugun bilan yashang va ertani o'ylang!

15. Mehnat insonni takomillashtirishini unutmang!

16. Harakatlaringizning izchil bo'lishiga erishing!

17. Bugun bajarish mumkin bo'lgan ishni ertaga qoldirmang!

18. Boshqalarni nima uchun kechirmasangiz, o'zingizni ham shular uchun kechirmang!

19. Kishining o'z ustidan hukmronlik qilishi, boshqalarning ustidan hukmronlik qilishi uchun garovidir!

20. Mukammal bo'lmaganliklari uchun o'zgalardan xafa bo'lmang!

21. Hissiyotingizni boshqaring, shundagina yengilmas bo'lasiz!

22. Ruhiy zo'riqish (stress)larni bartaraf etishni o'rganing!

23. Irodangizni chiniqtirib boring!

24. Tanangizni nazorat qila olsangizgina hukmdorga aylanassiz!

25. Kamchiliklaringizga qarshi kurashda mohir jangchi bo'ling!

26. "Oq qarg'a" bo'lishdan qo'rqmang!

27. O'z oldingizga aniq maqsad qo'yishni o'rganing!

28. Oliy maqsadlarga intilishni o'rganing!

29. Ko'pchilik o'miga ishlash – qorga yozish kabi befoyda ekanligini unutmang!

30. Tartib tartibli bo'lishning muhim omili!

31. O'zingizni himoya qilishni, g'ururli bo'lishni o'rganing!

32. Izzat talabligingizdan foydalanib, qirol bo'ling!

33. Hiyla-nayranglar qurboni bo'lmang!

34. Xatti-harakatlaringiz ustidan ichki sezgi (intuitsiya)ning ustun kelishiga yo'l qo'yib bering!

35. O'zingizga tez-tez "Nima uchun?" degan savolni berib turing!

36. Muvaffaqiyatsizliklardan cho'chimang – ular Sizni olg'a intilishga rag'batlantiradi!

Mashg'ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

5-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Pedagoglarda kasbiy mahoratni takomillashtirish.

Reja:

1. Mavzuga oid tushunchalar mohiyatini o'rganish.
2. Shaxsning pantomimik harakatlari va jestlari mohiyati bilan tanishish
3. M.Snayderning "Muloqot jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish" nomli testi asosida tinglovchilarning kommunikativ kompetentlikka egaliklarini aniqlash.
4. Pedagoglarda kommunikativ kompetentlikni rivojlantiruvchi amaliy mashqlarni bajarish.

Mashg'ulotning borishi:

I. Mavzuga oid tushunchalar mohiyatini o'rganish.

Blis-so'rov:

1. Muloqot (kommunikativlik) –
2. Muloqot madaniyati –
4. Pedagogik muloqot –
5. Muloqot orqali pedagogik ta'sir ko'rsatish –
6. Muloqot jarayonini boshqarish –
7. Pedagogik jarayonda yuzaga keladigan nizolar –
8. Педагогик жараёнда юзага келадиган ижобий низолар –
9. Педагогик мулоқот жараёнида юзага келадиган салбий низолар –
10. Kommunikativ qobiliyat –
11. Kommunikativ kўnikmalar –
12. Ўқитувчига хос kommunikativ kўnikmalar –

II. Shaxsning pantomimik harakatlari va jestlari mohiyati bilan tanishish.

Talabalar shaxsga xos xatti-harakatlar mohiyatini ifodalovchi quyidagi ma'lumotlar bilan tanishadilar:

Shaxsning pantomimik harakatlari va jestlari mohiyati

1. **Agressiya yoki o'ziga bo'lgan qat'iy ishonch** – ikkala qo'lni orqa tomonda, oyoqlarni yelka kengligidan bir oz kengroq tutish.
2. **Mensimaslik, boshqalarga nisbatan o'zini katta tutish** – oyoqlarni yelka kengligidan biroz kengroq tutib, qo'l panjalarini bir-biriga boshning orqa tomonida tutashtirish.
3. **Aybdorlik, qo'rquv** – oyoqlar bir-biriga yaqin qo'yib, bir oyoqning tizzasini va boshni biroz egish, pastga qarash.
4. **Ishonmaslik, mensimaslik, o'zini yuqori tutish** – bosh biroz orqaga tashlab, nigohni suhbatdoshga tepadan yo'naltirish.
5. **Qiziquvchanlik** – boshni biroz chap yoki o'ng tomonga egish.

6. Qo'zg'olishga tayyor turish, olingan buyruqni darhol bajarish – stol chetiga o'tirgan holda, tovonni biroz ko'tarib turish.

7. Oyoqni kerib o'tirish – o'ziga ishonish, mustaqil fikrga ega bo'lish.

8. O'tirgan holda bir oyoq uchini eshikka qaratish – suhbatdan qoniqmaslik, chiqib ketish fikrida ekanlikni namoyon etish.

9. O'tirgan holda oyoqlar pastki qismining bir-biriga tegib turishi – hayajonlanish, shoshilish.

10. Birdan turib ketish – suhbatdan sovish, bir qarorga kelish, zerikish.

11. Tirsaklarni stolga tiragan holda qo'lning bosh barmog'i bilan jag'ni tutib turish – mensimaslik, biror narsaga tanqidiy yondashish.

12. Jag'ni qo'l kaftlari bilan ushlab turish – zerikish.

13. Oyoqlarni chalishtirib, qo'l panjalarini bir-biriga bog'lagan holda oyoq tizzasini ushlab turish – o'ylanish.

14. Qo'llarni musht qilgan holda silkitish – masalaga salbiy munosabatda bo'lish.

15. Qo'lni musht qilgan holda ko'rsatkich barmoqni tik ("begiz") qilgan holda gapirish – asl niyatning aytilayotgan fikrlarga mutlaqo teskari ekanligi.

16. Kaftni yozib, tik holda qo'lini oldinga uzatish – sabr qilishni, jim turishni talab etish.

17. Ustki kiyimning biror joyini ushlash yoki tugmalarni yechish – suhbatdoshlarga nisbatan ochiq, samimiy munosabatda bo'lish.

18. Suhbatdoshning savollariga javob bera turib, burnini qashlash – aldash yoki ishonmaslik.

19. Gapirayotganda boshni dam-badam qashlash – tashvishlanish, uyalish.

20. Jag'ni qashlash – javob berish yoki bermaslik haqida o'ylanish.

21. Tirnoqlarni tishlash – xijolatpazlik.

22. Ruchka yoki ko'zoynakni artish – javob berish oldidan o'ylanish.

23. Biron narsa (stol, parta, kafedra)ga suyanish – og'ir vaziyatga tushib qolganlik va undan chiqish yo'llarini izlash.

24. Ustki kiyimdan nimanidir qoqish – mavjud vaziyatni yoqtirmaslik.

25. O'ng va chap qo'l barmoqlari uchlarini mos holda birlashtirish – diqqatni jamlash, masalaga jiddiy yondashish.

26. Oyoqlarni, shuningdek, qo'llarni ko'krak oldida chaltishtirish yoki o'ng va chap qo'l barmoqlarini bir-biriga bog'lash – suhbatdoshga nisbatan yopiqlik, ehtiyotkorlik.

27. Qo'l kaftlarini bir-biriga ishqash, oyoq tovonlarini ko'targan holda qimirlatib turish – asabiylik, bezovtalik, norozilik.

28. Yelkaga qoqib qo'yish – ruhiy yaqinlik, dalda berish.

29. Qo'lni mahkam siqish – do'stlik, hamkorlikni ifodalash.

30. Qo'l uchida salomlashish – yoqtirmaslik, yomon ko'rish, jirkanish.

31. Boshni silab qo'yish – erkalatish, yoqtirish.

32. Labni yalash – yolg'on gapirish, qo'rquv.

33. Labni tishlash – hijolat bo'lish, uyalish.

M.Snayderning “Muloqot jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish” nomli testi asosida tinglovchilarning kommunikativlik kompetentligiga egaliklarini aniqlash.

“Muloqot jarayonida o'z-o'zini nazorat qilish”

(M. Snayder testi)

Ko'rsatma: quyida berilgan holatlarni diqqat bilan qayta o'rganib chiqing. Ularning har biriga bo'lgan mulohazalaringizni “to'g'ri” (T) yoki “noto'g'ri” (NT) mazmundagi javoblar bilan belgilang va maqbul variantlarni doira ichiga oling.

Holatlار	1	0
Menimcha, boshqalarning xatti-xarakatlariga taqlid qilish juda qiyin	NT	T
Boshqalar e'tiborini tortish yoki ularni kuldirish uchun jinnilik qilishim mumkin	T	NT
Mendan yomon aktyor chiqmagan bo'lardi	T	NT
Mening holatim boshqalarga, garchi unday bo'lmasa-da, nima haqidadir chuqur qayg'urayotgandek taassurot qoldiradi	T	NT
Men do'stlar davrasida kamdan kam e'tibor markazida bo'laman	NT	T
Turli xil insonlar bilan muloqotda men o'zimni turlicha tutaman	T	NT
Men faqat o'zim qattiq ishongan yoki yaxshi bilgan narsalar to'g'risida baxslashishim mumkin	NT	T
Ishda va atrofgilar bilan muloqotda men o'zimni ular xohlaganday tutaman yoki shunday bo'lishga xarakat qilaman	T	NT
Men o'zim yoqtirmaydigan kishilar bilan ham do'stona munosabatda bo'la olaman	T	NT
Men qanday bo'lsam shundayman	T	NT

Natijalarni hisoblash: 1) birinchi ustunda doiraga olingan harflarni hisoblab chiqing (ularning har biri 1 ballga teng), natija Sizning yakuniy ballingizdir;

2) to'plangan ballar tahliliga kirishing.

Ballar miqdori quyidagilarni anglatadi:

0-3 ball – Siz kirishimli emassiz, aksincha, cho'rstkesarsiz va bundan faxrlanasiz. Siz biror kimsa yoki biror narsaga moslasha olmaysiz. Biroq, muloqot jarayonida muloyim va ochiqko'ngilsiz. Ko'pchilik Sizni shuning uchun yaxshi ko'radi. Ayrimlar sizni “qo'rs” inson deb biladilar. Bu o'quvchilar bilan ishlashda noqulayliklar tug'dirishi mumkin,

4-6 ball – Siz o'rtacha darajada muloqot qilish layoqatiga egasiz. Muloqot chog'ida yetarlicha samimiy bo'la olasiz va aytadigan so'zlaringizni

obdon o'ylaysiz. Odatda muloqot jarayonida Siz uchun muammolar tug'ilmaydi.

7-10 ball – Sizda muloqotni yuqori darajada nazorat qila olasiz va “Butun dunyo – teatr, insonlar esa – aktyorlar” degan fikrga to'la qo'shilasiz. Vaziyat o'zgarishini xotirjamlik qabul qilasiz va atrofdagilarga ko'rsatadigan ta'siringizni yaxshi his qilasiz. Ba'zan jo'rttaga shunday qilasiz. Siz o'zingizni qachon va qaerda qanday tutishni juda yaxshi bilasiz. Kasbiy muloqot siz uchun muammo emas, ammo gap chuqur munosabatlar haqida ketganda, Siz o'zingizni odatiy niqoblaringizsiz noqulay sezasiz.

III. Kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish uchun quyidagi mashqlarni bajarish.

1. “Yaqindan tanish bo'lmagan ota-onalar bilan suhbat” mashqi.

Guruh a'zolari bilan avval yaqindan tanish bo'lmagan ota-onalar bilan muloqot qilish jarayonini tasvirlashga urinib ko'ring. Suhbat mavzusini o'ylab oling. Buning uchun ikki varintda ish ko'ring: 1) ota-onalar bilanshaxsan o'zingiz uchrashib, suhbatlashing; 2) ota-onalar bilan o'quvchingiz ishtirokida uchrashib, suhbatlashing (topshiriqni bajarishda qarama-qarshi tomonlar, shu jumladan, o'quvchi bilan ham faol muloqotda bo'lishga alohida e'tibor qarating; yaqinda ishga kelgan hamkasbingiz bilan tanishish jarayonining ham mohiyatini yoriting).

2. “Tortinchoq talabalar bilan muloqot” mashqi.

Tortinchoq o'quvchilar bilan muloqotni tashkil eting. Mashq jarayonida o'quvchilardagi o'ziga nisbatan ishonchsizlik, hadik va qo'rquvni yengishlari uchun imkoniyat yarating. Buning uchun mimika, pantomimika va jestlardan, rag'batlantiruvchi so'zlardan foydalaning. Bu kabi o'quvchilar bilan muloqotga kirishishning psixologik jihatlarini tahlil qiling.

3. “Kirishimli o'qituvchi” mashqi.

Agarda kirishimli shaxs bo'lmasangiz, u holda kirishimli, so'zamol o'qituvchi rolini bajarishga urinib ko'ring. Siz rahbar etib tayinlangan sinf o'quvchilari bilan ilk marta tanishish jarayonini tashkil eting. O'quvchilar bilan yaqindan tanishishning o'ziga xos shakllarini taklif qiling.

4. “Mavjud kayfiyatni saqlab qolish” mashqi.

Kayfiyatingiz a'lo darajada. Dars yoki tarbiyaviy ishlar jarayonida bunday kayfiyatingizning o'quvchilar, hamkasblaringiz yoki rahbarlar tomonidan buzilishining oldini olish chora-tadbirlarini ko'ring (bunday vaziyatda yo'l tutish shakllarining ro'yxatini tuzing).

5. “Hayotiy vaziyatlar” mashqi.

Maqsad: talabalarda turli hayotiy vaziyatlarni borligicha, aslidek, tabiiy qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

Ko'rsatma: Sizning hayotingizda turli-tuman hayotiy vaziyatlar sodir bo'lgan. Ularning ayrimlari ijobiy, ayrimlari esa salbiy mazmunga ega. Ayni vaqtda Sizga hayotingizda sodir etilgan hayotiy vaziyatlarning jadvalini

yaratish topshirig'i beriladi. Jadvalda to'rtta ustun hosil qilib, ularning birinchisini "Ijobiy ahamiyatga ega hayotiy vaziyatlar", uchinchisini "Salbiy xarakterga ega hayotiy vaziyatlar" deb nomlang. Ikkinchi va to'rtinchi ustunlarni esa "Ularning oqibatlarini" deb nomlab, hayotiy vaziyatlar Sizga nimalarni taqdim etganligini, buning natijasida o'zingizda qanday fazilat (sifat yoki illat) shakllanganligini tahlil qiling. Jadvalni to'ldirishni tug'ilganingizdan boshlab, to 7 yoshgacha bo'lgan davrda hayotingizda sodir bo'lgan voqea-hodisalardan boshlang. Eslashga harakat qiling: qanday hayotiy vaziyatlarga duch kelgan va ularni qanday baholagansiz.

6. Diqqat va kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun quyidagi mashqlarni bajaring.

O'qituvchilarda pedagogik kuzatuvchanlikni rivojlantirish uchun eng avvalo ularni diqqat yaxshi rivojlanishi lozim. Bunda diqqatni yo'naltirish, yig'ish va taqsimlashni, suhbatdoshlar shaxsi (jestlari, mimikasi, harakat sur'ati, ovoz ohangi va boshqalar)ning namoyon bo'lishini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunga erishishning eng asosiy yo'li – doimiy ravishda mashq qilish va tajriba to'plab borish sanaladi.

6.1. "Tavsiflar egasini toping" nomli mashq.

Guruhdagi 1-2 nafar tengdoshingizni bir necha vaqt davomida kuzating. Kuzatish natijalarini yozib boring. Kuzatish natijalari asosida tengdoshlaringizning asosiy sifatleri, tarbiyalanganlik darajasi (m: tartibliligi, mas'uliyati, jamoa bilan birligi va boshqalar) to'g'risida xulosalar chiqaring. O'z fikrlaringizni boshqalarning mulohazalari bilan solishtiring.

6.2. "Barqaror diqqat" nomli mashq.

Guruhdagi tengdoshlaringiz yoki o'quvchilaringiz (pedagogik amaliyot jarayonida) misolida diqqatingiz barqarorligini tekshirib ko'ring. Tasavvur qiling, o'zingiz uchun mutlaqo notanish o'quvchilar (talabalar) jamoasiga kirib qoldingiz. Jamoada kim bilimdon, kim manman, xudbin yoki tortinchoq ekanligini, kimning o'ziga xos "xobbisi" borligi, kimning hech narsaga qiziqmasligini, kimning jamoada qanday "rolni o'ynashi"ni topishga urinib ko'ring.

6.3. "Tavsiflar egasini toping" nomli topshiriq.

Guruhning biror bir a'zosi kayfiyatini yozma ravishda bayon eting. Topshiriq bajarilgach, talabalar o'zlarining bayonlarini o'qiydilar. Bayon etilgan holatlar asosida kayfiyat egasi topiladi.


6.4. "O'zingizni sinab ko'ring" nomli topshiriq.

Talabalarga hisob-kitobga doir matematik topshiriq (qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lishdan iborat misol) beriladi. Ular topshiriqni

bajarishayotgan bir vaqtda o'qituvchi monolog yoki she'rlar o'qiydi. Topshiriqni bajarib bo'lganlaridan keyin talabalar misolning yechimini va o'qituvchi tomonidan o'qilgan monolog yoki she'rlarning mazmunini, g'oyasini aytishlari kerak.

6.5. “Qanday xotiraga egasiz” nomli mashq.

Quyidagi geometrik figura va ulardagi raqamlar¹ni bir sekunda yodda saqlab qolishga harakat qiling va mavjud holatni qog'ozda aynan takrorlang:







Quyidagi savollarga javob bering:

- 1) qanday figuralarni eslab qoldingiz?
- 2) qaysi raqamlarni eslab qoldingiz?
- 3) qanday figura ichidagi qaysi raqamni eslab qoldingiz?

9. “Napoleoncha xotira” nomli mashq.

1. Berilgan figuralarga quyidagi raqamlarni qo'yib chiqing:
- 2.



Mashg'ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

6-amaliy mashg'ulot

Mavzu: Pedagoglarda kryeativ qobiliyatni rivojlantirish.

Reja:

1. Maxsus testlar yordamida pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini o'rganish.
 2. Pedagogik kreativlikni rivojlantirishga doir topshiriqni bajarish.
 3. E.P.Torrensning "Tugallanmagan rasmlar" testi bilan ishlash.
- Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko'rsatmalari bilan tanishish va u yuzasidan muhokama tashkil etish.

Mashg'ulotning borishi:

1. "To'ldirilgan hikoya" testi yordamida pedagogning kreativlik sifatlariga egaligini o'rganish.

"To'ldirilgan hikoya" testi

Test har biri 8 ta rasmdan iborat ikkita to'plam asosida tashkil etiladi. Hikoyaning qahramoni – Ferdinand nomli shaxs. Testning maqsadi ta'lim oluvchilarning Ferdinandning odatiy kundalik hayotida ro'y bergan ikki hodisalarning mohiyatini qanchalik to'g'ri anglay olishlarini aniqlashdan iborat.

Ferdinand oilali, uning rafiqasi va o'g'li bor. U korxonalardan birida rahbar bo'lib ishlaydi. Shu sababli ikkinchi hikoyada uning qo'l ostida ishlaydigan xodimlari ham ishtirok etadi.

Har ikki to'plam testlarida birinchi qatorda joylashgan to'rtta rasm orqali Ferdinandning hayotida ro'y bergan voqealarning izchilligi aks ettirilgan. Biroq, bu qatorda bitta rasm tushirib qoldirilgan. Sizlar ikkinchi qatorda berilgan yana to'rtta rasm orasidan birinchi qatordan tushirib qoldirilgan rasmni joyiga qo'yish talab etiladi. Tegishli rasm o'z joyiga qo'yilgach, Ferdinand bilan bog'liq voqeaning mazmuni to'la anglanadi.

Tinglovchilarning xatti-harakatlari ikki holatni yuzaga keltiradi:

- 1) bordi-yu, tegishli rasm to'g'ri topilsa, personajlarning his-tuyg'ularini to'g'ri anglanadi va Ferdinandning hayotida ro'y bergan voqeaning mazmuni ham to'g'ri tushuniladi;
- 2) agarda tegishli bo'lmagan rasm bo'sh katakka qo'yilsa, u holda voqeaning izchilligi ta'minlanmaydi.


Demak, e'tiboringizga havola etilayotgan rasmlarni diqqat bilan ko'zdan kechiring va bo'sh katakni tegishli rasm bilan to'ldiring!

Har bir test bilan ishlashingiz uchun Sizlarga 10 daqiqa vaqt beriladi. Reglament tugashiga bir daqiqa qolganda Sizlarni ogohlantiramiz. Topshiriqni imkon qadar tez bajarishga harakat qiling. Bir topshiriq uchun ko'p vaqt ajratmang. Garchi javobni noto'g'ri deb hisoblasangiz-da, uni bayon eting!

1-variant




2-variant



2. “Qishloqda bir kun” testi bo’yicha tinglovchilarning tasavvur darajasini o’rganish.

Surat bilan tanishib chiqing va beriladigan savollarga javob qaytaring.



1. Paraxod darayoda oqimga qarab harakatlanyaptimi yoki oqimga teskari tomongami?

2. Suratda yilning qaysi fasli tasvirlangan?

3. Bu yerda daryoning o'zani chuqurmi yoki sayoz?

4. Paraxodlar to'xtash joyi bu yerdan uzoqmi, yaqinmi?

5. Paraxodlar to'xtash joyi sohilning qaysi tomonida joylashgan?

6. Rassom suratda kunning qaysi vaqtini tasvirlagan?

Suratni diqqat bilan ko'zdan kechirib berilgan savollarga to'g'ri javob qaytarish mumkin bo'lgan belgilarni toping. Barcha ob'ektlar o'rtasida o'zaro bog'liq bo'lgan 9 ta belgi (aloqa)ni toping. O'z mulohazalaringizni daftarga yozing.

Tinglovchilar har bir to'g'ri javob uchun 2 ballni qo'lga kiritadi. Suhbat yakunida barcha ballar jamlanadi.

Agar Siz 6 ta savolning barchasiga to'g'ri javob qaytarib, ob'ektlar o'rtasidagi o'zaro aloqador 9 ta belgi (aloqa)ni topgan bo'lgangiz, u holda Sizning tasavvur darajangiz yuqori, agarda 3-4 belgi (aloqa)ni topgan bo'lsangiz, tasavvur darajangiz o'rtacha, bordi-yu, 1-2 ta belgi (aloqa)ni topgan bo'lsangiz, demak, Sizning tasavvur darajangiz past.

3. Pedagogik kreativlikni rivojlantirishga doir topshiriqlarni bajarish.

1. Ob'ektni shakllantirishga oid topshiriq

Kasbiy faoliyatingizga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo bog'liq bo'lmagan ixtiyoriy 3-4 ta predmetni oling. Ular asosida imkon qadar ko'proq "hodisa"lar haqida hikoya (xabar) qiling. Hikoya (xabar)ingiz imkon qadar badiiylik kasb etsin!

Misol uchun: devor, velosiped, osmon.

Hodisa: "Bola uy yo'lagining devoriga suyab qo'yilgan velosipedni yetaklab, deraza oldiga keldi va osmonga qaradi" (jumlada ifoa etilgan hodisa shunchaki xabar. Hodisaning mohiyati ijodiy xarakter kasb etishi uchun badiiy ibora va o'xshatishlardan foydalanish zarur.

2. Ob'ektlarning umumiy belgilarini topishga oid topshiriq

Kasbiy faoliyatingizga taalluqli, biroq, bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan 2 ta ob'ektni oling. Quydagi jadval asosida ularga taalluqli o'zaro o'xshash jihat (belgi)larni topishga harakat qiling. O'xshash jihat (belgi)larni ot yordamida ifodalang. O'zaro o'xshash o'xshash jihat (belgi)larning imkon qadar ko'proq bo'lishiga harakat qiling.

Namuna

Bir-biri bilan mutlaqo kam bog'langan yoki mutlaqo bog'lanmagan ob'ektlar	
Tarbiyaviy tadbir	Sayohat

4. Ob'ektning muqobillari yoki unga zid bo'lgan ob'ektlarni topishga oid topshiriq

Kasbiy faoliyatingizga taalluqli bir ob'ektni oling. Ikki ustunli jadvalni shakllantiring. Birinchi ustunga muqobili, ikkinchi ustunga esa doir zidi bo'lgan ob'ektni qayd eting. Ularning xususiyatlarini tizimlashtiring.

Namuna


Vertolyot	
Samolyot	Olov

5. E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi bo'yicha ishlash

Amerikalik psixolog E.P.Torrens tomonidan asoslangan “Tugallanmagan rasmlar” testi yuzasidan ishlashga oid topshiriq.

Tinglovchilarning e'tiborlariga E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi havola etiladi va berilgan shtrixlarga tayangan holda to'laqonli rasm (surat)ni ishlash topshirig'i beriladi.

E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi



6. Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko'rsatmalari bilan tanishish va u yuzasidan muhokama tashkil etish.

Tinglovchilarning e'tiborlariga Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko'rsatmalari havola etiladi va u bilan batafsil tanishib chiqish tavsiya etiladi. Ko'rsatmalar bilan tanishibgach, jamoada muhokama tashkil etiladi.

Muhokama uchun savollar:

1. Devid Lyuis ko'rsatmalarining ahamiyatini Siz qanday baholaysiz?
2. Shaxsiy hayotingizda ko'rsatmalardan qaysilariga rioya etasiz?
3. Shaxsiy hayotingizda ko'rsatmalardan qaysilariga e'tibor qaratmagansiz?
4. Ko'rsatmalar bilan tanishish asosida shaxsan Siz qanday xulosalarga keldingiz.
5. Sizningcha, ko'rsatmalardan eng ahamiyatlisi qaysi?

Devid Lyuisning bolalarda kreativlikni rivojlantirishga oid ko'rsatmalari

1. Bolalarning savollariga chidam bilan to'g'ri javob bering.
2. Ularning savollari va fikrlarini jiddiy qabul qiling.
3. Bolalarga o'z ishlari bilan shug'ullanishlari uchun alohida xona yoki burchak ajrating.
4. Agarda ijodiy jarayon bilan bog'liq bo'lsa, u holda bolani xonadagi tartibsizlik uchun koyimang.
5. Vaqti-vaqti bilan bolalarga ularni yaxshi ko'rishingizni va ularni qanday bo'lsalar, shunday qabul qilishlarini namoyon eting.
6. Bolalarga imkoniyatlariga mos yumushlarni buyuring.
7. Ularga shaxsiy rejalarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishga ko'maklashing.
8. Bolalarga faoliyatlarda yuqori natijalarga erishishlariga yordam bering.
9. Kamchiliklarini ko'rsatgan holda bolani boshqalar bilan solishtirmang.
10. Bolani kamsitmang va o'zini yomon, ojiz deb hisoblashishiga yo'l qo'ymang.
11. Uni mustaqil fikrlashga o'rgating.
12. Bolani sevimli mashg'ulotini tashkil etishi uchun zarur buyumlar bilan qurollantiring.
13. Uni turli voqealarni o'ylab topishga, fantaziya qilishga majburlang, bu jarayonda unga yordamlashing.
14. Bolani yoshlikdan o'qib-o'rganishga odatlantiring.
15. Doimo bolaning ehtiyojlariga e'tibor qarating.
16. Har kuni bola bilan yuzma-yuz suhbatlashish uchun vaqt toping.
17. Oilaga oid masalalarning muhokamasiga bolalarni ham jalb qiling.

18. Xatolari uchun bolani masxara qilmang.
19. Bolani har bir yutug'i uchun maqtang.
20. Uning yutuqlarini maqtashda samimiy bo'ling.
21. Bolani turli yoshdagi kishilar bilan muloqot qilishga o'rgatib boring.
22. Uning borliqni anglashiga yordam beradigan amaliy tajribalarni o'ylab toping.
23. Bolaga turli latta-puttalar bilan o'ynashni taqiqlamang – bu uning tasavvurini boyitadi.
24. Uni muammoni topish va uni hal qilishga rag'batlantiring.
25. Bolaga nisbatan o'z munosabatingizni baholashda odil bo'ling.
26. U bilan muhokama qilinadigan mavzularni cheklamang.
27. Bolaga qarorlarni mustaqil qabul qilish va uning uchun javobgar bo'lish imkonini bering.
28. Bolaga uning shaxs bo'lib shakllanishi uchun yordam bering.
29. Bolaga uning uchun foydali bo'lgan teleko'rsatuvlarni tomosha qilishi va radio eshittirishlarni tinglashi uchun ko'maklashing.
30. Uni o'z qobiliyatlarini ijobiy qabul qilishga odatlantirib boring.
31. Bolani kattalardan mustaqil bo'lishga o'rgatib boring.
32. Bolaning o'ziga va uning sog'lom fikrga egaligiga ishonib.
33. Bolaga “Men ham buni bilmayman” deb, uni muvaffaqiyatsizliklarga bee'tibor bo'lishga o'rgatmang.
34. Bolaga, garchi u ishning ijobiy natijaga ega bo'lishiga ishonmasa-da, boshlangan ishni oxiriga yetkazishi uchun imkoniyat yarating.
35. Kundalik daftar yuriting va unga bolada kreativ qobiliyat shakllanishini qayd etib boring.

Mashg'ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg'ulot yakunlanadi.

7-8-Amaliy mashg'ulot
Mavzu: Ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogik mahorat.

6-амалий машғулот

Мавзу: Илғор таълим технологиялари ва педагогик маҳорат

- олий таълим тизимини модернизациялашнинг устувор йўналишларини;
- “педагогик технология”, “инновацион таълим технологиялари” тушунчасининг моҳияти ва илмий асосларини;
- инновацион жараёнларнинг кечмиш босқичларини;
- педагогик технологиянинг таснифи, қонуниятлари, тамойиллари ва мезонларини;
- олий таълим муассасаларида ўқув жараёнини ташкил этишнинг шакл, метод ва воситаларини;
- ўқув жараёнини ташкил этишнинг замонавий услублари соҳасидаги сўнгги ютуқларни;

- таълим-тарбия жараёнини технологиялаштириш асосларини;
- инновацион таълим технологияларининг йўналишлари ва турларини;
- шахсга йўналтирилган таълим технологияларининг мазмуни, йўналишларини;
- замонавий таълим ва инновацион технологиялар соҳасидаги илғор хорижий тажрибаларни;
- **педагогнинг психологик, методик, информацион, креатив, инновацион компетентлиги мазмуни ва тузилишини;**
- **педагогик маҳорат ва унинг таркибий қисмларини;**
- **педагогик деонтология асосларини;**
- **нутқ техникаси ва риторика асосларини билиши;**

- таълим олувчи шахсини билиш, таълим жараёнида шахс сифатларининг намоён бўлиши учун зарур шарт-шароитларни яратиш ва шахс сифатларини баҳолай олиш;
- таълимнинг инновацион шакл, метод ва воситаларидан ўқув жараёнида фойдалана олиш;
- очик маъруза, амалий машғулотларни лойиҳалаштириш, ташкил этиш ва рефлексия;
- ўқув жараёнини ташкил этиш ва унинг сифатини таъминлаш борасидаги илғор тажрибалар, замонавий ёндашувларни таҳлил этиш ва улардан педагогик фаолиятда самарали фойдалана олиш;
- ўқув машғулотлари (лекциялар, амалий машғулотлар, лаборатория машғулотлари, курс ишлари лойиҳалари, малака бўйича амалий машғулотлар) ни самарали ташкил этиш;

- самарали замонавий таълим ва инновация технологиялари, илғор хорижий тажрибаларни таҳлил эта олиш ва ўқув жараёнига кенг татбиқ этиш;
- шахсга йўналтирилган таълим технологияларини амалиётда қўллай билиш;
- таълим олувчиларнинг билиш фаоллигини фаоллаштириш ва жадаллаштириш асосидаги таълим технологиялари (амалий ўйинлар, муаммоли ўқитиш, таянч сигналлар орқали ўқитиш, истикболли ўқитиш, табақалаштирилган ўқитиш ва бошқ)ни ўқув-тарбия жараёнларига татбиқ этиш;
- ўқитишнинг модулли таълим технологияларидан самарали фойдаланиш;
- интерфаол таълим методлари, график органайзерлардан ўқув жараёнида фойдаланиш;
- кейслар банкини яратиш ва ўқув фаолиятида фойдаланиш;

- электрон ўқув модулларини яратиш;
- педагог портфолиоси ва силлабусларни ярата олиш;
- чет тилларнинг бирида соҳага оид терминлардан машғулотларда эркин фойдаланиш;
- ўқув машғулотларини ташкиллаштириш ва олиб боришда ахборот-коммуникация технологиялари имкониятидан фойдаланиш;
- **аудиторияда шахслараро муносабатларни самарали ташкил этиш ва гуруҳни оптимал бошқариш;**
- **педагогик фасилитацияни йўлга қўйиш;**
- семинар-тренинглар, кичик гуруҳларда ишлашни ташкил эта олиш;
- **таълим жараёнида эркин, ижодий муҳитни ташкил эта олиш;**
- ўқув лойиҳалари, портфолиолар, аутентик материалларни ярата олиш ва ўқув мақсадларига йўналтириш;

- **таълим жараёнидаги педагогик низоларни бартараф этиш;**
- **коммуникатив компетентлик, педагогик жараёнда мулоқот услубларини тўғри танлаш ва улардан самарали фойдаланиш;**
- **касбий фаолиятида замонавий педагог имиджини ярата олиш;**
- **овоз тони, темпини тўғри танлаш ва нутқнинг софлигини таъминлаш;**
- **талабалар билан ижодий, таълимий ҳамкорликни йўлга қўйиш;**
- талабалар мустақил таълимини самарали ташкил этиш ва баҳолаш;
- **замонавий талаблар асосида ўз-ўзини касбий ва шахсий такомиллаштириб бориш кўникма ва малакаларига эга бўлиши керак.**

Ўзингизни текшириб кўринг...

Тушунчалар	Тушунчалар мазмуни	Қўшимча маълумот
Таълим сифати		
Классификатор		
Ўқув режаси		
Якуний давлат аттестацияси		
Стажировка		
Компетентлик		

Ўзингизни текшириб кўринг...

Тушунчалар	Тушунчалар мазмуни	Қўшимча маълумот
Таълим сифати		Таълим натижаларининг шахс, давлат ва жамият эҳтиёжларига муттаносибчилиги
Классификатор		Олий маълумотли кадрлар тайёрлаш йўналишлари ва мутахассисликларининг тизимлаштирилган рўйхати
Стажировка		Тажриба орттириш (ишлаб чиқаришда, илмий-тадқиқот муассасасида, хорижда тажриба орттириш)
Ўқув режаси		Ўқув фаолияти турлари, ўқув фанлари ва курсларининг таркиби, уларни ўрганишнинг изчиллиги ва соатлардаги ҳажмини белгилайдиган ҳужжат
Якуний давлат аттестацияси		Малака талабларига мувофиқ ҳолда битирувчи томонидан олий таълим ўқув режа ва дастурларининг бажарилиши сифатини баҳолаш
Компетентлик		Фаолият талабларига яроқлилик, лаёқатлилик, мослик

Ўзингизни текшириб кўринг...

Тушунчалар	Тушунчалар мазмуни	Қўшимча маълумот
Таълим сифати		Таълим натижаларининг шахс, давлат ва жамият эҳтиёжларига муттаносибчилиги
Классификатор		Олий маълумотли кадрлар тайёрлаш йўналишлари ва мутахассисликларининг тизимлаштирилган рўйхати
Стажировка		Тажриба орттириш (ишлаб чиқаришда, илмий-тадқиқот муассасасида, хорижда тажриба орттириш)
Ўқув режаси		Ўқув фаолияти турлари, ўқув фанлари ва курсларининг таркиби, уларни ўрганишнинг изчиллиги ва соатлардаги ҳажмини белгилайдиган ҳужжат
Якуний давлат аттестацияси		Малака талабларига мувофиқ ҳолда битирувчи томонидан олий таълим ўқув режа ва дастурларининг бажарилиши сифатини баҳолаш
Компетентлик		Фаолият талабларига яроқлилик, лаёқатлилик, мослик

Компетентлик тушунчасига таърифлар:

Таъриф	Муаллиф
Назарий билимлар тўпламини эгаллаб, аниқ вазифа ёки ҳолатларни ҳал қилишда уларни амалга жорий қилишда дуч келадиган жиддий қийинчиликларни бартараф қилиш қобилияти	А.Хуторский
Талаба томонидан алоҳида билим ва малакаларнинг эгалланиши эмас, балки ҳар бир мустақил йўналиш бўйича интегратив билимлар ва амалий ҳаракатларнинг ўзлаштирилишидир	Н.Муслимов

И.Зимняя эса компетентликнинг асосий учта гуруҳини ажратиб кўрсатади:

- 1) ҳаёт фаолияти субъекти ҳисобланувчи шахснинг ўзига таалуқли бўлган компетентлик;
- 2) инсоннинг бошқалар билан ўзаро алоқаларига таалуқли бўлган компетентлик;
- 3) инсон фаолиятининг барча турлари ва шаклларида намоён бўладиган компетентлик.

Касбий компетентлик ва педагогик компетентлик



Касбий компетентлик ва педагогик КОМПЕТЕНТЛИК

Муайян касбий
фаолиятни амалга
оширилиши учун
зарур бўлган билим,
кўникма, малака ва
фаолият тажрибасининг
манتيкий йўналишлари
тўплами

Педагогик фаолиятдаги
реал вазиятларда
учрайдиган касбий
педагогик муаммо ва
вазифаларнинг самарали
ечимини таъминлайдиган
шахсий сифатлар ҳамда
касбий соҳанинг таянч
талаблари тўплами


Компетентлик (Competence):

- **таянч компетентлик** (таълимнинг гуманитар, ижтимоий-иқтисодий мазмунига кўра);
- **фанлараро компетентлик** (касбий тайёргарликнинг ўқув фанлари ва таълим блокларининг маълум доиралигига кўра);
- **предмет (фан) салоҳияти** (ўқув фанлари доирасида шаклланиш бўйича аниқ ва маълум имкониятга эгалигига кўра).

Компетентлик ва компетенция тушунчалари:

- “Компетенция”- билим, тасаввур, ҳаракатлар алгоритми, қадриятли муносабатлар тизимидан ташкил топади;
- “Компетентлик” – мазкур жиҳатларнинг фаолиятда намоён бўлиши. (И.А.Зимняя)





9-10-AMALIY MASHG'ULOT

Mavzu: Innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirish
1-topshiriq mazmuni. "O'quv jarayonini innovatsion yondashuv asosida tashkillashtirish" g'oyasini "SWOT – tahlil" asosida tahlil qilish.

Eslatma: topshiriqni bajarishda "SWOT – tahlil" jadvalidan foydalaning va qoidasiga amal qiling.

Topshiriqni bajarishga 15 daqiqa ajratiladi.

"SWOT - tahlil" jadvali

S	W
O	T

Qoidaga ko'ra, SWOT tahlil muvaffaqiyatni tashkillashtirishiga bog'liq bo'lmay, balki muhokamaning natijalari kelgusidagi aniq taklif va loyihalarni ishlab chiqishda hisobga olinishi mumkin. Bunday ketma-ketliklar quyidagicha bo'lishi kerak:

	<i>Tahlil tarkiblari</i>	<i>Natijalarni amalga oshirishning xususiyatlari</i>
S	Kuchli tomonlari (tashkillashtirishning ichki manbalari)	- barqaror rivojlanishning asosiy mexanizmi bo'lib xizmat qiladi; - yangi loyihalar asosi hisoblanadi; - to'siqlarni yengib o'tishning yo'li bo'lishi mumkin.
W	Kuchsiz tomonlari (tashkillashtirishning ichki muammolari)	- tashkillashtirish faoliyati aynan shularni yengib o'tishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim; - yangi loyihalar uchun eng muhim maqsad hisoblanadi; - rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda albatta hisobga olinishi zarur;
O	Imkoniyatlar (tashqaridan)	- moliyalashtirish va qo'llab quvvatlashning qo'shimcha ko'rsatkichi yoki tashqi manba bo'lib xizmat qiladi, - ular tashkillashtirishning maqsadi bilan yoki qanchalik murosaga kelishishi bilan qanchalik mos kelishini hisobga olish zarur bo'ladi; - yangi loyihalarning asosiy xudud hamkorlikni izlash manbasi bo'lishi mumkin.
T	Xavflar (tashqaridan)	- Har bir yangi loyihada hisobga olinishi zarur; - ularni yengib o'tish yoki betaraf etish yo'llari ishlab chiqilishi kerak; - ba'zida mantiqqa mos kelmaydigan "raqiblar" "ittifoqchilarga" aylanishi bo'lishi mumkin.

“SWOT

tahlil” jadvalining nomi inglizcha so'zlarning bosh harflari dan tuzilgan:

Strengths – kuchli tomoni, tashkillashtirishning ichki manbalarini mavjudligi nazarda tutiladi;

Weakness – kuchsiz tomoni yoki ichki muammolarining mavjudligi;

Opportunities

tashkillashtirishdan tashqari rivojlanish uchun mavjud imkoniyatlar;

Threats – tashqi muhitdan tashkillashtirishni muvaffaqiyatiga ta'sir etuvchi xavf-xatarlar.

2-topshiriq mazmuni.

1. “An'anaviy va no'anaviy” ta'limning qiyosiy tahlilini o'tkazish.

2. «Ta'lim shakllari» ning qiyosiy tahlilini o'tkazish.

Eslatma: topshiriqni bajarishda “Konseptual” jadvalidan foydalaning va qoidasiga amal qiling.

Konseptualjadval

...tushunchalar gayondashuvlar	Tavsiflar, toifalar, xususiyatlar va boshqalar			

Konseptualjadval

Aspekt tahlili	An'anaviy ta'lim	Noan'anaviy ta'lim
Mashg'ulot maqsadi		
Mashg'ulot mazmuni		
O'qishning harakatlanuvchiliklari		
Mashg'ulotda ishlatiladigan metodlar		
O'qituvchi vazifasi		

«Ta'lim shakllari» bo'yicha Konseptualjadval

Ta'lim shakllari	O'qituvchi talabamunosa bata'lim shakllari	Talabalarning o'qishni bajarishda maqsad belgilanishi	O'qituvchining faoliyati
Ommaviy			
Jamoaviy			
Guruhli			
Individual			

Ta'limni tashkil qilish shakllarini qiyosiy tavsifi

Ta'lim shakllari	(+)	(-)
Ommaviy, Jamoaviy		
Guruhli		
Individual		

--	--	--

3-topshiriq mazmuni.

1.

Bilimlarni o'qitish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim aqsadlarini belgilash. 2. Uch darajali testlarni ishlab chiqish.

Uslatma: topshiriqni bajarishda bilimlarni o'qitish va o'quv faoliyati yo'llari darajali yondashuv asosida ta'lim aqsadlarini birday qilish va uch darajali testlarni ishlab chiqish jadvalida gima'lumotdan foydalaning.

O'qitish darajasi	Maqsad	Natija	Test
1			
2			
3			
4			

Bilimlarni o'qitish va o'quv faoliyati yo'llariga darajali yondashuv asosida ta'lim aqsadlarini birday qilish

Ta'lim oluvchilartomonidan B MK o'qitish darajasi	Ularga o'qitishning maqsad va natijalarini shakllantirishi. O'quv faoliyatini baholash mezonlari	Ushbu natijalarga o'qitish bo'yicha ta'lim beruvchilarning ta'lim oluvchilarning harakatlarining tavsifi
I. O'quvchilikka oid (tanish bo'yicha harakatlanishi)	Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida tushunchalarni shakllantirish. Natijalar: (ma'lum, tanish narsani o'zgartirishsiz, umumiy taxminlarni) tushuntiradi, aytadi, sanab o'tadi; (o'z so'zlarida) qaytarib beradi; - tashqi belgi va xususiyatlarini bo'yicha biladi, taniydi; (so'zma-so'z) yozadi. Baholash mezonlari: axborotni xatosiz qaytatiklaydi.	Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarning bilimlarni o'qitishlari bo'yicha faoliyatlarini tashkillashtiruvchi, axborot manba bo'ladi. Ta'lim oluvchilar: axborot - resseptiv (qabul qilish) faoliyatini amalga oshiradi: o'shitadi, kuzatadi, o'quv axborotini taslabq oladi va xatosiz qaytatiklaydi.
II. Tartiblilikka oid (algoritm) (namuna, o'xshashlik bo'yicha harakatlanishi)	Ta'lim maqsadi: ...to'g'risida bilimlarni shakllantirish, nazariy bilimni o'xshashlik bo'yicha qo'llash, harakatlarni tartib bo'yicha bajarish malakalari shakllantirish, (rivojlantirish, mustahkamlash). Natijalar: asosiy fikrni ajratadi;	Ta'lim beruvchi: ta'lim oluvchilarning faoliyatini tashkillashtiradi. Ta'lim oluvchilar: (namuna) ketma-ketlik bo'yicha reproduksiya qiladi.

	• bahoberadi, yakunyasaydi, isbotlaydi, tasniflaydi; • tushuntiradi, asoslaydi, umumlashtiradi, ishonchlidalillarkeltiradi, solishtiradivataqqoslaydi, xulosalarchiqaradi; • mustaqilvazifalarniechadi; • tanishsharoitlarda (namuna) tayyorketmaketlikbo'yichaharakatlarnibajaradi: o'lchashlarnio'tkazadi, sinaydi; tekshiradi, (tizimlarni, jihozvaboshqalarni) tashxisqiladi; echadi, yig'adi; texniktopshiriq, chizmalarnio'qiydi; ishlabchiqarishishlarinibajaradi, (jihozlarni) ishlatadivaboshqalar; • referattayyorlaydi, tuzadivagrafik, sxema, jadvallarnio'qiydi. <i>Baholashmezonlari:</i> o'quvfaoliyatyo'llarinibiladi, borbilimlarinio'zgartiradivaularnitanishsharoitlardaqo'llaydilar: namuna, o'xshashlikbo'yichabajaradi.	ktiv (qaytatiklash) faoliyatiniamalgaoshiradi: bilimlarniongliozlashtiradi, ularnimustahkamoeslab qoladivaqo'llaydi: o'xshashholatdaharakatlarniasosbilannamunali'rganganliklarib o'yichata'limberuvchirahbarligiostidabajara dilar.
III. Ijodiyfikrlovch ilikkaoid (əvristik) (harakatlarnitanlash)	Ta'limmaqsadi:shaxsiyfaoliyattartibinitashkil etishvashubo'yichamustaqilijodiyizlanishnio libborishvabilimlarniizlabtopish, ularniyangiholatlardaqo'llashmalakavako'ni kmalarinishakllantirish Natijalar: • shaxsiyfaoliyatiniirejalashtiradivatashkillashtiradi; • kerakliaxborotnitopadi, tanlaydi, qo'llaydivayangidanhosilqiladi; • yasaydi, murakkablashtiradi, soddalashtiradi; sinaydi; • bilimvamalakalarniyangiholatlardatan ishvanostandarttopshiriqlarni, muammoliholatlarniechishuchunqo'llaydi; • (jihozvaboshqalarni) ishlatishbo'yichatayyorlovqo'llanmasinio'qiydivasharhlaydi, tushuntirisholibboradi. Chizmavajadvallarni; (kompyutervaboshqalarni)	<i>Ta'limberuvchi:</i>ta'lim oluvchilarfaoliyatiniyo'naltiradi. <i>Ta'limoluvchilar:</i> ijodiyfikrlovchilik turd aginatijaviyijodiyfaoliyatniamalgaoshiradi: mustaqiltuzilgantartibbo'yichamustaqilizlanishvabilimlarniizlabtopishniolibboradi, o'zlashtirilganbilimlarniizlabtopishniolibboradi, o'zlashtirilganbilimlarniyangidanhosilqiladivaularniyangiholatdaqo'llaydi

	tizimdagito‘liqsiztashkil etuvchilarnito‘ldiradivaalmashtiradi; • nosozliklarnimantiqanizlanishinio‘tkazadi, kerakbo‘lsata‘mirlaydi, tiklaydi, almashtiradi, sozlaydi, ya‘nimodifikasiyalaydi (turlanishi, ko‘rinishi, shakllanishi, o‘zgarishi). <i>Baholashmezoni:</i> yangi holatdafaoliyat yuritishqobiliyatini ko‘rsatadi, yangidan hosil bo‘lgan bilimlari asosidaharakatlarnibajaradi, shaxsiy faoliyatini mustaqil tuzadi	
IV. Ijodkorlikka oid (harakatlarni izlash)	<i>Ta’lim maqsadi:</i> muammoni mustaqil ajratish va echish qobiliyati, tadqiqotchilik va izlanuvchanlik faoliyatiga tayyorgarlik, notanish holatlardaharakat qilish qobiliyatini shakllantirish (rivojlantirish) <i>Natijalar:</i> • muammoni mustaqil ajratadivau ni hal etish yo‘lini topadi; • tadqiqot ob’ektivapredmetini topadi, tadqiqot farazivavazifalarini ilgarisuradi, tajribao‘tkazish rejasini tuzadi, tajribao‘tkazadi, tajribanati jarasosidafarazni tekshiradi, tajribadan olinganlarni qo‘llash chegarasini aniqlaydi <i>Baholashmezoni:</i> tadqiqotchilik turdagimaqsadlar faoliyatini amalga oshiradi, tizimli yondoshish yo‘llariga ega, tahlil qilish malakavako‘nikmalarni namoyish etadi	<i>Ta’lim beruvchi:</i> ta’lim oluvchilarga maslahat beradi <i>Ta’lim oluvchilar:</i> tadqiqotchilik turdagimaqsadlar faoliyatini amalga oshiradi

**Bilim,
ko‘nikma va malakalarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish testlarini ishlab chiqish (V.
Bespalkobo‘yicha)**

Test maqsadi	Testlarning asosiy xususiyatlari	Xususiyatlari	Javoblar	Test topshiriqlarini ifodalash namunalari
Talabalar	Tanibolishlikka oid topshiriq	Bir vaqtning o‘zida (aytib berish uchun) topshiriq va javobdan iborat bo‘ladi	“Ha” “Yo‘q”	... hisoblanadimi?

valo'rgangamaterialnit anishiniteks hirish (o'zlashtirish-ning I darajasi)	Ajratib olishlikka oid topshiriq	Savol ham data n olish uchun javob variantlaridan iborat bo'ladi	1. 2. 3. 4.	... shulardan qaysibiri... to'g'riliginiko'rsating
	Tasniflashlikka oid topshiriq	Mosqismlarni taqqoslashtirish topshiriqlaridan iborat bo'ladi	1-(g) 2-(b) 3-(a) 4-(v)	Mosliklarniiko'rsating (ularning tushunchasini belgilanishi)
Tashqi aytib berishlarsiz e'sda qolganlarni o'zlashtirilgan ma'lumotlarni qayta aytib berish va shularasidan namunaviy topshiriqlar uchun hko'nikmalariniteks hirish (o'zlashtirish-ning II darajasi)	Qo'shimchalar qo'yiladigan testlar	Xohlagan shaklda: og'zaki, belgili, chizmalarda taqdim etilgan fikrlarni to'ldirish talab etiladi	Yo'q	... (formulani) to'ldiring, (etishmayotgan elementni)... ko'rsating
	Tuzilishlik (konstruktivlik)kaoid testlar	E'sda qolganlarni aytib berishlarsiz qayta konstruktivlash talab etiladi	Yo'q	Bu "(tushuncha / ifodalash ko'rsatiladi) nima?"... Chizmachizining ... Uchun formula ni yozing
	Namunaviy topshiriqlar	Ma'lum bo'lgan qoidalar ni qaytatiklash va uni izlanayotgan natijachun qo'llash talab etiladi	1. 2. 3. 4.	Namunaviy topshiriq
Ijodiy fikrlash hko'nikmalariniteks hirish (o'zlashtirish-ning III darajasi)	No'oddiy topshiriqlar	Namunaviy tartibostidagi topshiriqlarni oxiriga etkazishda, qo'shimchalar ma'lumotlarni qidirish uchun, dastlabki sharoitlarni o'zgartirish talab etiladi	1. 2. 3. 4.	No'oddiy topshiriqlar

☞ Quyida 3 darajali testlarning namunalari keltirilgan

4-topshiriq mazmuni.

O'quv mashg'uloti data'lim texnologiyasi modeli va texnologik xaritasini ishlab chiqish.

Aslatma: topshiriqni bajarishda yo'riqnomaga amal qiling.

YO‘RIQNOMA

Aniqfanvamavzuboyichamashg‘ulotningta’limmodelijadvalko‘rinishidabo‘lib, undaquyidagilarko‘rsatiladi:

- *dastlabkima’lumotlar*: o‘quvmavzusi, vaqti, talabalarsoni;
- *shakl* (ma’ruza, seminarvaboshq.) *vako‘rinishi* (masalan, muammolima’ruzavabosh.), o‘quvmashg‘ulotirejasi/tuzilishi, uningmaqsadi, o‘quvfaoliyatiningko‘zlanayotgannatijalari, pedagogikvazifalari;
- *tanlanganta’limmodeli*: *usullar, shakllarvao‘qitishvositalari*;
- *ta’limberishsharoiti*: maxsusjihozlangan, guruhlashakllardaishlashgamo‘ljallanganxonalar;
- *monitoringvabaholashgaasoslanganqaytaraloqaningyo‘lvavositallari*: nazoratturi (yozmavaog‘zaki), nazoratshakli (tezkor-so‘rov, testolish, taqdimot, o‘quvtopshiriqlarivaboshq.).

O‘quvmashg‘ulotiningtexnologiyaxaritasiuchqatornio‘zichigaolib, 1,5-2 varaqdajadvalko‘rinishidabajariladi: (1) o‘quvmashg‘ulotibosqichlarivavaqti; (2) ta’limberuvchifaoliyati; (3) ta’limoluvchifaoliyati.

Ilova.O‘quvjarayoniningtashkiliy - didaktikvazifasinibajaradi: o‘quv/mustaqilishuchunsavolvatopshiriqlarni, unibaholashmezonlarini, o‘quvishjarayonidatalabalaramalqilishilozimbo‘lganqoidalar, ta’limberuvchifoydalanadigantayanchyozmalar, shuningdekchizma, jadval, slaydlarvaboshqako‘rgazmalimateriallar, rejalashtirilganmaqsadlarga erishishninazoratqilishuchuntopshiriqlar (testlar, savollar, topshiriqlarvamashqlar).

Buerdataqdim etilayotganmateriallarchegaralanmaydi. Faqatularkattahajmli, yaxshituzilmagakeltirilganvagrafiklichizmalardarasmiylashtirilganbo‘lishikerak.

O‘quvmashg‘ulotidata’limtexnologiyasimodeli

Mavzu(raqami)(nomi).....

<i>Vaqt: ...soat</i>	<i>Talabalarsoni:...</i>
<i>O‘quvmashg‘ulotining shaklivaturi</i>	Ma’ruza (axborotli/birlashgandarsvaboshq..), seminar (bilimvako‘nikmalarnichuqurlashtirishbo‘yicha), amaliymashg‘ulot
<i>Ma’ruzarejasi /o‘quvmashg‘ulotiningtuzilishi</i>	1. ... 2. ...
<i>O‘quvmashg‘ulotimaqsadi:</i>	Shakllantirish / bilimvako‘nikmalarnichuqurlashtirish

<i>Pedagogik vazifalar:</i> ...bilantaniştirish; ...tasnifini berish; ...tushuntirish; ... ochib berish va boshq.	<i>O'quv faoliyatini atijalari:</i> ...ko'rsatadilar; ...tasniflaydilar; ...aytib beradilar; ...tartibli ravishda ochib beradilar
<i>O'qitish metodlari</i>	Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
<i>O'quv faoliyatini tashkil lashtirish shakllari</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>O'qitish vositalari</i>	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
<i>O'qitish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhlashakllarda ishlashgamo'ljallangan xonalar
<i>Qaytaraloqaning yo'l avositalari</i>	Og'zaki nazorat: tezkor-so'rov va boshq. Yozma nazorat: referat, test va boshq.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosq ichlarivavaqt i	Faoliyat	
	ta'lim beruvchi	ta'lim oluvchilar
1-bosqich. O'quv mashg'uloti g'uloti (daq.)	1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni etkazadi. Mashg'ulot rejasini bilantaniştiradi. 1.2. Mavzuga bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini tayyorlaydi. 1.3. O'quv mashg'uloti da o'quvchilarni baholash mezonlarini bilantaniştiradi	Tinglaydilar, yozib oladilar. Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.
2-bosqich. Asosiy (daq.)	2.1. Tezkor-so'rov/ savol-javob/ aqliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi. 2.2. Ma'ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulotning rejasini tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlarni tartibini bayon etadi	Javob beradilar Yozadilar. Guruhlarda ishl aydilar, taqdimot qiladilar va bosh.
3-bosqich. Yakuniy (daq.)	3.1. Mavzuga bo'yicha yakunlaydi, qilingan ishlarni kelgusidagi faoliyatlaridagi ahamiyatiga bog'liqligini muhimligini qat'iyat bilan bayon etadi. 3.2. Guruhlarini baholaydilar, o'quv mashg'ulotining maqsadiga	O'z-o'zini, o'zaro baholashni o'tkazadilar. Savol beradilar Topshiriqni yozadilar

	3.3. Mustaqilish uchun topshiriq beradigan baholash mezonlarini etkazadi .	
--	--	--

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MILLIY LIBOS VA SAN’AT FAKULTETI
TEXNOLOGIK TA’LIM KAFEDRASI

«Tasdiqlayman»
Termiz davlat universiteti
rektori _____ A.R. Maraximov
«__» _____ 2023-yil

KASBIY KOMPETENTLIK
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	100000 - Gumanitar
Ta’lim sohasi:	111000 – Pedagogika
Talim yo‘nalishi:	5112100 - Texnologik ta’lim

Termiz – 2023

Fan dasturi Termiz davlat universiteti Kengashining 2023 yil ____ __ 1-son majlisi bayoni bilan tasdiqlangan

O'quv fan dasturi DTS talablari asosida o'quv reja va dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Fan dasturi Termiz davlat universiteti “Texnologik ta’lim” kafedrasida ishlab chiqildi va turdosh oliy ta’lim muassalari bilan kelishildi.

Tuzuvchilar: **M.X.Shomirzayev** “Texnologik ta’lim” kafedrası mudiri,
p.f.d, (DSc),professor.
 J.X.Xayitov“Texnologik ta’lim” kafedrası o’qituvchisi
 F.S.Safarov“Texnologik ta’lim” kafedrası o’qituvchisi

Taqrizchilar: **S.S.Igamov** O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
Umumtexnika fanlari va texnologiyalar assistenti Pedagogika
fanlari bo’yicha (PhD).
 R.M.Haydarov-Texnologik ta’lim kafedrası katta o’qituvchisi

_____dagi ____-son yig'ilishida muhakoma qilingan va universitet Kengashiga tavsiya qilingan.

Fan/modul kodi K.K 3.07		O'quv yili 2023-2024	Semestr 7-8	Kreditlar 4	
Fan/modul turi T.F.Kasbiy kompetentlik		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 8	
1.	Fanning nomi		Auditoriya soatlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	T.F.Kasbiy kompetentlik		32	88	120

I. Fanining mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad- Tinglovchilarni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning innovatsion shakl, metod va vositalari, pedagogik kompetentlik sifatleri hamda ta'lim jarayonini tashkil etishga kreativ yondashishga doir bilimlarini takomillashtirish asosida ular tomonidan innovatsion yondashuv, pedagogik kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyatning samarali o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish.

Fanning vazifalari - innovatsion ta'lim texnologiyalarining o'ziga xosliklari va qo'llanilish sohalarini aniqlashtirish; tinglovchilarda innovatsion xarakterga ega pedagogik faoliyatni tashkil etish.

-ularda pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda turli innovatsion ta'lim texnologiyalari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o'kitish), case study (keys stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilaridan o'rinli, maqsadli foydalanish ko'nikma-malakalarini rivojlantirish;

-tinglovchilarning o'quv loyihalarini ishlab chiqish, portfoliolarni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish malakalarini takomillashtirish;

-tinglovchilarda pedagogik kompetentlik sifatlarini yanada rivojlantirish;

-o'quv mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishga kreativ yondashish ko'nikma-malakalarini takomillashtirish.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi.

Talaba:

“Kasbiy kompetentlik” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida tinglovchi:

- innovatsion ta’lim texnologiyalarining funksiyalari;
- innovatsion ta’lim texnologiyalarining turlari va qo‘llanilish sohalari;
- innovatsion ta’lim texnologiyalarini qo‘llashning pedagogik- psixologik va metodik shart-sharoitlari;
- innovatsion ta’lim texnologiyalarini loyihalash qoidalari;
- innovatsion ta’lim texnologiyalari: amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o‘qitish), case study (keys stadi), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilarining mohiyati;
- pedagogik kompetentlik asoslari va sifatleri;
- pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo‘llari, shakl va metodlari;
- pedagogik kompetentlik potentsiali va undan oqilona foydalanish shartlari;
- pedagoglarning kasbiy faoliyat (o‘quv mashg‘ulotlari, manaviy-marifiy tadbirlarni tashkil etish)ga kreativ yondashishlari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi;
- aniklashtirilgan o‘quv maqsadlarini shakllantirish;
- interfaol ta’lim texnologiyalariga asoslangan o‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash va rejalashtirish;
- shaxsga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;
- talabalarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;
- interfaol ta’lim texnologiyalari (amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o‘qitish), case-study (keys-stadi), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilari)ni oliy ta’lim amaliyotiga samarali tatbiq etish ko‘nikmalarini egallashi;
- innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini “jonli”, ijodiy va innovatsion faoliyatni tashkil etish;
- innovatsion tafakkur yuritish orqali ta’lim jarayonida ijodiy muhitni o‘zgartirish
- innovatsion ta’lim texnologiyalarining oqilona tanlab olish;
- mutaxassislik bilan bog‘liqlikda innovatsion ta’lim texnologiyalarini real amaliyot bilan uyg‘unlashtirishga erishish;
- innovatsion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ommalashtirish malakalarini egallashi;
- pedagogik innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish;
- ta’lim jarayonining innovatsion xarakter kasb etishini ta’minlash;
- innovatsion ta’lim texnologiyalari (innovatsion ta’lim texnologiyalari: amaliy o‘yinlar, muammoli o‘qitish, interfaol ta’lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o‘qitish), case study (keys stadi), masofali o‘qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilari)ga asoslangan o‘quv-bilish faoliyatini tashkil etish;

-talabalarni izlanishli-ijodiy faoliyatga yo'naltirish kompetensiyalarni egallashi lozim.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruzamashg'ulotlari)

1-mavzu. Kasbiy kompetentlikning tuzilishi va mazmuni.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Pedagogik kasbiy kompetentlik sifatleri. Pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatlerini rivojlantirish.

2-mavzu. Pedagogik mahorat asoslari va uning tarkibiy qismlari.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlari va ularning mohiyati. Pedagogning kommunikativ kompetentligi. Ta'lim jarayonini samarali boshqarish va pedagogik nizolarni hal etish. Zamonaviy pedagog imidji.

3-mavzu. Texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentligining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Kasbiy kompetentlik sifatleri. Pedagogning kasbiy kompetentligi.

4-mavzu. Pedagogik kreativlik va uning o'ziga xos jihatlari.

“Kreativlik” va “Pedagogik kreativlik” tushunchalarining mohiyati. Pedagogning kreativlik potentsiali. Kreativlik potentsialining tarkibiy asoslari va ustuvor tamoyillari. Pedagogning kreativlik potentsiali darajasini aniqlovchi mezonlar. O'quv topshiriqlarini ishlab chiqishga ijodiy yondashish.

5-mavzu. Pedagogik kasbiy kompetentlik va unga xos sifatlar.

“Kompetentlik” tushunchasining mohiyati. Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar. Ta'limda internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirishning muhim jihatlari.

6-mavzu. Texnologiya fani o'qituvchisining global kasbiy kompetentligi.

Xodimning professional kompetentligini baholash. Texnologiyasi ishining tuzilishi va prinsiplari bo'yicha bilimni shakllantirish va amalda qo'llashni o'rgatish.

7-mavzu. Bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligining invariantli tuzilmasi.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi kasbiy kompetentligining Invariant. Motivatsion komponent – ehtiyojlar. Kompetentlik va kompetensiya o'zaro ichki-tashqi shartlar.

8-mavzu. Bo'lajak o'qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari.

Kompetentlikka yo'naltirilgan yondoshuv ta'limda qo'llanilayotgan pedagogik texnologiyalar. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tayyorgarligi sifatini tahlil qilish uchun kompetentlik. Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi.

9-mavzu. Texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini baholashning shakl, metod va vositalari.

Kasbiy-psixologik baholash, mijozni kutish va uning talabini belgilash. Qobiliyatni baholashda kasbiy-psixologik portretdan foydalanish bo'yicha malakalarini shakllantirish. Talabgorning kasbiy-psixologik portreti tarkibi.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar:

(Laboratoriya ishlari). (Seminar mashg'ulotlari), (Kurs ishi), Mustaqil ta'lim)
o'quv rejada kursatilgan turi(nomi) bo'yicha yoziladi)

Amaliy mashg'ulotlarga tavsiya etiladigan mavzular.

1. Pedagogik jarayonda innovatsion ta'lim texnologiyalarini samarali qo'llash shartlari..
2. O'qitish amaliyotida innovatsion ta'lim shakl, metod va vositalardan foydalanish.
3. Pedagogik kompetentlik sifatlarini rivojlantirish.
4. Pedagoglarda kasbiy mahoratni takomillashtirish.
5. Pedagoglarda kreativ qobiliyatni rivojlantirish.
6. Ilg'or ta'lim texnologiyalari va pedagogic mahorat.
7. Innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash va rejalashtirish.

IV. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'limning tavsiya etiladigan mavzulari:

1. Zamonaviy ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari.
2. Ta'lim texnologiyasining mohiyati va belgi xususiyati.
3. Ta'limga texnologik yondashuvning mohiyati va uning uzluksiz rivojlanishi.
4. Ta'limning yo'l va vositalari.
5. Ta'lim jarayonida boshqaruvning o'rni va mohiyati.
6. Pedagogik texnologiyani loyilashtirish va rejalashtirish yo'llari.
7. Ta'lim usullarini tanlash.
8. Ta'lim usullarini tasniflash.
9. Usulning ta'lim berish texnologiyasidagi o'rni va vazifalari.
- 10 Ta'lim usullarining va texnikalarining xususiyatlari.
11. Seminar-munozara usulining mashg'ulotda qo'llanishi.
12. Guruxlarda hamkorlikda ishlashni tashkil etish texnologiyasi.
13. Muammoni aniqlash, tahlil qilish va hal etishni rejalashtirishning yo'llari

va vositalari.

14. Ma'ruza ta'lim texnologiyasining tarkibi.
15. Pedagogik texnikani qo'llash.
16. Muammoli ma'ruzaning texnologik xaritasi.
17. Anjuman-ma'ruzada ta'lim berish texnologiyasi modeli.
18. Seminar-ta'lim texnologiyasining tarkibi va o'tkazish bosqichlari.
19. Pinbord texnikasi. Innovatsion texnologiyalar va ta'limiy o'yinlar.
20. Bahs- munozara usulining mashg'ulotda qo'llanishi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar):

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:

- Kasbiy kompetentlik fanining Oliy ta'lim muassasalarida o'qitilishi va fan o'qituvchisining faoliyati, o'quv ustaxonalarining moddiy texnik ta'minoti to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;
- Kasbiy kompetentlik fanining rivojlanishi va istiqbollari, Kasbiy kompetentlik fanida didaktik tamoyillar, dars shakllari, metodlari, Kasbiy kompetentlik fanida tuziladigan o'quv me'yoriy xujjatlar, davlat ta'lim standartlarining ishlab chiqilishi mezonlari va unga qo'yiladigan talablarni, metodikalarni bilishi va **ulardan foydalana olishi;**
- O'quvchilarning texnologik jarayonga tayyorgarligi bo'yicha o'quv rejasi va dasturlar mazmunini: o'quv jarayonini tashkil etish va texnologiya faniga oid rejalashtiruvchi xujjatlarni ishlab chiqishi, texnologiya fani darslarini olib borish **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;**
- Talaba amaliy malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi: Kasbiy kompetentlik fani mashg'ulotlarini o'tkazish: o'quv jarayonini rejalashtirish: otalabalar bilimni baholay olish: mahalliy, tabiiy materiallardan foydalanish; darslarni tahlil qilish; darslarni pedagogik va axborot texnologiyalar asosida tashkil qilish va o'tkazish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

- VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:

ma'ruzalar;

seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);

interfaol keys-stadilar;

guruhlarda ishlash;

taqdimotlarni qilish;

individual loyihalar;

- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

- VII. Kreditlarni olish uchun talablar:

- Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq

nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish hamda mustaqil ishlarini himoya qilish.

